

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

YANGI LUG'ATLAR – O'ZBEK LUG'ATSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING KO'ZGUSI

Durdona XUDAYBERGANOVA,
*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
bo'lim mudiri, filologiya fanlari doktori, professor*

Аннотация. В статье рассматриваются новые толковые словари узбекского языка, принципы их составления и роль словарей в развитии узбекского языкоznания.

Ключевые слова: узбекская лексикография, толковый словарь, словарь синонимов, отраслевой словарь, синоним, синонимический ряд, лингвистический термин.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmonida "...o'zbek tilining lug'at boyligini oshiruvchi lingvistik, sohaviy-terminologik, izohli lug'atlar yaratish" [1] ga doir begilab berilgan vazifalar hamda mazkur farmon asosida qabul qilingan "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi" [2] o'zbek lug'atshunosligida bir qator jiddiy lug'atlarning yaratilishida muhim rol o'ynadi. Ta'kidlash joizki, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari mazkur farmonda belgilangan lug'atlarni tayyorlashda juda katta hissa qo'shdilar.

Mazkur farmon asosida tayyorlangan lug'atlardan biri O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan yaratilgan olti jiddli "O'zbek tilining izohli lug'ati" [3] hisoblanadi. Bu lug'at uning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tayyorlangan dastlabki nashri hisoblanadi. Lug'atda hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanayotgan 80 mingdan ortiq so'z va turg'un so'z birikmalarining lug'aviy ma'nolari izohlangan. Ushbu lug'aviy birliklar fan, texnika, san'at va madaniyat sohalarida qo'llanuvchi terminlarni, o'zbek xalq shevalariga doir so'zlarni, ayrim tarixiy va eskirgan atamalarni o'z ichiga oladi. Lug'at annotatsiyasida qayd qilinganidek, u "o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo'yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan" [3; 4].

Mazkur lug'at 2020-yilda "O'zbekiston" nashriyoti davlat unitar korxonasida chop qilingan izohli lug'atning to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri hisoblanadi. Lug'atning mazkur yangi nashri 3000 dan ziyod yangi lug'aviy birlik bilan to'ldirilgan bo'lib, ular o'zbek xalq shevalari, xalq so'zlashuv tilidan hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida o'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlardan iborat. Shuningdek, lug'at juda ko'p illyustrativ misollar bilan ham boyitildi, so'zlar ma'nosining izohlari takomillashtirildi. Ushbu lug'atda keyingi davr o'zbek tili lug'aviy tarkibida sodir bo'lgan ma'noviy o'zgarishlar ko'rsatib berildi.

Olti jiddan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati" avval nashr etilgan ikki jiddli izohli lug'at materiallaridan tanqidiy foydalangan holda, o'zbek va jahon lug'atchiligining yangi, ijobjiy yutuqlarini, O'zbekiston mustaqilligi yillarda hayotimizda ro'y bergan tub o'zgarishlar va shu munosabat bilan o'zbek tili lug'at tarkibida paydo bo'lgan yangidan yangi so'z va terminlarni e'tiborga olib yaratilgan lug'atdir.

Olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'zbek tilini yanada rivojlantirish uchun, o'zbek tili va o'zbek tilshunosligining nafaqat respublikamizdagi, balki xorijdagi, butun dunyodagi nufuzi, obro'e'tiborini oshirish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilingan farmon asosida institut olimlari ikki jilddan iborat "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati" ni ham yaratdilar [3]. Ma'lumki, "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" birinchi marta 1974-yilda akademik Azim Hojiyev tomonidan yaratilgan. Ushbu lug'atning so'zlik hajmi nisbatan kam qamrovli bo'lib, "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"ni yaratish o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri edi. 2022-yilda nashr qilingan "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"da birinchi marta ona tilimizdagи so'zlarning ma'noviy nozikliklarini ko'sratuvchi sinonim so'zlar to'laqonli tarzda leksikografik yondashuvda tadqiq qilindi. Lug'at hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan sinonimik qatorlarni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash joizki, lug'at tuzuvchilari jiddiy izlanishlar olib borib, unga o'zbek xalq shevalari, tarixiy qatlamaqga oid sinonim so'zlarni ham kiritdilar. Lug'atda sinonimik qatordagi so'zlarning o'zaro ma'noviy munosabatlari, bu ma'noviy farqlanishlarni yuzaga keltiruvchi jihatlar, sinonimlarning funksional uslublarga munosabati yoritilgan, sinonimik qatorlardan o'rın olgan so'zlarning ma'no nozikliklarini hamda tilda qo'llanishini dalillovchi illyustrativ misollar keltirilgan. Lug'atdan o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo'yicha tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, olyi ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari, tarjimonlar, ijodkorlar, umuman, o'zbek tilining o'ziga xos jihatlariga qiziquvchi shaxslar foydalanishlari mumkin.

2023-yilda ushbu lug'at ixchamlashtirilgan va umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda akademik litseylar talabalariga moslashtirilgan holda "O'zbek tili sinonimlarning izohli lug'ati" nomi ostida nashr qilindi [4]. O'quvchilarning o'z ona tili boyliklarini o'zlashtirishlarida, shuningdek, "Ma'nodosh so'zlar" mavzusini o'rganishlarida ushbu lug'atning ahamiyati juda katta.

O'Z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari yuqorida qayd qilingan farmonda belgilangan lug'atlardan tashqari yana bir qancha lug'atlarni ham tuzib o'quvchilar hukmiga havola etdilar. Shunday lug'atlardan biri shu yilning boshida nashr qilingan "Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" hisoblanadi [5].

O'zbek tilshunosligida shakllangan va shakllanib borayotgan yangi sohalar, yangi yo'nalishlar natijasida ushbu fan terminologiyasidan crin olgan yangi terminlarning leksikografik talqini va tadqiqini amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtida ilmiy tadqiqot olib borayotgan filolog mutaxassislarda tilshunosligimizda yangi paydo bo'lgan terminlarning izohli lug'atiga katta ehtiyoj bor. Bunday lug'at olyi o'quv yurtlari talabalarini va magistrlariga ham zarur bo'lmoqda. Qator olyi o'quv yurtlarida zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari bilan bog'liq fanlar, maxsus kurslarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. Ushbu lug'at ana shu zarurat natijasida shakllantirilgan bo'lib, unda zamonaviy tilshunoslikka doir pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, assotsiativ tilshunoslik, psixolingvistika, matn tilshunosligi, diskursshunoslik, medialingvistika sohalarining asosiy terminlari izohlangan. Lug'atni yaratishda taniqli o'zbek tilshunoslaring asarlaridan, xorijiy ilmiy adabiyotlar, turli lingvistik terminlarning izohli lug'atlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida 20-asrning so'nggi choragi hamda XXI asrning dastlabi o'n yilliklarida yaratilgan tadqiqotlarga murojaat qilindi. Lug'atda zamonaviy izohli lug'atlardagi usullar qo'llangan. Ko'plab terminlarning leksikografik talqini ilk marta amalga oshirilayotganini nazarda tutgan holda ayrim terminlarga doir lug'at maqolalariga mutaxassislarning bu boradagi muhim qarashlari qo'shimcha ma'lumot sifatida kiritildi. Ayrim munozarali terminlarning izohiga aniqlik kiritish, xorijdan to'g'ridan to'g'ri qabul qilingan yangi olinma terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish, dublet terminlarning asosiy variantlari tanlab olish, terminlarni tartibga solish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Lug'at so'ngida foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, assotsiativ tilshunoslik, medialingvistika, matnshunoslik, metaforashunoslik kabi lingvistik sohalar va yo'nalishlarning guruhlashdirilgan tarzdagi ko'rsatkichi ilova qilindi. Lug'at zamonaviy tilshunoslik masalalari doirasida izlanish olib borayotgan filolog mutaxassislar, tadqiqotchilar, doktorant va magistrantlarga mo'ljalangan.

Bu kabi lug'atlarning ko'psonli adadda nashr qilinishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasining moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi katta rol oynadi. Yuqoridaagi lug'atlarning barchasi mana shu jamg'armaning mablag'lari hisobidan nashr etilgan.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, keyingi yillarda nashr qilingan qator lug'atlar o'zbek lug'atshunosligining yanada taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Bu lug'atlar, shubhasiz, o'zbek xalqining intellektual darajasini ko'tarishga, dunyoqarashini boyitishga, o'zbek tilining dunyodagi eng boy tillardan biri ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>.
2. 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020–2022-yillarda amalga oshirish dasturi // <https://lex.uz/docs/5058351#5061216>.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati / A.Madvaliyev va D.Xudayberganova tahriri ostida. 6 jildli. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. 2 jildli. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
5. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
6. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Bookmanyprint, 2023.

ERKALASHNI IFODA ETUVCHI LEKSIK BIRLIKLER ETIMOLOGIYASI

Xushnuda SAMIGOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillar
universiteti professori (DSc)

Guo TIANYU,
"China GEZHOUBA Group International Engineering
Central Asia" korxonasi xodimi (PhD)

Аннотация. Целью данной статьи является изучение на примере английского и узбекского языков этиологии языковых единиц, выражающих ласку. В данную статью включены результаты исследований происхождения ласкательных слов и выражений в английском и узбекском языках, а также их заимствованные эквиваленты.

Ключевые слова: ласканье, английский и узбекский языки, этимология, анализ словарей, ласкательное значение.

Ma'lumki, tillarning ichki rivojlanishi ichki va tashqi qonuniyatlargaga bo'ysunadi, ya'ni o'zaro hamkorlik jarayonida tillar taraqqiyoti ichki qonunlar ta'sirida emas, balki tashqi ta'sirga ko'proq bog'liq bo'ladi. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi mazkur mamlakatlarda yashovchi xalq va elat madaniyatining bir-biriga yaqinlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradi. Tillar ham bir-biriga ta'sir ko'rsatib boyib boradi; bunday hamkorlik tillarning ichki rivojlanishiga ham sabab bo'ladi [2; 157].

F. De Sossyur tashqi va ichki lingvistikani qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha, tashqi va ichki tilshunoslikda til xalq tarixi, geografik joylashishi bilan bog'lab tekshirilishi lozim [5; 90-91].

Har bir til leksikasining ma'lum foizi boshqa tillardan o'zlashgan bo'ladi. Uning ayrimlari o'zining ajnabiyo bo'yog'ini yo'qotib, xuddi o'zinikidek tuyuladi, ayrimlari esa fonetik, grammatik yoki semantik o'ziga xosligi-yu, g'ayritabiyligi bilan yot so'zligicha qoladi [1; 117].

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

Ingliz tilida zamon taqozosи bilan ispan, italyan, fransuz, ivrit va rus tillaridan o'zlashtirilgan suffikslar ishtirokida so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, ispan tilidan -o suffaksi (kidd-o, buddy-o, daddy-o, boy-o) so'zlarga qo'shilib ifoda etiladi [4; 85-87].

Tadqiqotimiz natijalaridan qiyoslanayotgan tillarga aynan chetdan o'zlashtirilgan so'zlar ham erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlarga o'z ta'sirini ko'rsatganligi aniqlandi. Masalan, Webster lug'atining ma'lumot berishicha [197], ingliz tiliga fransuz tilidan minion (suyukli), beau (go'zalim), belle (go'zalim), ispan tilidan cabalero (kavaler), italyan tilidan nymph (qizgina), courtesan (asira), cicibeo (sevgilim), charlatan (shayton), Inamorato (sevgilim), Inamorata (sevgilim), arab tilidan esa peri (parivash), sheik (sulton) kabi erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklar kirib kelgan. Fikrimizni misollar bilan to'ldiramiz:

Kiss me, kiss me my sweet Inamorata

You are a symphony a very beautiful sonata my Inamorata [11].

O'zbek tilining izohli lug'atidan olingen ma'lumotga ko'ra, mazkur tilga fors-tojik tilidan gulandom, gulbadan, devona, dilbar, jigar, jonivor, nigor, mahliqo, pariro'y va shu kabi boshqa so'zlar, arab tilidan mahbuba, mahbub, ofatijon, farishta, xumor, javhar, muhabbat, jinni, ma'shuqam, habib kabi so'zlar o'zlashgan. To'plangan misollar rus tilidagi -ishka, -chik, -ka erkalash affikslari o'zbek tilida ot so'z turkumiga qo'shilib, nutqda erkalashni ifodalashini ko'rsatdi (Asalishka, asalchik, asalka, Xayrishka, Boburchik, ponchik, Nargizka va b.). E. Qilichev bu borada shunday deydi: "O'zbek tilida, ayniqsa, yoshlар nutqida ba'zan erkalashning ruscha shakllari uchraydi: Nazarchik (Nazar), Lolyachka (Lola), Adik (Adiba) kabi. Ayrim ruscha shakllar erkalash shakllari bilan sinonim tarzda ham ishlatilmoqda:

Dedilar bir yig'inda, kerakmas hech xon demoq,

Xayixonning o'rniغا Xayrichkasi yaxshiroq" [8; 21].

R.R. Xadyatullaevning ta'kidlashicha, -jon suffaksi ba'zida ruscha atoqli ismlariga qo'shilib keladi (Sashajon, Ivanjon kabi) [6; 75].

O'zbek tilida juda asalsan degan fikr ba'zi hollarda rus tilidagi ۋىوبىچە so'zining o'zbekcha talaffuz etilishi orqali, ya'ni vabshe asalsan kabi ko'rinishda ham so'zlashuv nutqida uchrashi kuzatildi.

Demak, ingliz tiliga ispan, italyan, fransuz, arab tillari EFSMni shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, o'zbek tilida esa arab, fors-tojik, rus tillaridan mazkur mavzuga tegishli so'zlar o'zlashganligini kuzatish mumkin.

Erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning etimologik chegaraga doir tahlili jarayonida mazkur maydon doirasidagi leksik birliklarning tarixiylik jihatlari ham o'rganib chiqildi. Ma'lumki, tarixan so'zlar yangi va eskirgan bo'lishi mumkin. Erkalashning eskirgan so'zlar guruhiba kiruvchi qismi tadqiq etilayotgan tillarning har ikkisida ham uchradi. Masalan, ingliz tilidagi Webster izohli lug'ati [7; 21-975] erkalashni ifoda etuvchi pumpkin, sweeting, leman, mistress, moppet, brave, chit kabi so'zlarni eskirgan, arxaik so'zlar qatoriga kiritadi. Oxford Thesaurus lug'atidagi ma'lumotlarga ko'ra esa [10; 605], swain, concubine, doxy, leman, courtesan, cicibeo kabi so'zlar ham nutq faoliyatidagi eskirgan so'zlar hisoblanadi. So'rovnomalar natijasiga ko'ra, bo, boyfriend, fiance, chum, chap, wench kabi erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklar nutq faoliyatidan chetlashib borayotganligi aniqlandi.

O'zbek tilining izohli lug'atida asira, begoyim, begim, boyvuchcha, bibish, buzrukvor, volida, qoqindiq kabi erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklarning lug'aviy izohida nutq faoliyatida eskirganligini ko'rsatuvchi pometalar mavjud. Malika, malak, xonzoda kabi so'zlar tarixda aslida podshohlar oilasiga mansub shaxslarga qarata aytigan bo'lsa-da, hozirgi kunda o'zbek tilining adabiy va so'zlashuv tilida suyish va erkalash ma'nolarida sevikli yorlarga nisbatan ifoda etib kelinadi. Masalan:

Sen ko'kdagi malagim, men yerda yupun, xorman,

Sevarmi deb so'radim, yoqqan har zarra qordan [3; 104].

Xon Odilbikani yupantirmoqqa boshladи:

– Parizodam, malikam, qo'ying, eshinni o'zim o'ldiraman... [7; 314]

O'zbek tilida bu kabi erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birliklar insonlar tabaqasiga qaratib ifoda etiladi deyish noto'g'ri, albatta. Ular tilda asl ma'nosida ifoda etilmasdan, balki erkalash, hurmat ma'nolarini ko'chim orqali ifodalaydi. Qolaversa, o'zbek tilining izohli lug'atida o'g'il bolalarga qulun so'zi erkalash ma'nosini ifodalashi haqida ma'lumot berilsa-da, hozirgi kunda bu so'z nutqda qo'llanilmaydi.

R.R. Xadyatullaevning fikricha, -choq, -chuq, -chiq, -chak erkalash-kichraytirish suffikslari hozirgi o'zbek tilida sub'ektiv bahoni ifoda etishi sezilmay qolmoqda [6; 72].

Lekin, bizning fikrimizcha, mazkur suffikslar qo'shilgan qo'zichoq, toychoq, kelinchak, yupanchiq kabi so'zlar hali ham o'zbek tilida erkalash va kichraytirish ma'nolarini ifoda etadi.

Erkalashning sotsiolingvistik xususiyatlari borasida olib borilgan tahlillarga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarida erkalash ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar, so'z birikmalari va frazeologik birlıklar umumxalq va kichik guruhlar tomonidan ifoda etilishi aniqlandi. Qon-qarindoshlik doirasida, do'stona, yaqin munosabatlarda, sevishganlar nutqida, shevada, adabiy va so'zlashuv tillari normalarida hamda yosh jihatdan erkalashning ifoda etilishi bir-biriga qardosh bo'lмагan tillarda misollar orqali izohlandi. Etimologik chegaralanishga ko'ra, erkalash chet tillardan o'zlashgan leksik birlıklar va suffikslar orqali ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Tarixiylik jihatlariga ko'ra, mazkur so'zlarning ba'zi qismi vaqt o'tishi bilan nutq faoliyatidan chetlashib boradi. Erkalash yo'naltirilgan obyektga ko'ra esa hayvonot dunyosi, o'simliklar olami, osmon jismi, vaqtini anglatuvchi otlar, jonsiz predmetlar, tabiat hodisalariga nisbatan ifoda etilishi aniqlandi. Ingliz va o'zbek xalqlari ijtimoiy hayat tarzida ro'y beradigan hodisalar erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birlıklarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur tillarda erkalash insonni o'rab turgan tabiatning barcha vakillariga nisbatan ifoda etilishi aniqlandi. Ingliz tilida erkalash ma'nosini ifodalashda, asosan, so'zlar oldiga sweet so'zini hamda so'zlarga -ie, -y kabi suffikslar qo'shib ifodalansa, o'zbek tilida erkalashning ifoda etilishi ingliz tilidan farqli o'laroq, juda keng grammatik, suffiksal qamrovni o'z ichiga oladi.

Xalqning tarixi va ijtimoiy hayat faoliyati erkalash ma'nosini ifoda etuvchi leksik birlıklarning shakllanishida hamda nutqda qo'llanilishida o'z aksini topadi. Bu esa til birlıklari va ularning ma'nolariga kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan qarashning naqadar ahamiyatli ekanligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Акбарова З.А. Ўзбек тилидаги мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи. Филол. фан. номз. ...дис. – Тошкент: ЎзРФА, Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2007. – 135 б.
2. Ирискулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 157 б.
3. Мұхаммад И. Чиройлисан тенги йўқ. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 10-200.
4. Раҳимов Ф. Британия ва Америка сленгининг социолингвистик хусусиятлари. Филол. фан. номз. ...дис. – Самарқанд: СамДТЧИ, 2006. – 149 б.
5. Усмонов С. Умумий тилшунослик. Педагогика институтларининг филология факультети учун дарслар. – Т.: Ўқитувчи, 1972. – Б. 90-91.
6. Хадятуллаев Р.Р. Соотносительность морфологических средств выражения категории субъективной оценки имен существительных в русском и узбекском языках: Дис. ...канд. филол. наук. – Орёл: ОГПИ, 1969. – 235
7. Шарипов Ж. Хоразм. – Т.: Faafur Fulom, 1967. – Б. 116-314.
8. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б. 21-140.
9. Merriam W. Merriam Webster's Collegiate Dictionary. Eleventh Edition, – Massachusetts, USA: Incorporated Springfield, 2003. – PP. 21-975.
10. Oxford Thesaurus of English (Second Edition). – Oxford: Oxford University Press, 2004. – PP. 197-936.
11. <http://www.urbandictionary.com/define.php?term=inamorata>

ONA TILI – MILLATNING RUHI

Yorqinjon ODILOV,
*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
 bo'lim mudiri, filologiya fanlari doktori, professor*

Аннотация. В данной статье приведены размышления автора о национальном языке, культурно значимых единицах языка – пословиц, фразеологизмов, афоризмов, преобразованиях и изменениях в лексике современного узбекского языка; даны рекомендации лингвиста о языковом воспитании в семье.

Ключевые слова: национальный язык, пословица, фразеологизм, заимствование, неологизм, языковое воспитание, языковая культура.

Bu ko'hma dunyoda millat deb atalmish birlik borki, uning ong-u shuuri dunyoni, undagi necha ming, balki undan-da ortiq sir-u sinoat, tilsim-u tilsimotlarni til orqali idrok etadi, xalq tarixining olis o'tmishida qolib ketgan qadriyatlarni sohibiga ham shu til yetkazadi. O'zbek tilining mo'tabar manbalari bo'lgan "Bitiktosh"lar, "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Devoni hikmat" dek asarlar ham ona tilining buyuk xizmati tufayli xalqimiz tafakkurini boyitib kelmoqda. Tilning, shu jumladan, ona tilining favqulodda qudrati "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday ifodalanadi: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtaсидаги ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir" [1; 83].

Tabiiyki, bu bebaho meros shu xalq bilan birga yashab, birga taraqqiy etadi. Ana shu rivojlanish jarayonida ba'zi milliy an'analar unutilishi, esdan chiqishi mumkin. Ba'zilari esa, aksincha, yana-da rivojlanish, yangirish, ta'bir joiz bo'lsa, zamonaviylik kasb etishi – bor gap. Albatta, ayni ikki evrilishning birinchisi – u yoki bu milliy an'ananing yo'qlikka yuz tutishi xalq ma'naviy dunyosiining kemtik bo'lib qolishiga, benihoya betakror milliy o'zi xoslikning zaiflashuviga olib keladi. Milliy urf-odat va an'analarning saqlanishi, rivojlanishi esa xalq ma'naviyatining yuksalishiga, dunyo ayvonida barqaror turmog'iga, millat "menligining" ramzi sifatida yashashiga zamin hozirlaydi. Ona tili ana shunday qadriyatlarning oliy shaklidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, ona tili unda so'zlovchi kishilarning o'zini, o'zligini namoyon etadi. Bugun mustaqil davlatimiz va davlatchiligimiz sharofati bilan ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilining huquqiy maqomi tiklandi, qonuniy muxofazasi ta'minlandi. Butun umrini tilning olis tarixini o'rganishga bag'ishlagan zahmatkash tilshunos Ergash Umarovning aytishicha, Sibir o'lkasida yashovchi turkiy xalqlar, xususan, yoqt, tuva, xakas tillari tamoman yo'qolib yoki unutilish ketish arafasida turibdi, chunki unda so'zlovchi kishilarning soni borgan sari kamayib bormoqda, globallashuv deya ta'riflanayotgan davrning buhronlarida qolib ketmoqda. Yaratganga shukrlar bo'lsinki, o'zbek tilining millionlar bilan o'lchanadigan sohibi – so'zlovchisi bor.

Milliy ma'naviyatimizning tiniq tajassumi, ayniqla, ajdoddardan avlodlarga o'tib kelayotgan, o'zga tillardan aynan ifodasini topib bo'lmaydigan maqol va matallar, hikmatli so'z-u ibora atalmish qayroqi so'zlarda betakror injaliklar bilan ifodalanadi. Masalan, "Toza ko'zaning suvi toza", "Ahmoqning aqli to'pig'ida", "Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r", "O'n qatim o'yla, bir qatim so'yla", "O'ylab gapirsang ham o'ylab gapir", "Dono bilan nodon bir buloqdan suv ichmas" kabi maqollar; "Alifni kaltak deydi", "Igna tashlasang, yerga tushmaydi", "Attorning qutisida ham yo'q gaplar" singari matallar; "boshi ko'kka yetmoq", "ko'zi to'rt bo'lmoq", "o'pkasini cho'pga ilgan", "bir yoqadan bosh chiqarmoq", "ko'nglida kiri yo'q", "og'ziga qatiq ivitmoq" tarzidagi qayroqi iboralar, "Vatan – onaning ko'ksidan boshlanadi", "Vatan yuki zalvarli bo'lsa ham maloli yo'q", "Ilm kelinchakka o'xshaydi, u hikmat va pinhoniylikni yoqtiradi", "Adabiyot yashasa, millat yashar" kabi hikmatlarda o'zbekona ruh, tajribaning tarang mantig'i barq urib turadi. Ular namoyon etadigan ma'nomazmunni o'zbek turmush tarzidan ayro holda tasavvur qilib ham, tushuntirib ham bo'lmaydi.

Bugun O'zbekiston duning barcha mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda teng huquqli munosabat o'rnatib kelmoqda. Shu bois bir qator davlatlarning universitet-u ilmiy markazlarida

o'zbek tilini o'rganuvchilar soni oshib, o'zbek tilini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan tadbiquotchilar safi kengaymoqda. Masalan, AQSh, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya davlatlarining oliv o'quv yurtlarida o'zbek tilini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganayotgan, o'rgatayotganlarning soni salmoqli. Ayni paytda yurtimizda ham xorijiy xalqlar madaniyatini rivojlantirish, boyitish maqsadida tashkil etilgan milliy-madaniy markazlarning faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlarni yaratib berilgan. Buning yaqqol namunasi sifatida yangidan qad rostlagan O'zbekiston Milliy kutubxonasi negizida tashkil etilgan "Koreya oynasi" nomli koreys tili o'rgatish markazini ko'rsatish mumkin.

Xalqaro hamkorlik va fan-texnika taraqqiyotining tabiiy mahsuli sifatida o'zbek tilining lug'at tarkibi ham yangi-yangi tushunchalarning ifodasi bo'lgan o'zlashma so'zlar bilan boyimoqda. Turmushning turli sohalariga oid bu so'zlarni o'zlashtirishda me'yor asosiy mezon bo'lib turibdi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasiga juda ko'plab yangi tushuncha va so'zlar kirib keldiki, bu shu sohaning rivoji, jamiyatning tabiiy ehtiyoji, talabi, taqozosi bilan bog'liq. Masalan, internet, sayt, veb-sayt, fleshka, brauzer, provayder, gigabayt, megabayt kabi lisoniy birliklar tildan muqim o'rinni egalladi, o'zbek xalqining konseptual manzarasida bu so'zlar ifodalaydigan tushunchalar muqimlashdi.

Internet jurnalistikasining asta-sekin shakllanib borishi bilan bevosita ayni soha so'zlari ham tilimizga kirib kelmoqda. Masalan, ingliz tilidan aynan o'zlashgan blog ("egasi tomonidan matnli, tasvirli yoki multimediali axborot bilan muntazam to'ldirib boriladigan veb-sahifa [2; 507-508]"; "onlayn-kundalik" – O'zining shaxsiy veb-sayti va blogiga ega bo'lismi istagan yosh jurnalistlar uchun zarur tavsiyalar berildi. (Turkiston, 2015, 20 iyun), bloger ("ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa tusdagi axborotni ommaviy muhokama uchun Internet tarmog'iadi veb-sahifasiga joylashtiruvchi jismoniy shaxs; blog muallifi, blog yurituvchi shaxs [2; 508]" – Mamlakatimizda ijtimoiy mas'uliyatlari blogerlarni rag'batlantirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. (Turkiston, 2015, 17 iyun), blogpost (odamlarning o'qishi uchun mo'ljallab muayyan shaxs blogida e'lon qilingan xabar, maqola va boshqa yozma asar [3]" – Uni [Nosirni] finalga olib chiqqan "Immunitet" nomli blogposti islam niqobi ostida faoliyat olib borayotgan turli diniy oqimlar ning kirdikorlarini ochishga qaratilgan. (Turkiston, 2015, 17 iyun) kabilalar shular jumlasidandir.

Ona tilimizning ichki imkoniyatlariga tayanib, yangi so'zlar yaratish va so'z yoki ibora ma'nova qamrovining yangi ma'nolar bilan boyishi ham tilning tabiiy ehtiyojidir. O'zbek tili lug'at tarkibi ana shunday so'zlar hisobiga rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Ommaviy axborot vositalar ko'p va xo'p qo'llanayotgan modernizatsiyalamoq, globallashuv, integratsiyalashmoq, legallashtirmoq, liberallashtirmoq, kreditlash yoki aviabozor, aviakorxona, aviatashuv, aviaxodim, aviaqatnov; mediatashuv, mediata'slim, mediamahsulot, mediamarkaz, mediamadaniyat, mediasavodxonlik kabi so'zlar o'zbek tilining ichki imkoniyati asosida hosil qilingan.

O'zbek tili leksikasi alohida so'zlardan tashqari bir qator birikma nomlar bilan ham kengayib bormoqda. Masalan, vakolatli davlat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, xususiy tadbirkorlik subyekti, kichik biznes vakillari, ishbilarmon doiralar kabilalar o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari kengayib borayotganligini ko'rsatadi.

Til mohiyat e'tibori bilan insonga naf keltirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, har kishi ona tili sofligi uchun baholi qudrat harakat qilmog'i kerak. Basharti shunday qilmaganda ham, ismi qo'yilgan, ilk bor alla eshitgan tiliga hurmat-u ehtiromini saqlashi, eng kamida, milliy tilining zarariga ishlaydigan harakatlardan tiyilishi lozim. Ammo, taassuf-la aytish mumkinki, ba'zi zamondoshlarimizning ona tiliga bo'lgan bepisand munosabatini ko'rib, yoqangni ushlaysan. Ularning qorishiq tilda muloqot qilayotganidan yoqa ushlaysan, ko'ngildan "bular o'zbekmi?" degan o'y o'tadi. Baraka topgur, agar xorijiy tilni biladigan bo'sang, marhamat, joyini topib, faqat o'sha tilda gapir. Hech kimning e'tirozi yo'q. Uddasidan chiqmasang, tilingga bepisand bo'lma.

Albatta, bu kabi holatlarni bartaraf etish bir kishining ishi emas. Avvalo, oilada tilga munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yib olish kerak. Ota-onaning o'zi farzandiga to'g'ri til tarbiyasi borasida namuna ko'rsatishi zarur. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'qituvchi va murabbiylar ona tiliga bo'lgan munosabat borasida ibrat bo'lmog'i lozim. Xullas, oila, mакtab va mahalla hamkorligidagi ishlarning bir qismi sifatida yosh avlodni o'zbekona so'zlashga o'rgatish maqsad qilingan bo'lishi lozim.

Bugun televidenie yoki radioda davlat tilining obro'sini ko'tarish borasida gap ketganda, aksar hollarda ko'cha-ko'ydagisi yozuvlarning ajnabiy tilda ekanligi, yoshlarning ona tiliga bepisandligi, fikrini davlat tilida erkin, lo'nda ifoda eta olmayotganligidan yozg'iriladi. Bu – bor gap, ammo meni og'rintiradigan tomoni ularning davlat tilidek katta tushunchani faqat shu holatida tasavvur qilayotganlari, tushunayotganlaridir.

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

Menimcha, muammoni bu tarzda ko'rsatish, ta'rifini keltirib sanayverish, muammoning sababiga ta'sir etishni chetga surib qo'yib, aybdorni topishdek muddao bilan maydonga chiqaverish bilan ish bitmaydi. Mabodo shunday bo'lganida, bugun bizda davlat tilining nufuzi, amaliyotga joriy etilishi borasida birorta muammo bo'lmas edi.

Muammoning sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan: o'zga tilni afzal ko'rayotgan, o'zbekcha gapira olmayotgan fuqarolarimizda ma'naviy o'lchov kichik. Ma'naviy o'lchovning kichikligi shundaki, ular chet tilida so'zlashni madaniyatatlilik deb biladilar. Biz yurtdoshlarimiz, millatdoshlarimizning shuuriga tortilgan "parda"larni (buning sabablari ko'p, albatta) sirib tashlashdan ishni boshlashimiz, madaniyatatlilik, ma'naviyatatlilik aslida kishining ona tiliga hurmati bilan belgilanishini, davlat tiliga bepisandlik hamma zamonda, hamma joyda madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik sanalishini tushuntirishimiz, bunday o'gitni bolalikdayoq bolalar qulog'iga quyishimiz kerak.

Ikkinchidan: oilada til tarbiyasining noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi, lisoniy muhitning o'zbekcha emasligidir. "Qush inida ko'rganini qiladi" deyilgani bejiz emas, ota-onu tutumining g'arbchaligi, ota-onu nutqining quramaligi yoki muomalada yot tilni afzal ko'rayotganligi farzandni ham shunday tutumda yashashga, shunday lajhada chuldirashga o'rgatmoqda. Bunday muhitda o'sayotgan bola olamni o'ta milliy andazada emas, o'ta g'arbcha yoki qurama lisonda anglashga odatlanmoqda. Agar ota-onu farzandiga milliy tutum, milliy til namunasini ko'rsata bilsa, bolada milliy tutum, milliy til layoqati bikr shakllanadi. Ajdodlarimiz xo'b bilib aytgan: Qush inida ko'rganini qiladi.

Uchinchidan: uzoq yillar davomida davlat tilida ish yuritishni barcha uchun birdek zaruratga aylantira olmadik. Davlat tili talablarini bir chekkaga surib qo'ysak ham, davlat tilida yozmasak, gapirmasak ham, mushugimizni birov pisht demadi. Aksincha, ayrim korxona va tashkilotlarda ishlash, ishga kirishda davlat tilini puxta bilganlik uchun emas, chet tillardan birini (u rus tilimi, ingliz tilimi, baribir) egallaganlik uchun e'tibor berildi, bu alohida iste'dod sifatida tushunildi.

Davlat tilini bilishni, davlat tilida ish yuritishni zaruratga aylantirish kerak deyishimizning eng sodda tavsifi shuki, agar siz davlat tilida ish yuritmasangiz, yozmasangiz, gapirmasangiz bo'lmaydi, qo'polroq qilib aytganda, ishingiz bitmaydi. Zarurat ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bu davlat tilini amaliy hayotimizning eng zaruriy vositasiga aylantiradi-qo'yadi. Dunyoning qaysi davlatiga bormang, yashamang, avvalo, o'sha davlatning tilini o'rganmasangiz kuningiz o'tmaydi. Amerika yoki Xitoyni qo'ya turing, qardosh Turkiyada ham kamida turk tilida gapirishni o'rganib olgachgina, ishingiz yurishadi. Hayotiy vaziyat, tabiiy muhit sizni turkcha gapirishga majbur qiladi. Chunki, kerak ekan, bolalar yapon, xitoy tillarini o'rganib, unda biyron gapirmoqdalar. Kerak ekan, bugun "bani o'zbek" ingliz tilini o'rganib, okeanortida tirikchilik qilib yuribdi.

Ushbu uzun qissadan hissa shuki, davlat tili – O'zbekiston ottig' davlatning tili. U qonun bilan himoyalangan. Bu tilning qonuniy talablariga barcha birdek rioya etishi shart, chunki bu tilga bepisandlik, aslida, davlatga bepisandlikdir. Demak, yoshu qarining shuuriga ona tilining muqaddasligi, juda zarur milliylik ekanligini singdira olsak, o'quvchilarda til ta'limi orqali o'zbekona lutf malakasini shakllantira bilsak, jamiyat hayotining turli jabhalarida faqat va faqat davlat tilida ish yuritish kerakligini tushunsak, tushuntirsak, davlat tili millatidan qat'i nazar barchani O'zbekiston xalqi sifatida birlashtirishini anglab olsak bo'ldi, marra bizniki.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
3. Cambridge Advanced Learner's Dictionary & Thesaurus <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/blog-post> (Murojaat sanasi: 1.03.2024)

INTERNET OAVDA MEDIAKONTENT TILI VA USLUBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dilnoza AMINOVA,
O'zDJTU dotsenti, f.f.d (DSc)

Аннотация. В данной статье анализируются мнения различных ученых относительно медиаконтента интернет-СМИ и его структурных элементов. Раскрыта важность 360-градусных, цифровых и VR-технологий, дающих эффект виртуальной реальности. Вопрос языка и стиля медиаконтента основан на научно-теоретической точке зрения.

Ключевые слова: интернет-медиа, медиаконтент, язык, стиль, виртуальная реальность, цифровые и VR-технологии, платформа, формат, мультимедиа.

Mediakontent allaqachon rasmi matn degan qarashdan ancha yiroqlashdi. Raqamlashuv va mediakonvergentsiya jarayonlari internet OAV mediakontentini yangicha rakursda taqdim eta boshladi. Natijada global tarmoq foydalanuvchilari yangi tendentsiyalar, innovatsiyalar va, ayniqsa sun'iy intellekt imkoniyatlarini qamrab olgan materiallarni qabul qilmoqda. Foto biriktirilgan oddiy matn o'rnni endilikda virtual reallik effektini beruvchi 360 darajali, raqamli va VR-tehnologiyalar egallamoqda. Fikrimizning amaliy tasdig'i sifatida Rossiyaning "Jurnalist" jurnali "Ta'lism" bo'limi muharriri K.Nigmatullinaning fikrlarini keltirish maqsadga muvofiq: "Media va kommunikasiya sohasi mutaxassisi yozma va nutqiy savodxonlikning an'anaviy ko'nikmalaridan tashqari, media va kommunikasiyalar qanday tashkil etilganligini va kelajakda ular bilan nima bo'lishi mumkinligini tushuniradi. Biz media va raqamli savodxonlikni bilamiz, ba'zi mutaxassislari ma'lumotlar infratuzilmasi, sun'iy intellekt, va, aniqrog'i, ma'lumotlar uzatishning yangi standartlari (hozirda 5G deyiladi) mavjudligini e'tirof etadilar [4].

Russia Beyond bosh muharriri V.Pulya ham 5G tarmoqlari media bozorga qanday ta'sir qilishi haqida fikr bildiradi. Uning aytishicha, 5G – mobil aloqaning beshinchi avlod. Ushbu mobil standart reklama beruvchilar uchun yangi tarkib, o'quvchilar uchun yangi mediakontent va journalistlar uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Shuningdek, muallif kontentda quyidagi o'zgarishlarni sanab o'tadi:

- (4k, 8k) formatli yuqori tezlikda striming xizmatlari (katta hajmlı videolar) yanada ko'payyadi. Kontentni o'sha zahoti yuklab olish imkoniyatlari kengayadi;

- odamlar yanada ko'proq foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni suratga olib, uni bir zumda tarmoqqa yuklash imkonini beradi. Jonli efirlar ancha sifatlari bo'lganligi bois, ularni ko'rish ehtiyoj ortadi. Hatto 360 darajada aylantirilishi mumkin bo'lgan jonli ko'rsatuvarlar ko'payadi;

- ikki qurilma o'rtaida ma'lumot almashishda kechikish deyarli yo'qoladi. Yana bir muhim yangilik past unumli qurilmalardan samarali o'yinlarni o'ynash uchun striming xizmatlarini rivojlantirishga turki beradi;

- 5G virtual va kengaytirilgan vogelikning striming taraqqiyotiga sabab bo'ladi. Ushbu "og'ir" kontent odatda qurilmaga uzoq yuklab olish orqali tarqatiladi. Aynan 5G esa kontentni har qanday qurilmaga uzatish orqali, texnologiyalarni yanada ommalashuvini ta'minlaydi;

- Mediadagi raqobat distribusiya tomonga o'tadi. 5G operatorlari kontent ta'minotchilariga o'z shartlarini etish imkoniyati vujudga keladi. Kabel tarmoqlari va 5G operatorlari o'rtaida konvergent jarayonlar kuzatiladi. Natijada Amazon, Apple, Google kabi texnologik gigantlar ushbu poygada ishtirok etadilar [6].

Biz ham yuqoridagi olimlar bildirgan fikr-mulohazalarga qo'shilib, hozirgi mediakonvergentsiya sharoitida internet OAVning mediakontent tili va uslubi konvergent jarayonlarning integratsiyasi bilan bevosita rivojlanayotganligini kuzatdik. Shu bilan birga, nashriyotlar hozirgi axboriy raqobat va tezkor axborotga egalik qilish sharoitida auditoriya talabini qondirish uchun tezkorlik, interfaollik hamda axborot manbalarining ishonchliligi kabi tamoyillaridan unumli foydalanmoqdalar. Bu esa, yuzer talab qiluvchi axborotning yangi formatlariga boy bo'lgan mediakontentni shakllantirishga zamin yaratadi.

An'anaviy nashriyotlar o'z mediakontentini taqdim etishda yangi media platformalar (radiodan internetgacha, uyalı telefon, planshet va ma'lumot ekranları) dan foydalanishni boshlagan bir paytda journalist faoliyatining tabiatini o'zgardi. U yanada mobil va ochiq bo'ldi. Journalistlar ovoz yozish uskunlari va uydagi

video kameralardan qanday foydalanishni bilsalar ham, ularni xech qachon o'zlarining ishlab chiqarish vositasi deb bilishmagan. Biroq, bugungi kunda ushbu formatlar, ayniqsa, video vositasi ustunlik qilib, tobora ko'proq pullik reklamalarni jalb qilmoqda [2; 30]. Ya'ni ushbu kontekstdagi konvergensiya bir marotabalik ma'lumot va xabarlarni yaratish va ularni turli platformalarda ko'paytirish tamoyiliga asoslangan jarayon sifatida taqdim etiladi. Endilikda ular umumiylar axborot mahsulotlarini yaratish jarayonida ishtirok etuvchi transmedia mahsulotlarini yozish, o'zaro axborot almashish, e'lonlar, OAV materiallariga havolalarni taqdim etish tamoyiliga asoslanadi [3; 124].

Internet makonida materiallarni taqdim etish shakllari nafaqat virtual muhitning xususiyatlari, balki o'quvchining xatti-harakati bilan ham belgilanadi. An'anaviy matbuot iste'molchilaridan farqli o'laroq, veb-sahifalarga tashrif buyuruvchilar matn bilan tez tanishishni afzal ko'radilar va alohida qiziqish uyg'otadigan materiallar to'g'risidagi juda ko'p ma'lumotlar to'plami orasidan "tortib olish" tamoyiliga amal qiladilar. Bu haqiqat D.Morks va Ya.Nilson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Test ishtirokchilarining 79% har qanday yangi veb-sahifani skanerlaydi va faqat 16% an'anaviy tarzda – so'zma-soz' o'qiydi [1; 99], deb qayd etganlar.

Veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish uchun mo'ljallangan mediakontent tez ko'rishga moslashtirilgan bo'lishi va vizual nuqtai nazardan juda jozibadorligi bilan ajralib turishi kerak. Veb-muhitda nashr etilgan mediakontent internet OAVning multimedaviy imkoniyatlari bo'lgan multimediyaviylik, interfaollik va gipermatnlilikning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishi kerak. Bundan tashqari, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar uchun ma'lumotlarni tayyorlashda matn, fotosuratlar, illyustratsiyalar, audio va video materiallar o'quvchilarning talablarini qondirishi, qiziqish uyg'otishi uchun vizual nuqtai nazardan to'g'ri ishlab chiqilgan ma'lum bir veb-muhitning xususiyatlarini hisobga olish lozim [5; 96-102].

Haqiqatan ham, internet OAVning multimedaviy imkoniyatlari tarmoq foylanuvchilariga yana ham faol bo'lishlari uchun bir qator yangi qulayliklarni vujudga keltirdi. Bugun, hatto, internet jurnalisti bo'lmagan har qanday kishi tayyor namunalar asosida bir soat ichida veb-sayt yoki bloglarni tashkil etish, yuritish va do'stlashish imkoniyatiga ega. Veb-saytlardagi foto, audio va video materiallarni yuklash, slayd-shou yaratish, katta hamjdagi materiallarni arxivlash, jurnalistika yangi janrlari storitelling va longridlarning ommalashuvi onlayn jurnalistikaning o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi vositalar sifatida xizmat qilmoqda.

Media-kontentning quyidagi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim:

- Matn ixcham va mazmunli bo'lgan holda axborot mazmuni bilan ajralib turadi. Internet nashr uchun material moslashtirganda, bosma nashrdagi materialga nisbatan matn hajmini 50%ga kamaytirish kerak. Shuning uchun ba'zi ekspertlar onlayn nashrlar uchun matn yozish uslubini qisqartirilgan deb tavsiflaydilar.
- Etkazilgan mazmunning ma'nosini osonroq idrok etish uchun sintaktik tuzilmalarni soddalashtirish.
- "Teskari piramida"ning kompozitsion tamoyilidan foydalanish.
- Ma'lumot beruvchi sarlavha va lid. Bosma nashrda, veb-saytda va ijtimoiy tarmoqdagi postda bir xil maqola har bir axborot uzatish kanalining xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil sarlavhalarga ega bo'lishi kerak.
- Axborotni tizimlashtirish va diqqatni jam qilish.
- Ma'lumotni tezroq va osonroq qabul qilish uchun raqamlangan va markirovka qilingan ro'yxatlar ko'rinishidagi kichik sarlavhalar va ro'yxatlar qo'llaniladi. Bitta paragraf bitta to'liq fikrni o'z ichiga oladi.
- Giperhavolalardan faol va keng foydalanish.
- Heshteglardan foydalanish (inglizcha: hashtag - hash – "qafas" belgisi + teg - belgi). Ular xabarlarni umumiylar hodisalar tasmasiga moslashtiradi va ularni kontekstga joylashtiradi.

Foydalanish maqsadiga ko'ra heshteglarning asosiy xususiyatlari:

- nashrning asosiy g'oyasini shakllantirish uchun kalit so'zlar yoki iboralardan foydalanish;
- axborotni tezkor tematik qidiruvni amalga oshirish;
- mavzu bo'yicha o'quvchini qiziqtiradigan guruh tarkibi.
- Tasviriy materialdan foydalanish.
- Rasmga matnni joylashtirish.
- Matnni video va audio materiallar bilan to'ldirish [5;99-100].

Xulosa tariqasida quyidagilarni qayd etish maqsadga muvofiq:

1. Bosma nashrlarga qaraganda internet OAVda mediakontent tili va uslubi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Internet resurslar bilan boyitilgan internet OAVning multimedia platformasi ixchamlidagi vizualizatsiya

texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan axborotni taqdim etishning yangi, noan'anaviy, ijodiy usullarini talab qilmoqda;

2. Taqdim etilgan xususiyatlarga muvofiq, konvergent jarayonlar oqimida yangi internet media konsepsiysi shakllantirildi. Natijada internet OAVda mediakontent o'zgartirish, uning tashqi dizaynni tashkil etish, kommunikatsiyani mustahkamlash, yangi platforma va formatlar orqali mediakontent tili va uslubini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va internet auditoriyaga yetkazish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Завьялова З. С., Кондратьева И. В., Гиняитова Е. В. Коммуникативные трансформации социальных медиа // Известия Томского политехнического университета, 2014. – № 6. – С. 87–93.
2. Копылов О.В. Особенности творческой деятельности журналиста в условиях медиаконвергенции: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2012.
3. Копылов О.В. Профессионализм журналиста в условиях медиаконвергенции: трансформация, эволюция, апгрейд? // Вестник Томс-го гос. ун-та, 2012. –№ 3 (19). – С.124.
4. Нигматуллина К. Требуются сверхчеловеки: журналист (?) следующего десятилетия – какой он / <https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-2-2020>
5. Пиелко А., Петрова Л. Адаптация медиаконтента к веб-среде сайтов и социальных сетей // Труды БГТУ, 2017. – Серия 4. – № 1. – С.96-102.
6. Пуля В. Как сети 5G повлияют на медиарынок / <https://jrnlst.ru/zhurnalist-no-06-2019>

O'QISH VA O'RGANISHDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA PSIXOLINGVISTIKANING O'RNI: DISLEKSIYA

**Dilrabo BAXRONOVA,
O'zDJTU professori, DSc
Sayyora ATAXANOVA,
O'zDJTU ilmiy tadqiqotchisi**

Annotatsiya. Psixolingvistika – bu tilni qayta ishlash usullari, ya'ni odamlar tilni qanday tushunishlari, ishlab chiqarishlari, egallashlari yoki yo'qotishlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan tilshunoslik va psixologiyaning kesishgan qismidir. Shuningdek, psixolingvistika tilshunoslikning fonologiya, morfologiya, sintaktika, semantika kabi barcha bo'limgari tadqiqida, o'qish va yozishni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bu fan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida aralashadigan kognitiv jarayonlarni ham qamrab oladi. Quyida psixolingvistikaning ba'zi jihatlariga to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, yozma va og'zaki nutq, ta'lif, o'rganish

Til odamlarning his-tuyg'ulari, fikr va g'oyalari kabilarni ifodalash imkonini beradi, ular o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi asosiy vosita rolini o'ynaydi. Ba'zan o'zaro til orqali munosabatlar buzilishi, fikrni ifodalashda muvaffaqiyatsizlikka uchrash, muloqotda kognitiv va hissiy muammolarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Mana shu kesimda Psixolingvistika yoki Til psixologiyasi fani vujudga kelgan deb hisoblanadi. Ma'lumki, psixologiya – bu psixik jarayonlarni o'rganadigan fan. Bu so'z yunoncha: psiko – ruh yoki aqliy faoliyat va -logiya – o'rganish, ta'lifot ma'nosini beruvchi qismlardan hosil bo'lgan. Tilshunoslik, ya'ni lingvistika esa lotincha lingua – "til", -ista – "band bo'lish, mashg'ulot" va -ico "nima bilandir bog'liqlik" kabi so'z va qo'shimchalardan hosil bo'lgan va bu fan tilga tegishli barcha qadimgi va zamонавиy qonun-qoidalarni qamrab oladi. Yuqoridaq ikki – psixologiya va lingvistika fanlaridan psixolingvistika yo'nalishi shakklandi. Bu termin dastlab 1946-yilda amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan fanga kiritilgan deb hisoblanadi, u XX asrning 50-yillaridan boshlab dunyo ilm-faniga keng yoyila boshlandi. O'zbek tilidagi tadqiqotlarda psixolingvistika va til psixologiyasi kabi terminlarda atalib kelinmoqda [11, 8].

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

Til psixologiyasidan fikrlash, yozish, tinglash, vizual tushunish va og'zaki ifoda kabi til ko'nikmalarini tahlil qilishda foydalilanildi. Yozma nutq til o'rGANISHNING muhim vositalaridan biri bo'lib, u orqali odamlarda aqliy va kognitiv jarayonlar rivojlanadi. Og'zaki nutq, o'z navbatida, xabarlarni cheksiz tarzda uzatish imkonini beradi. Umuman olganda, nutq xoh og'zaki yoki xoh yozma shaklda bo'lsin, u odamlarga deduktiv, tanqidiy va ijodiy fikrlashga erishishda ulkan imkoniyatlar taqdim etadi. Umuman, psixologiya inson tafakkuri, his-tuyg'u va xatti-harakatlarini o'rGANISHGA bag'ishlangan bo'lsa, tilshunoslik esa tilning qanday namoyon bo'lishini o'rGANADI. Ikkala nazariya va yondashuvlar qo'shilgan o'rinda yangi tadqiqotlar rivojlanadi, inson haqidagi, uning til bilish, so'zlash qobiliyatlari kengroq mushohada etiladi.

G.Nasirovaning fikricha, til nutqiy faoliyatda yuzaga chiqqani tufayli tilshunoslikda ham, psixologiya fanida ham tekshirish obyekti hisoblanadi. Shunga asosan, bu ikki fanning sintezi sifatida, kesishgan nuqtada psixolingvistik (lingvopsixologiya) yo'nalishi yuzaga keldi. U ichki nutqni tekshirish jarayoni, nutqni qabul etish, tilni egallah kabi masalalarni o'rGANADI [7].

Psixolingvistikarning maqsad va qo'llanilishiga quyidagilar hisobga olinadi:

Uning asosiy maqsadi inson tilni yaratish va ishlatalishi paytida sodir bo'ladirovnevrologik kabi psixologik jarayonlarni anglash va tushuntirishdir, bunda quyidagi jihatlar ajralib turadi:

1. Inson miyasi og'zaki yoki yozma ravishda qabul qilingan xabarlarni qanday tushunishini bilib olish, idrok eshitishning vizual turida ongda kechadigan hissiyotlar bilan qanday farqlari bor va ular qanday paydo bo'ladi, degan savollarga javob berish.
2. So'zlar ketma-ketligi qanday ishlab chiqarilishi va tartiblanishini bilish.
3. Insonning gapirish va tushunish qobiliyatini ta'minlaydigan tuzilmalar va jarayonlarni tahlil qilish.
4. Til malakalarining funksional tashkil etilishini belgilash.
5. Tilning yoshga doir rivojlanib borishini o'rGANISH va hk.

Til o'rGANISHDA eng avvalo, oila muhim rol o'ynaydi. Aynan oila yadrosida inson bolalik davridan boshlab uni rivojlantirish, o'zini ifoda etish va u orqali atrof-muhit bilan muloqot qilishni o'rGANADI. Bizningcha, oilada buni rag'batlantiradigan eng kuchli omillardan biri bu, oilaning fikr va g'oyalarni bir-birlari bilan o'zaro ishonchda to'sqiniksiz va xavfsiz ifoda eta bilishlaridir.

Amerikalik olimlar P.Seymur va S.MakGregor tomonidan ishlab chiqilgan psixolingvistik model (1984) bugungi kunda o'qish va imloni rivojlantirishni o'rGANISHDAGI eng to'liq modellardan biri deb tan olingan. Bu model til o'rGANISHDA psixolingvistik aralashuvning turli funksiyalarini tahlil qiladi va to'rtta asosiy prosessorning harakatini o'z ichiga oladi: grafik, fonologik, semantik va orfografik.

O'qishni yozish jarayonini tahlil qilishning ushbu modelidan turli mexanizmlar yoki prosessorlardagi mavjud kamchiliklarni aniqlash mumkin, ular asosida disleksiyaning har xil turlari – morfemik, vizual-analitik va fonologik farqlanadi. Disleksiya o'zi nima? Disleksiya (qadimgi yunonchadan δυσλεξία – nutq buzilishi), bu umumiy o'rGANISH qobiliyatini saqlab qolgan holda, aynan o'qish va yozish ko'nikmalarini egallah qobiliyatining buzilishi, demakdir.

Tarixiy jihatdan, aksariyat Yevropa mamlakatlari "disleksiya" tushunchasi yozma nutq bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi:

- a) o'qish mahoratini o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;
- b) yozish mahoratini o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;
- c) savodxonlik muammolari;
- d) arifmetikani o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar;
- e) harakatlar va ularning ketma-ketligining buzilishi bilan bog'liq muammolar;
- f) diqqatni jamlash bilan bog'liq muammolari [2].

Har xil disleksiya turlarini aniqlash bir qator aniq baholash vazifalari asosida o'rGANILGAN identifikatsiya mezonlariga muvofiq belgilanadi. Disleksiya, shubhasiz, ta'lim oluvchining u yoki bu perdmetni o'rGANISHDAGI muammolarini tahlil qilishda eng ko'p qiziqish va shu bilan birga, eng ko'p qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaruvchi hamda yozma tilni o'rGANISHDAGI buzilishlarni keltirib chiqaradigan qiyinchiliklardan iborat. O'qituvchilar disleksiyyada talabalarning o'qishni kam yoki umuman o'zlashtirmasliklari uchun tinchlantiruvchi tushuntirishni topdilar, bu o'zlarini har qanday mas'uliyat yoki texnik-pedagogik harakatlardan ozod qildi. Ko'p yillar davomida disleksiya tilchi olimlarda katta qiziqish uyg'otganligi bois, bu terminning ko'p va xilma-xil ta'riflari paydo bo'ldi. Ushbu qiyinchilikni o'rGANISHNI birinchi bo'lib qayd etgan olimlardan biri B.Halgren disleksiyanı quyidagi mezonlarga asoslanib tavsiflagan [5]:

1. Yozishni o'rganishdagi qiyinchilik.
2. O'qish va yozishda o'ttadan past muvaffaqiyatga erishish.
3. O'qish va yozish ko'satkichlari hamda mактабдаги boshqa fanlar o'ttasidagi nomuvofiqlik yoki nomutanosiblik.
4. O'qish va yozishdagi muvaffaqiyat bilan umumiy intellekt o'ttasidagi nomuvofiqlik.

Shuni ta'kidlash kerakki, B.Halgren mezonlariga mos keladigan boshqa ko'plab ta'riflar ham mavjud, disleksiya sindromini tushuntirish va unga aralashish uchun bir yoki boshqa omillarga ta'sir qilishda psixolingvistika ajralib turadi, bu rivojlanish disleksiyasi asosan psixolingvistik jarayonlardagi yetuklik yoki kamolotdan ortda qolish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Psixolingvistik nuqtai nazar axborotni qayta ishslashning kognitiv nazariyasining yondashuvlaridan kelib chiqadi, ya'ni, psixolingvistik nuqtai nazardan, disleksiyaning bir nechta turlari, aniqrog'i, sintaktik, semantik va fonologik ishlov berishning psixolingvistik qobiliyatlari bilan bog'liq buzilishlarga asoslangan bo'lib, ular sezgi qobiliyatidan ko'ra ko'proq kognitiv xususiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, biz savodxonlikning psixolingvistik tahlili asosida quyidagi qayta tarbiyaviy ta'sir etishlarni ko'satishimiz mumkin:

a) Psixolingvistik nuqtai nazardan yondashish o'qish va yozishni o'zlashtirishda fonologik, semantik va morfologik ishlov berishning turli funksiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi, shu bois, disleksiyani o'rganishda faqat an'anaviy ravishda ko'proq e'tibor berilgan psixomotor yoki perceptiv omillarga e'tibor qaratmasdan, balki fonologik, semantik va morfologik ishlov berishning turli funksiyalarini birga olib borish juda muhim ahamiyatga ega.

b) Psixolingvistik nuqtai nazar bir qator vazifalarni (semantik, vizual ishslash, ovoz chiqarish va boshqalar) osonlashtiradi, bu bizga sub'ektning kamchiliklari qaysi kompetensiyalarda yotganini va ular qanday turdagি disleksiyani namoyon etishini yorqinroq aniqlash imkonini beradi.

c) Fonologik disleksiyani tiklash uchun fonetik o'qish usullaridan foydalanish qulay va maqsadga muvofiqdır.

Qanday bo'lmasin, disleksiyani qayta tarbiyalashda psixolingvistik nuqtai nazardan yondashish, mavzularda psixolingvistik ko'nikmalarni rivojlantirish, assotsiativ faoliyat olib borish, imlo va boshqalarni hisobga olish kabilar o'quvchilarni o'qish va o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari tilni o'rganishda disleksiyani yengib keyingi bosqichlarga o'tish imkonini tushuntiradi, ularni psixolingvistika va unga moslab sotsiolingvistika nuqtai nazardan tadqiq qilishda nazariy asos vazifasini o'taydi, shuningdek, til tizimi, yozma va og'zaki nutqni mukammal egallashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakhranova D. K. Psycholinguistic Factors of Foreign Language Teaching To Students and Cadets (on the example of the Uzbek language) // GIS Business, 2020. -- Volume 15 (6). – PP. 155-161.
2. Disleksiya <https://uz.wikipedia.org/wiki/Disleksiya>
3. Gordon D.A. Brown. Connectionism, Phonology, Reading, and Regularity in Developmental Dyslexia // Brain and Language, 1997. – Volume 59, Issue 2. – PP. 207-235.
4. Ergasheva G., Kodirova F., Bakhranova D. () The Constitutive Nature of Gender Mainstreaming Discourse: Uzbekistan Context / SPAST Reports, 2024. –Vol. 2(1). Retrieved from <https://spast.org/ojspath/article/view/4891>
5. Hallgren B. Specific dyslexia (congenital word-blindness); a clinical and genetic study. Acta Psychiatr Neurol Suppl. 1950;65:1-287. PMID: 14846691.
6. Mishra D., Bakhranova D., Djalilova, U. Activity-Based Learning: An Analysis to Teach Learners Using Online Methodologies / Machine Learning and Mechanics Based Soft Computing Applications, 2023. – PP. 163-171. https://doi.org/10.1007/978-981-19-6450-3_17
7. Nasirova G. M. Psixolingvistik tadqiqotlar ahamiyatining dolzarbligi. <https://cyberleninka.ru/article/n/psixolingvistik-tadqiqotlar-ahamiyatining-dolzarbligi>
8. Radjabova F., Radjabova M. Chet tilini o'rganishning psixologik jihatlari. // Oriens, Volume 2, Issue 24, 2022. – B. 316 -327.

9. Seymour P. H., MacGregor, C. J. Developmental dyslexia: A cognitive experimental analysis of phonological, morphemic, and visual impairments // Cognitive Neuropsychology, 1984. – Volume 1(1). – PP. 43–82. <https://doi.org/10.1080/02643298408252016>
10. Thomson M.E. Dislexia: su naturaleza, evaluación, y tratamiento. Madrid: Alianza, 1992.
11. Usmanova Sh. Psixolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014.

BOLALAR UCHUN IBORALAR RASMLI IZOHЛИ LUG'ATINING MILLИY XUSUSIYATLARI

Feruza MUSAYEVA,
*ISFT Ilmiy bo'lim bosh mutaxassisи
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktorи*

Аннотация. Вданной статье обоснована актуальность составления узбекского фразеологического словаря для детей в картинках, перечислены основные принципы составления такого словаря с упором на национальные ценности.

Ключевые слова: учебный словарь, словарь в картинках, фразеологический словарь, словарная статья, иллюстративный пример, национальные ценности.

Rasmlı kitoblar bu – bolalar adabiyotining alohida mustaqil bir janri [1]. Bolaligimizda kitob-rasmlarni yaxlit qabul qilamiz, tinglah va ko'rish tuyg'ulari omuxta bo'lib, so'zlar ohangini tasvirlar bilan, mustaqil o'qishni boshlaganimizda esa, kitob muqovasi bilan uyg'unlashtiramiz [2]. Demak, bolalar tarbiyasi, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirishda rasmlı kitoblar nihoyatda muhim o'rın egallaydi.

Rasmlı kitoblar konsepsiysi ta'lif jarayoni uchun nihoyatda dolzarbdir. Zero, qabul qilinayotgan muhim ma'lumot rasm bilan uyg'unlashtirilsa, uning o'zlashtirilish darajasi va xotirada saqlanish darajasi ortadi. Shuning uchun til ta'limi samaradorligini oshirishda rasmlı kitoblar fenomenini rivojlantirish kerak. Shu maqsadda Innovatsion rivojlanish agentligi moliyalashtirgan loyiha asosida "Bolalar uchun iboralarning rasmlı izohli lug'ati" yaratilmoqda.

Aytish joizki, so'nggi paytlarda o'zbek tili ta'limi samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha o'quv lug'atlari yaratilgan. Hatto o'quv lug'atlari taraqqiyoti, o'zbek tilidagi mavjud o'quv lug'atlar tahliliga bag'ishlangan, maxsus dissertatsiya himoya qilingan [4]. Mengliyev B. va boshqalar muallifligida kichikroq "O'zbek tilining iboralari o'quv lug'ati" [5] ham chop etilgan. Ammo o'zbek tilining rasmlı iboralar lug'ati hali yaratilgan emas. Vaholanki, rus va ingliz tilshunosligi, xususan, leksikografik amaliyotida bu keng tarqalgan bo'lib, nutq o'stirishda muhim vostitalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, rus tilida quyidagi rasmlı iboralar lug'ati mashhur: Т.В. Розе "Большой фразеологический словарь для детей" (2010), Н.В. Баско "Фразеологический словарь. Почему мы так говорим" (2011), С. Волков "Детский фразеологический словарь в картинках" (2012), Е.В. Грабчикова "Фразеологизмы в картинках" (2018). Ingliz idiomalari jamlangan quyidagi lug'atlar nashr etilgan: Kövecses Zoltán "A Picture Dictionary of English Idioms" (1998), А.С. Бикеева "50 English Idioms in Pictures" (2017) va b.

O'zbek tilshunosligida yuqorida tilga olingan iboralarning o'quv lug'atidan avval iboralar jamlangan "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" chop etilgan. Sh. Rahmatullayev muallifligida 1978-yilda nashr etilgan mazkur lug'at lingvistik lug'at bo'lib, unda o'zbek tilidagi iboralar izohi, ularning variantlari, antonim va sinonimlari keltirilgan [6]. Mazkur lug'at 2022-yilda to'ldirilgan holda lotin yozuvida chop etildi [8]. Iboraclar xalqning milliy-madaniy qarashlari, urf-odatlari, an'analar bilan bog'liqligi haqida kop aytilgan. Teliya iboralar milli-madaniy dunyoqarsh etalonlari, stereotiplari vazifasini bajarib, ulardag'i ramziylikni ko'rsatib, madaniy kodlarning lisoniy tashuvchisi ekanligini e'tirof etadi [3; 250]. Iboraclar o'zida madaniyat



belgilarini mujassam etgan eng muhim lisoniy birliklardir. Aynan iboralarda xalqning milliy qadriyatları va madaniy stereotiplari tajassum topadi, aynan iboralarda xalqning o'tmish manzaralari gavdalanadi. Masalan, "yaqin do'st" ma'nosidagi to'n kiyishgan iborasi xalqimizning o'tmishda do'st tutininshning muhim komponentlaridan biri – kiyim almashish odatini aks ettiradi: Qo'yli kassir uning to'n kiyishgan oshnasi. Buning ustiga Toshqul uylanayotganda Qo'yli kuyovboshlalar bo'lgandi. (Muhammad Ochil. Tovuq sho'rva). Ma'lumki, bunday odat hindularda ham mavjud; bu odat Mayn Ridning mashhur "Boshsiz chvandoz" asarida ham bayon qilingan, asar qahramoni Morris Djerald Genri bilan do'st tutinib, biri ikkinchisiga plash, ikkinchisi esa serape beradi (hindular ustki kiyimi). "O'qimagan" ma'nosidagi "alifni kaltak demoq" yoki "indamadi" ma'nosidagi "lom-mim demadi" iboralari esa tarix taqozosi bilan o'zbek xalqi bevosita daxldor bo'lgan islom madaniyati bilan bog'liq. Oxiri o'ylanmay yoki chala-chulpa qilingan ishga nisbatan "dumi xurjunda" iborasini ishlatalamiz. Iboraning kelib chiqishi o'zbek xalq ijodi an'analari, ya'ni Afandi haqidagi latifa bilan bog'liq. Afandi eshagini sotish uchun bozorga olib ketayotgan ekan, yo'lda botqoqdan o'tayotib, dumi loy bo'libdi. Loy dum xaridorga xunuk ko'rinmasligi uchun dumini kesib xurjuniga solib qo'yibdi. Bozorda bir xaridor: – Xo'p yaxshi eshak ekan-u, dumi yo'q ekan-da, – desa, Afandi unga: – Yoqqan bo'lsa savdosini qilaver, dumi xurjunda, – deb javob qaytargan ekan.

Iboralar madaniyat haqidagi bilimlarning to'g'ri shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan bolalar uchun rasmi iboralarning lug'atini tuzish bugungi leksikografiya oldida turgan muhim vazifalardan biri deb hisoblaymiz. Zero bunda axborot qabul qilishdagi muhim xotira turi – ko'rish xotirasi faollahashi. Ko'rish qobiliyati muayyan tasvir va obrazlarni saqlash va xotirada jonlantirish bilan bog'liq. Materialni eslab qolish va uni qo'llash ko'p jihatdan aynan ko'rish qobiliyatiga asoslanadi. Inson tasavvur qila oladigan narsasini osonroq eslab qoladi. Ko'rish xotirasi nutqiy faoliyat orqali yanada mustahkamlanadi. Bunda albatta assotsiatsiyaning roli katta. Masalan, "anqoning urug'i" iborasiga chizilgan rasm bolaning xotirasida shu rasmga berilgan matnli axborot yoki audioizoh assotsiatsiyasini uyg'otadi va bola shu tariqa iboraning ma'nosini eslab qoladi.



Lug'at uchun o'zbek madaniyati va o'zbek turmush tarzini yorqin ifodalaydigan va o'zbeklar nutqida faol qo'llanadigan iboralarni saralab olish lozim. Masalan, o'zbeklar nutqida ko'p qo'llanadigan "qovun tushrimoq", "tarvuzi qo'ltig'idan tushdi" o'zbek xalqining xo'jalik yuritish usuli bilan bog'liq (o'zbeklar qadimdan tarvuz, qovun, handalak kabi poliz ekinlarini ekishadi), "otdan tushsa ham egardon tushmaydi", "oyog'i uzangida", "ulojni olib ketmoq" kabi iboralar o'zbeklarning ot boqish odati va chavandozligi bilan bog'liq, "to'nini teskari kiymoq", "gappa to'n kiygizmoq", "do'ppisi yarimta", "kavushini to'g'rilab qo'ymoq" iboralari o'zbek milliy kiyimlari bilan bog'liq bo'lib, milliy realiyalar hisoblanadi.

Lug'at uchun ishlanayotgan rasmlarda o'zbeklarning etnik, madaniy va antropometrik xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Ya'ni, rasmdagi obrazlar o'zbek millatiga xos odamni aks ettirishi kerak. Yevropa millatiga xos sariq sochli, ko'k ko'zli insonlarni tasvirlash yoki amerikaliklarga xos kovboy shlayapasidagi odamlar tasvirini keltirish o'rinci emas. Masalan, ro'mol taqqan o'zbek ayoli, do'ppili yoki sallali kishilarni tasvirlash maqsadiga muvofiq.

Iboralarga rasm chizish ko'jihatdan rassomning mahorati, tasavvur olami kengligi va topqirligiga bog'liq. Bitta ibora turli xalqlarda bo'lishi mumkin, ammo har bir rassom o'z tasavvuri, milliy qarashlaridan kelib chiqib, har xil rasm yaratishi mumkin. Masalan, rus tilida "делать из муhi слона" iborasi, o'zbek tilida esa "pashshadan fil yasamoq" iborasi mavjud. Quyidagi ularga chizilgan rasmlarni keltiramiz.



Iboralarning ma'nosini bolalarga tushunarli tilda, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib izohlash kerak. Bunday lug'atlarda frazeologik lug'atlarda keltiriladigan lingvistik ma'lumotlarni, masalan, iboralarning antonim va sinonimlarini keltirish o'rinni emas, deb o'ylaymiz. Zero bu o'quv materialini murakkablashtirib, bolaning ibora ma'nosini tushunishiga va uni o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Lug'at izohida imkon qadar iboraning shakllanish tarixini bayon etish maqsadga muvofiq. Bunda iboralarning ma'nosi yanada oydinlashib, uni eslab qolish uchun bolada assotsiatsiyalar yanada ko'payadi, uni eslab qolish osonlashadi. Masalan, "Daqyonusdan qolgan" (eski, qadimi, yaroqsiz) iborasi izohida ibora talqini va illyustrativ misol hamda tasvirdan tashqari ushbu iboraning shakllanishiga asos bo'lgan Diokletian haqidagi rivoyatni ham keltirib o'tish kerak. Bunda albatta, iboralar bo'yicha qilingan tadqiqotlar asqotadi. Masalan, "og'iz juftlamoq" iborasi shakllanishi haqida ma'lumot keltirishda T.Tog'ayevning izlanishlaridan foydalanish mumkin: "Bu ibora aslida "og'iz jo'blamoq" bo'lgan. Birinchi o'zbek romani – "O'tkan kunlar"da Abdulla Qodiriy buni shu shaklda to'g'ri qo'llagan: – Man, – dedi Otabek va o'zining mantiqsiz javobidan o'ngg'aysizlanib, tuzik javob berishka og'zini jo'blag'an ham edi, chiqq'uchi – siz kimsiz? – degan savol bilan uni to'xtatib qoldi. "Jo'blamoq" fe'lining yasalishiga asos bo'lgan jo'b so'zining ma'nosini bilib olishimizga to'g'ri keladi. Umuman, bu turkiycha-o'zbekcha so'z mumtoz adabiyotimizda, xalq og'zaki ijodi tilida qo'llanib kelgan. Xususan, jo'b so'zi Navoiy hazratlari tomonidan asarlarida birmuncha faol qo'llangan. Bu so'z "teng, mos, bop, munosib" kabi ma'nolarga ega ekanligi qayd etilgan [7; 142].

Iboralarni "O'zbek tilining izohli lug'ati" yoki Sh.Rahmatullayevning yuqorida tilga olingan frazeologik lug'atlaridan olish shart emas. Masalan, hozirda publisistik matnlarda yoki og'zaki nutqda omadi keldi ma'nosidagi "ketmoni uchdi" iborasi faol bo'lib, u frazeologik lug'atlarda qayd etilmagan. Uning faol qo'llanishi va madaniy foni boyligini e'tiborga olib, uni lug'atga kiritish mumkin. Ushbu iboraning kelib chiqishi o'zbek kinematografiysi yutuqlaridan bo'lmish "Abdullahjon" filmi bilan bog'liq. Kinodagi o'zga sayyoraliq bola

Abdullahjon tufayli qishloqdagi barcha ketmonlar uchish xususiyatiga ega bo'ladi, aholi bozorga, ishga, mehmonga ketmonda boradi. Shu tariqa, ketmoni uchmoq "ishi yurishmoq", "omadi chopmoq" ma'nosida ishlatiladigan bo'lgan.

O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan fikrlar "Bolalar uchun iboralarning rasmli lug'ati"ning milliylik xususiyatlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Quyida esa, ushbu lug'atga kiritilgan "po'stagini qoqmoq" iborasi izohi va rasmi bilan tanishtiramiz:

PO'STAGINI QOQMOQ

Ayovsiz tanqid qilmoq, ta'zirini bermoq.

Po'stak – o'siq junli oshlangan teridan tayyorlangan to'shak. Ko'pincha ostonaga tashlanganligi uchun uni tez-tez qoqib turish kerak bo'lgan. Po'stak qoqish va tanqid qilish o'rtasidagi ayovsizlik iboraning shakllanishiga asos bo'lgan.

Haqiqatan kalamush ekan u. Bugun po'stagini qoqib, ishdan olishdi. Hamma yoqni kemirib tashlagan ekan... (Ilhom Zoyir, "O'g'irlangan" pul mojarosi). – Rahmat sizga, - bosh qimirlatib qo'ydi Amazon. – Bir tanqidchi uniyam boplab po'stagini qoqdi. Juda nomdor, unvondor tanqidchi. (A.Obidjon, Akang qarag'ay Gulmat).



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- Мўминова Д. Болалар китобхонлиги ечими – Ўзбекистонга расмли китоблар феномени керак. <http://forum.oyina.uz/kiril/article/2455>
- Николаева М. Как работает книжка-картинка. (Перевод Медведь Н.) <https://careerpress.ru/book/kak-rabotaet-knizhka-kartinka/>
- Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: 1996.
- Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. ... д-ри. дисс. – Самарқанд. 2020.
- Менглиев Б. Ўзбек тилининг иборалари ўқув луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 72 б.
- Рахматуллаев. Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тоғаев Т. "Оғиз жуфтламоқ" ибораси ҳақида // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2019. – №4 (76). – Б. 141-143.
- Rahmatullayev Sh., N.Mahmudov, Z.Xolmanova va b. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – T.:2022.

SIFAT TURKUMIGA OID DIALEKTAL SO'ZLARNING ADABIY TILNI BOYITISH IMKONIYATLARI

Abdumannon HASANOV,
*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

Аннотация. Целью данной статьи является оценка лингвистической значимости прилагательных, активно используемых в узбекских говорах и разговорной речи. В исследовании проанализированы лексические пробелы, выявленные в процессе сравнения лексики узбекского литературного языка и народных говоров. Констатируется необходимость восполнения лексических пробелов, исходя из внутренних возможностей узбекского языка для сохранения чистоты языка и обеспечения его развития.

Ключевые слова: лексическое развитие языка, лексический пробел, диалектизм, прилагательные, разговорные слова, насыщение лексики.

Tilda har bir tushuncha o'z nomiga ega bo'lishi lozim. So'zni ko'chma ma'noda qo'llayverish albatta ko'p ma'nolilikni keltirib chiqaradi. Ko'rma'nolilnk esa ba'zi leksik birliklarning turlicha talqin etilishiga sabab bo'ladi. Ba'zi olimlar haqli ta'kidlaganidek, "...ko'p ma'nolilik yolg'on tushunchadir; qayerda ikkita ma'no bor, o'sha yerda ikkita so'z bor" [1; 39]. Bitta so'zni bir necha tushunchani ifodalashga "majburlash" to'g'ri emas.

So'zlashuv nutqida faol q'llaniladigan so'zlar orasida sifat turkumiga oid, xususan, insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar ham salmoqli ulushga ega. Zero, inson suhbat jarayonida, asosan, o'zganing ishlarini, yurish-turishini, xulq-atvorini, kechmishini tahlil qilishga, baholashga e'tibor qaratadi.

Shaxs xususiyatini ifodalashda turli lisoniy vositalardan foydalanish mumkin, biroq ular ichida eng ko'p tarqalGAN leksik birliklar orqali ifodalashdir [2; 751]. Shaxsga xos xususiyatni ifodalovchi aksar leksemalarda leksik ma'nodan tashqari muayyan salbiy yoki ijobjiy munosabatni ifodalovchi qo'shimcha ma'no ottenkalari ham qorishiq namoyon bo'ladi, bu jihatlar mazkur LSGdag'i leksemalarning uslubiy bo'yoqdorligi va modal ma'nolarining qavariq namoyon bo'lishiga zamin hozirlaydi.

F.Musayevanig ta'kidlashicha, "sheva vakillari vogelikning salbiy jihatlariga ko'proq diqqat qilib, aynan ularni nomlashga e'tibor qaratishadi" [10; 48]. Kishiga o'zganing muayyan xususiyati yoqmas ekan, buni nutqda ifodalashda favqulorra bo'yoqdir so'zlarni tanlash va ishlatalishga intilish ham mazkur tripli so'zlearning qo'shimcha sub'ektiv ma'no olishini taqozo etadi. Ana shu omil sabab shaxsga xos xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar qatorida salbiy munosabat ifodalangan so'zlearning miqdori ijobjiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlardan ancha ko'p ekanligini qayd etish joiz. Adabiy til va shevalar leksikasini taqqoslashda ham mazkur qonuniyatning amal qilishi kuzatildi.

Quyida adabiy til leksikasi uchun bo'shliq bo'lgan ayrim shu tipdagi so'zlarni tavsiflashga harakat qilamiz.

Manman, takabbur tushunchalariga o'xshash xususiyatlar shevalarda jiddiy farqlanadi. Adabiy tilda bu farqlanishlar so'z birikmalari orqali ifodalansa-da, xalq shevalarida ularni ifodalovchi so'zlar allaqachon barqarorlashib ulgurgan bo'ladi [5; 95]. Bu orqali kerakli tushunchalar nomlanishidan tashqari nutqiy energiya iqtisod qilinadi hamda nutqning ta'sirchanligi ham oshiriladi. Xususan, "faqat o'zini haq deb biladigan" ma'nosiga ega гансър [4; 88] so'zi ham muayyan nutqdag'i tejamkorlikni, ta'sirchanlikni ta'minlash ehtiyojidan shakllangan.

Shevalarda qo'llaniluvchi эшқын "o'zini boshqalardan ustun qo'yuvchi" [15; 76], ҳәкәри "o'zini baland tutuvchi" [4; 87], чувәчәқ "nimjon, ammo o'zini kuchli hisoblovchi" [13; 378] губурдәк "o'ziga bino qo'yib gapiruvchi" [9; 24] kabi so'zlar ham u yoki bu darajadagi manmanlikka o'xshash xususiyatlarni nomlash ehtiyojidan shakllangan. Bu kabi so'zlearning manman leksemasidan farqlanishi ularning muayyan lisoniy ehtiyoj natijasida til leksikasiga qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Qorako'l tumanidagi qarluq lahjasiga oid shevalarda "o'z so'zini o'tkazishga urinuvchi" ma'nosida пешгър [3; 78] so'zi qo'llanadi. O'zbek adabiy tilida mazkur tushunchani ifodalovchi so'z mavjud emas. Demak, uni to'ldirishda peshgir so'zidan foydalanish mumkin. Asli fors-tojik tilidagi birliklardan yasalgan bu so'z tez tushunishli hisoblanadi. Binobarin. aksar qarluq shevalarida pesh so'zi "ilg'or, o'ktam" ma'nolarida qo'llanishi ham peshgir so'zining tez tushunishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalarida вәрқы со'зи "og'zida gap turmaydigan (sirni saqlay olmaydigan)" ma'nosida qo'llanadi [9; 21]. Mazkur со'з ham adabiy tildagi muayyan leksik bo'shlinqning to'ldirilishida katta ahamiyatga ega. Nutqda qo'llanadigan og'zi bo'sh, sir saqlay olmaydigan kabi birliklar оrnida mazkur со'zning qo'llanilishi lisoniy tejamkorlikka ham xizmat qiladi. Shu bois mazkur со'zni ham adabiylashtirish lozim.

Xъръш [4; 86] со'зи, asosan, bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur со'з "janjallahib, tortishish uchun bahona izlovchi" ma'nosiga ega. Bu со'з "tekkanga tegib, tegmaganga tosh otuvchi" iborasiga yaqin. Biroq unda "bezorilik" semasi nisbatan sustroq namoyon bo'ladi. Bu jihatlar mazkur farqli tushunchalarni alohida nomlashga xizmat qiluvchi xirish со'zining adabiyashuvini taqozo qiladi.

Бообър со'зи Vodil shevasida "tez gapirovchi" ma'nosiga ega. Bu со'з, asosan, qisqa vaqtida ko'p со'zni aytish jihatidan xarakterli bo'lib, gapdon, со'zamol kabi со'zlardan farqlanadi. Mazkur tushuncha Qozog'istonidagi o'zbek shevalarida бъдък [15; 83] tarzida nomlangan. Bizningcha, bidiq shakli ushbu tushunchani nomlashda imtiyoziroq. Zero, uni eshitish orqali bidirlamoq, bidir-bidir kabi со'zlar eslanadi va shu orqali "tez gapirovchi" ma'nosi osonroq anglanadi.

Janubiy Qozog'istonidagi o'zbek shevalarida, shuningdek, ayrim qipchoq shevalarida "erkak kishini xushlovchi, yaxshi ko'ruchchi ayol" ma'nosi ərcək [15, 91] со'zi orqali ifodalanadi. Bu со'з qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noda qo'llanilgan. Bu esa mazkur со'zning adabiy til lug'atlarida qayd etilishiga imtiyoz beradi.

Qipchoq shevalarida qo'llaniluvchi кәйпәнг [13; 361] со'зи "o'ylamay со'zlaydigan" ma'nosida qo'llanadi. Har bir gapni o'ylab gapirish qanchalik muhim ekanligi barchaga ma'lum. O'ylamay gapirish со'zlovchining obro'sizlanishi, nutqining samarasiz yakunlanishiga ham sabab bo'ladi. Mazkur xususiyatlarni alohida nomlash со'z birikmasi orqali ifodalanayotgan tegishli tushunchaning leksemalashishini ta'minlaydi.

Xulosa qilish mumkinki, sifat turkumiga oid со'zlar ko'pgina nutqiy vaziyatlarda faol qo'llaniladi. Bunday со'zlarni topish va sinchiklab оrganish, ulardan til leksikasidagi bo'shlqlarni to'ldirishda maqsadli foydalanish til rivoji uchun juda muhim. Ayniqsa, yuqoridagi kabi lisoniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan со'zlarning adabiy tilda faollashuvi va me'yorlashuvi tilning boyishiga, shuning barobarida, adabiy tilning ifoda imkoniyatlari kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- Потебня А. Из записок по русской грамматике. Т. 2. – Москва: Учпедгиз, 1958.
- Quan-zhi W. Lexical Gaps: Their Filling and Impacts // Journal of Literature and Art Studies. – № 6. 2017. – Р. 748-754.
- Файбулаев С. Қоракўл шевасининг таровати. – Т.: Нижол, 2017. – 196 б.
- Khasanov A. Enrichment of Uzbek lexic reserve with kypchak dialect / Материалы IV Международной научно-методической конференции "Лингвистические исследования и их использование в практике преподавания дисциплины "Русский язык и культура речи". – Донецк, 2021. – С. 84-89.
- Turayeva R. Linguistic Ambiguities of Uzbek and Classification of Uzbek Dialects / Anthropos, 2015. Source: <https://www.nomos-elibrary.de/10.5771/0257-9774-2015-2-463/linguistic-ambiguities-of-uzbek-and-classification-of-uzbek-dialects-jahrgang-110-2015-heft-2>
- Абдужаббарова Ф. "Қутадғу билиг"даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика: Филол. фанлари номзоди... дис. – Т.: 2011.
- Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Фил.фантлари. б. ф. д (PhD) дисс. – Т.:2018.
- Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: 2004.
- Йўлдошев Р. Тошховуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2002.
- Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. – Т.: Фан, 2019.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Мұхаррир, 2011. – 468 б.
- Решетов В. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Қашқирли Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Т.: Академнашр, 2012. – 400 б.
- Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан, 1971. – 409 б.
- Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари (қарлуқ ва қипчоқ тип материаллари асосида). – Т., 1981. – 179 б.

JADID SHE'RIYATI TILIDAGI LUG'AVIY BIRLIKLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARIGA KO'RA TASNIFI

Nasiba IBODOVA,
*Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish
instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)*

Аннотация: В данной статье анализируются лексические единицы в языке современной поэзии с точки зрения соотношения формы и значения. В частности, отдельно с точки зрения лексических единиц языка анализировалась поэзия современного просветителя Чолпона.

Ключевые слова: Джадид, просвещение, поэзия, творчество, язык, единство, эпоха, мыслитель, родина, единство, смысл, труд, сема, лексема, внимание.

XIX asr oxiri XX asr bosqlaridagi notinch va tahlikali zamonda yashab, ijod etgan jadid mutafakkirlarining she'riyatida muhabbat, vatan, ozodlik – umuman olganda, ijtimoiy hayotdagi barcha-barcha mavzular tarannum etilgan. Jadidlar o'z hayotini qaynoq ijodiy va ijtimoiy faoliyatga bag'ishladi. Bundan tashqari jadid namoyandalari o'z ijodiy faoliyati davrida adabiy til muammolariga alohida e'tibor qaratdilar. Ana shunday jadid ma'rifatparvarlaridan biri Cho'lpon she'riyatining tili o'zining ma'no nozikligi va har bir so'zning o'z o'rnila qo'llanganligi bilan boshqa ijodkorlar she'riyatidan alohida ajralib turadi. Xalqning rivojini taraqqiy etishini til bilan bog'lagan. Cho'lpon til masalasiga alohida e'tibor va diqqat bilan qaradi. Ayni paytda shu diqqat – e'tibori isbotini uning she'riyati tilida kuzatish mumkin.

Cho'lpon she'riyati tilidagi lug'aviy birliklarning shakl va ma'no munosabatlari tahlilida uning she'riyatidagi har bir lug'aviy birlikning ma'no qirrasini ochish mumkin. So'zning leksik-semantik xususiyatlari uning leksik, grammatik va semantik jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Chunki so'zlar tilning lug'at tarkibini shundagina tashkil etmay, umuman, tilning sistema va strukturasidagi barcha bog'lanishlarni taqozo etadi.

Ko'pincha so'zning ma'nosи haqida gapirganda uning predmet va tushuncha bilan aloqasi va tilda qanday ifodalaniishi ko'zda tutiladi [1; 95].

Leksik ma'no ideal hodisa deb talqin qilinadi. Hozirgi tilshunoslikda bu ideal hodisani moddiylashtirish yo'llari topilmoqda. Shunday yo'llardan biri leksik ma'nosи semantik qismlarga parchalab o'rganish bo'lib, qismlar tahlil (semik tahlil) usuli deb yuritiladi. Shu usul bilan farqlanadigan hodisa sema deyiladi.

Semik tahlil usulidan dastlab leksik birliklarni turlicha semantik guruuhlar (tematik, leksik-semantik guruuhlar)ga birlashtirishda foydalanildi [2; 66].

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan so'z aytish va ma'nuning birligidan iborat. Biroq so'zning predmet va tushunchalar bilan bog'lanishi hisobga olinsa, u borliqdagи biror narsaning odam ongidagi in'ikosi bo'lib, bu in'ikos tafakkur yordamida amalga oshiriladi. Shu sababli so'z biror tushuncha, predmat, hodisa yoki belgini ifodalay oladi. Ayrim olingan so'zga tegishli bo'lib, boshqa so'zlardan farqlay oluvchi ma'no shu so'zning leksik ma'nosи birinchi navbatda o'sha so'z o'zagining ma'nosи bilan bog'liq bo'ladi va har qanday affiks qo'shilganda ham saqlanib qoladi.

Tilning mazmun rejasida so'zning asosiy ma'nosи semema termini bilan ataladi. Ifoda rejasida esa leksema deb yuritiladi. Tilning ifoda va mazmun rejalarini bir-biri bilan uzviy bog'liq holatda qaraladi [2; 98].

Yuqoridaqnuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda Cho'lpon she'riyati tilidagi ayrim lug'aviy birlikning shakliy va ma'noviy munosabatlari tahlilga oilindi. So'zning ko'p ma'noli bo'lish xususiyati polisemiya deyiladi. Til birliklari bir yoki birdan ortiq ma'noni anglatadi. Bir ma'noni anglatish hodisasi monosemiya, bunday xususiyatlari til birligi monosemantik birlik deyiladi, (yunoncha monos – "bir", sema, semion – "belgi", semantikos – "bildiruvchi") [3; 23].

Yuqoridaq fikrlarning butunlay aksi hisoblanmish polisemiya hodisasi (polis – "ko'p") til birliklarini alohida diqqat bilan o'rganishni talab qiladi. So'zlarning ko'p ma'noliligi hodisasini monografik tadqiq etgan tilshunos M.Mirtojiyev quyidagilarni yozadi: "Ma'lumki, tilda polisemantik so'zlar vujudga kelish imkoniyatlarining ko'p bo'lishi va tilda polisemianing nihoyatda taraqqiy etganligi fikr ayirboshlash uchun hech mahal qiyinchilik tug'dirmaydi. Uning taraqqiyoti obyektiv mayjudotni o'zaro bog'liq holda anglash, ularni qiyosiy o'rganish,

taraqqiyotlarning tilda aks etib turishi kabilar natijasi bo'ladi. Ya'ni polisemiya sivilizatsiya belgisidir. Qaysi xalqda fan, texnika, madaniyat, san'at taraqqiy etgan bo'lsa, o'sha xalq obyektiv borliqning o'zaro aloqasini shuncha ko'proq ko'radi, ularni bir-biriga ko'proq qiyos etadi va ular tilda ko'proq aksini topadi".

Olim ayni paytda yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "Biz ya'ni o'zbek tilini ham semantik salmog'i og'ir tillardan biri sifatida qayd etmoqchimiz. Bunda o'zbek tiliga oid lug'atlarni varaqlash va boshqa lug'atlarga solishtirish sabab bo'ladi. Bundan tashqari o'zbek badiiy adabiyotida so'z oyini, askiya va tuyuq kabi janrlarning boshqa til badiylardagiga nisbatan keng ekani ham mazkur fikrimizni tasdiqlaydi" [4; 136].

Ko'rinaridiki, ko'pm'a'nolilik har qanday tildagi mutlaqo qonuniy hodisa bo'lib, uning mavjudligini nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashadi. Matnga konteksga ko'ra ko'p ma'noli so'z muayyan bir nutqda o'zining aniq bir ma'nosi bilan reallashadi, ya'ni uning ko'p ma'noliligi fikrning yanglish anglanishiga olib kelmaydi. Aksincha, ayniqsa, badiiy nutqda ko'p ma'nolilik o'ziga xos ifodalilik vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishining qizg'in pallasiga kirgani sari tilda o'ziga xos taraqqiyot yuz berishi mumkin. Nutqda yangi so'zlar qatlami (neologizmlar) paydo bo'lib, ular xalqchillashadi. Xalq ruhiyatini o'zida tobora kengroq aks ettiradi. Jumladan, Cho'lpion she'riyatini olib tahlil qiladigan bo'lsak, unda polisemantik so'zlarning ko'p miqdorda qo'llanilishini kuzatish mumkin.

O'zbek tilining lug'at boyligida birgina ma'no ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlarga nisbatan kamroq, ya'ni tilimizdagи so'zlarning aksariyati ko'p ma'noli so'zlardir. Bu esa polisemiya hodisalarining eng ko'lamlı ekanligidan dalolat beradi. Masalan, yer, ko'z, yuz, bet, nur, oyoq, bosh kabilar polisemantik so'zlardir. Polisemantik so'zning asosiy xususiyati shuki, so'zning ma'no tolalari bir bosh ma'no (markaz)ga birlashib turadi va albatta, bir turkum doirasida bo'ladi [5; 41].

Cho'lpion she'riyatida ko'p ma'noli lug'aviy birlikkaldan unumli foydalangan. Uning yaqqol isbotini quyidagi misralarda kuzatish mumkin:

Sharqning qaysi burchagiga qarasang
Yo'qlik, o'lim, zulm, qarg'ish ko'rarding
"Tomug" degan so'zni bilmak istasang
Sharqni boshdan – oyoqqacha yurarding.
Bir zamonlar yer yuzinga o'z boshli,
Ulug', shonli, madaniyat tug'dirg'on
U go'zal Sharq shirin tuproq so'ng zamon
Bo'ldi chetlar panjasida ko'z yoshli... [6;13]

Yuqoridagi satrlarda "(boshdan-oyoq" va "yuz" so'zlari ko'p ma'noli so'zlardir. Ular quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Boshdan to oyoqqacha.
2. Boshidan to oxirigacha; tugal, tamom.
- "Yuz" polisemantik leksemasi ham bir qancha semalarga ega.
 - I. 1. Odam boshining old tomoni, chehra, aft, bet.
 2. Inson betining u yoki bu tomoni, yonoq.
 3. Biror narsaning ustki tomoni, yuzasi; sath, sirt.
 4. Ayrim narsalarning u yoki bu tomoni, tarafi, qirg'og'i.
 5. Obro', e'tibor; yuz-xotir.
 6. Kesish yoki chopish asboblarining tig'i.
 7. Tekislik yoki sirtning chiziqlar bilan o'ralgan qismi, sath.
- II. 1. 100 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor.
2. So'zlashuv tilida ko'p, ko'p marta [7; 332, 465].

Polisemantik leksema bo'lgan "yuz" leksemasi mumtoz adabiyot lug'atidan quyidagi ma'nolarni bera oluvchi so'z sifatida o'rın olgan:

1. Chora, iloj, tadbir.
2. O'zbek urug'laridan birining nomi.
3. Chehra, bet, aft.
4. Bahodir, pahlavon.
5. Sanoq son [8; 182].

Bu kabi ko'p ma'noli so'zlarni nafaqat Cho'lpon she'riyatida, umuman, ko'plab jadid namoyandalarining she'riyatida kuzatish mumkin. Bu ijodkorlarning nechog'li serqirra, qalami o'tkir, tafakkuri keng, ijod yo'li ravon ijodkorlardan ekanligidan dalolat beradi. Ularning o'zbek tili va ravnaqi uchun qo'shgan hissasi she'riyati orqali o'z aksini ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Фан, 1981.
- Турсунов У. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўзбекистон, 1992.
- Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Т.: Маънавият, 2002.
- Миртоғиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1984.
- Суюнов Б. Омонимиянинг полисемиядан фарқи // Тил ва адабиёт таълими. 2002. – №3. – Б. 41-42.
- Чўлпон. Яна олдим созимни. – Т.: Чўлпон, 1991.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент, 2008.
- Раҳмонов В. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. Т.: Ўқитувчи, 1983.

TILSHUNOSLIKNING YANGI YO'NALISHI: MOZIY VA BUGUN

Nilufar AXMEDOVA,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi

Аннотация. Актуальность представленной в статье проблемы заключается в том, что в ней рассматривается новая область языкоznания – нейролингвистика, её специфические аспекты, история становления и современные процессы развития.

Ключевые слова и фразы: нейролингвистика, нейрохирургия, анатомия головного мозга, эпилепсия, речевые нарушения, эмпирический метод, левое и правое полушария.

Neyrolingvist T.V.Chernigovskayaning ta'kidlashicha, til va tafakkurga doir qarashlar Sharq va Yevropa faylasuflari izlanishlarida qadimdan o'z ifodasini topib kelgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida yashagan Edwin Smith miya jarohatlanishiga oid 26 holatni qayd etib, u tomonidan tavsiya etilgan terapiya Misr shifokorining miya anatomiyasini va funksiyalarini yaxshi bilishini namoyon etadi. Taxminan yarim asr o'tgach, Yerning boshqa qismida, Janubiy Amerikada, maxsus jarrohlik (trepanatsiya) izlari mavjud bo'lgan ko'p sonli bosh suyaklari kuzatiladi. Qizig'i, bunday turdag'i neyroquirgiya operatsiyalari deyarli odati sanalib, bronza va vulqon shishasidan yasalgan asboblar bilan bajarilgan va hatto bosh og'rig'i, epilepsiya, boshqa asab va ruhiy kasalliklarni davolashda qo'llanilgan [3; 40].

Demak, neyrolingvistika sohasi asab tizimining faoliyati, tuzilishi va vazifalarini o'rganuvchi nevrologiya hamda til haqida ma'lumot beruvchi lingvistika fanlarining o'zaro uyg'unligidan hosil bo'lar ekan, ilmiy manbalarga tayanib aytish mumkinki, eramizdan avvalgi 3500-yillardayoq tilning miyada joylashganligi haqidagi ilk qarashlar mavjud bo'lgan [2; 566]. Ularda ta'kidlanishicha, bosh suyagining muayyan qismidagi jarohat tananing boshqa a'zolariga ham ziyon yetkazishi mumkin. Shu sababdan o'sha davr olimlari inson a'zolari va ularning faoliyati miyaning turli maydonlariga bog'liq, deb hisoblaganlar. Ayniqsa, Gippokrat, Gerofil, Platon, Demokrit, Aristotel, Galen kabi zabardast faylasuf olimlarning xulosalari asosida o'sha qadimgi davrlardanoq inson tanasining har bir a'zosi faoliyati miya bilan aloqador ekanligi ta'kidlangan. 1770-yilga kelib, logann Gesner tomonidan yozilgan "Til amneziyasi" nomli monografiyada nutq buzilishlariga yangicha qarash yuzaga kela boshladи. Shu bilan birga, bu davrga kelib, miyaning turli nuqtalarida, ayniqsa, miya po'stlog'ida bajariladigan mavjud yuqori darajadagi vazifalar haqida bahs-munozaralar paydo bo'la

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

boshladi. XIX asr davomida nutqiy buzilishlar doirasidagi bilimlar kengayib, bu haqdagi ma'lumotlarga o'sha davrdayoq tamal toshi qo'yilgan edi.

Olim Frans Iosif Gall birinchilardan bo'lib, aqliy qobiliyat aynan bosh miya po'stlog'ida ekanligini hamda miyadagi kulrang modda faol to'qimalar (nervlar), oq modda esa biriktiruvchi to'qima ekanligini isbotladi. Tadqiqotning empirik usuli yordamida olim miyaning turli funksiyalarini bosh miyaning muayyan po'stlog'i hududlari bilan bog'laydi. Masalan, u nutq artikulyatsiyasi va so'zni xotirada saqlab qolish o'rni peshona bo'lagining ikki sohasida ekanligini aniqladi. Gall g'oyalarini uning shogirdi Jan-Batist Bull davom ettirib, peshona bo'lagi sohalaridagi turli jarohatlarning nutqiy buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan hamda boshqa bo'lak sohalaridagi jarohatlarning bunday buzilishlar bilan bog'liq bo'Imagan holatlarini aniqlaydi.

1861-yilga kelib, fransuz olimi Pol Broka bir bemorni kuzatishi orqali ikkita farazni ilgari suradi: birinchidan, insonning ruhiy holatlari bilan bog'liq faoliyati miya yadrosi orqali amalga oshadi. Ikkinchidan, nutqiy buzilish bosh miyaning chap yarimsharidagi jarohat asosida yuzaga keladi.

Nevrolog Karl Vernike esa Broka tadqiqotlarini, ayniqsa, insonning ruhiy holatlari miya yadrosi orqali amalga oshishiga oid qarashlarini qo'llab-quvvatlab, nutqni tushunish muammolari bilan bog'liq hamda bugungi kunda Vernike sohasi deya mashhur sanalgan bosh miyaning yangi sathini ixtiro qiladi. Olim insult bilan kasallangan bemor ustida izlanish olib boradi. Bemor gapirar, eshitar, ammo og'zaki va yozma nutqni qiyinchilik bilan tushunardi. Uning vafotidan keyin Vernike bemorning chap yarim sharlari yon va o'rta sohalari jarohatlanganini aniqlaydi. Va olim eshitish sohalariga yaqin sanalgan aynan shu maydonlar nutqni tushunish jarayonlarida ishtirok etishi bo'yicha xulosalarini keltiradi. Keyinchalik Vernike bosh miyada nutq bilan bog'liq aniq ikki maydon mavjudligini asoslaydi. Bular bugungi kunda nutqni qabul qilishga javob beruvchi Vernike sathi hamda nutqni ifodalashga xizmat qiluvchi Broka sathi sanaladi.

Nemis olimi Lyudvig Lixtshteyn Vernikenning qarashlarini to'ldirib, "hukm markazi" sanalgan uchinchi maydonga asos soldi. Olim so'z miya tomonidan qabul qilinganidan so'ng aynan hukm markaziga ma'nio ifodalashi uchun yo'naltirilishini ta'kidlaydi. Neyrolingvistikara taraqqiyotining keyingi bosqichi bevosita L.R.Luriya va uning izdosh-shogirdlari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular tomonidan nazariy qarashlar asosida nutqiy buzilishlarni tizimli tahlil qilish joriy etildi [1; 666].

XX asr o'rtalaridan boshlab neyrolingvistika doirasida L.Vigotskiy, A.Luriya, R.Yakobsonlar tomonidan aniq ilmiy-amaliy kuzatuvlarga asoslangan qarashlar ilgari surila boshlandi. Ayniqsa, neyrolingvistikaga oid qonun-qoidalarning amaliy jihatdan o'rganilishi esa N.Xomskiy matabining paydo bo'lishi bilan yanada rivoj topdi. Xususan, hozirgi kunga qadar alohida e'tirof etiladigan E.Linnebergning quyidagi xulosalarini ta'kidlash lozim:

– til tug'ma xususiyatlari, har bir turning o'ziga xos jihatlari va biologik tabiatini (miya funksiyalari) bilan belgilanadi;

- inson tilining ayrim xususiyatlari universaldir (barcha tillar uchun yagona asos mavjud);
- ontologik rivojlanish o'smirlik davriga qadar jismoniy yetilish orqali sodir bo'ladi.

Shu o'rinda Boduen de Kurtenening neyrolingvistikaboyicha bildirgan quyidagi fikrlarini ham keltirishni joiz deb bildik: "...aslida havoda suzuvchi tillar emas, balki lisoniy tafakkurga ega insonlar mavjud" [4].

I.M.Sechenov, L.V.Shcherbalar ham bevosita Boduen de Kurtene maktabining zabardast izdoshlari sifatida neyrolingvistikaga oid muhim qarashlarini qoldirganlar. Neyrolingvistikaning psixologiyaga oid manbalari L.S.Vigotskiy tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Neyrolingvistikaning bugungi kundagi taraqqiyotida T.V.Axutina boshqarayotgan Rossiya neyrolingvistikasi asoschisi A.R.Luriyaning Moskva neyrolingvistlar maktabi hamda T.V.Chernigovskaya boshchiligidagi Balonov-Deglanning Peterburg maktabi alohida e'tirof etiladi [5].

Ta'kidlash lozimki, neyrolingvistika sohasidagi tadqiqotlar lingvistik ma'lumotlar miyaning qaysi qismida qayta ishlanishi, vaqt o'tishi bilan bu jarayon qanday o'zgarishi, til o'rganish va o'zlashtirishda til qismlari qanday munosabatda bo'lishi kabi masalalar ustida olib boriladi.

Davr o'tishi bilan texnika-texnoligiyada erishilayotgan yutuqlar natijasida mutaxassislar nutq jarayoni mobaynida inson miyasi qay tarzda faoliyat ko'rsatishini o'rgana oladilar. Bugungi kunda til bilan aloqador ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni ancha murakkab mexanizmni talab qilishi va bir qancha miya sohalarining birgalikdagi faoliyati bilan bog'liq ekanligi aniqlangan.

Til qanday tug'iladi, rivojlanadi, boshqariladi, umuman, insonning nutqiyligi qobiliyati, jumalalarni tuzish, qolaversa, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida miyaning ishlash mexanizmi qay tarzda boshqariladi – bularning barchasi bugungi neyrolingvistikating asosiy tadqiq manbayi bo'lib qolmoqda.

Garchi dunyo ilmi miqyosida neyrolingvistika ham qadimiy, ham navqiron soha hisoblansa-da, o'zbek tilshunosligida bu borada keng fundamental miqyosda tadqiqotlar amalga oshirilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Большой психологический словарь / Под ред. Б. Мещерякова, В. Зинченко. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК. – М. : ОЛМА-Пресс, 2003.
2. Винарская Е.Н., Кузнецов С.Н. Нейролингвистика // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
3. Черниговская Т.В. Язык, мышление, мозг: основные проблемы нейролингвистики / Труды отделения историко-филологических наук РАН. – М., 2004. – № 2.
4. <https://vuzlit.com/836671/vvedenie> Введение. Нейролингвистика и ее сущность vuzlit.com.
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/cite_note-8

ПСЕВДОНИМЫ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ АНТРОПОНИМИКИ

Сайёра ИБРАГИМОВА,

доктор философии по филологическим наукам (PhD)
старший преподаватель кафедры Иностранных языков
Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация. Ushbu maqolada insonning lingvistik ongi, milliy-madaniy qadriyatları va dunyoqarashini aks ettiruvchi etnolingvistik birliklar – taxalluslar ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Taxalluslarning qarindoshlikni anglatuvchi tushunchalardan shakllanishi, genetik rivojlanishi, shaxsiy idrok, fikrlash va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillar ta'siri ostida paydo bo'lishi bilan farq qilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponom, semantika, tushuncha, kognitiv belgilar, apellyativ, metaforizasiya.

Псевдонимы по отношению к деятельности владельца делятся на три категории: литературные, сценические и политические псевдонимы.

В узбекском языке литературных псевдонимов больше, чем сценических.

В конце XVIII – начале XIX вв. в узбекской литературе появляются авторы, недовольные своим бедственным положением, которые выступают под вымышленными псевдонимами, например, Гулхани, Машраб, Махмур, Нишоти.

Есть много причин для принятия псевдонима – чтобы скрыть от цензоров свою мысль, автор политической фельетонно-критической статьи выбирает псевдоним.

Рассматривая образование русских и узбекских псевдонимов, можно выявить отношения между личными именами и псевдонимами.

В образовании некоторых псевдонимов мы эту связь видим, а в некоторых – нет, поэтому, как предлагает В.И. Супрун, внутреннюю ядерно-периферийную структуру можно разделить на два вида [5; 76]:

- 1) псевдонимы, связанные с настоящим именем автора: Салтыков-Щедрин, Алсу (Алсу Сафина), Анна Ахматова (Анна Горенко); Хакима (Ҳакима Абдураҳим қизи), Анбар отин (Анбар Фармонкул қизи);
- 2) псевдонимы, не связанные с настоящим именем автора: Акунин Борис (Григорий Чхартишвили), Андрей Белый (Борис Бугаев); Увайсий (Жаҳон отин Сиддиқбобо қизи), Мутриба

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

(Саломат Парда қизи).

В узбекских псевдонимах ХХ в. наблюдается в основном усечение

в фамилиях суффикса -ов (Гафур Гулям – Гафур Гуломов, Аскад Мухтор – Аскад Мухторов), а узбекские псевдонимы XV и XIX вв. в основном

не связаны с настоящим именем поэта (Хироми, Бобур, Фуркат).

В русских псевдонимах отдалённость от своего настоящего имени наблюдается с конца XIX – начала XX вв., например, Иегудаил Хламида, Максим Горький, Усталая, Тэффи, Артём Весёлый и т. д. Только после 40-х появляется связь псевдонима с настоящим именем, например, Вениамин Каверин – Вениамин Зильбер, Борис Полевой – Борис Кампов и т. д.

Рассмотрим узбекские псевдонимы XV в. Алишер Навои в своей тазкира прокомментировал тахаллусы некоторых писателей.

Муфлиси – узбекский поэт, живший в XV в., псевдоним поэта намекает на социальный статус автора [1; 34] (с араб. «муфлис» означает «обанкротившийся»); Мавлоно Кавкаби: «Он молодой астролог и он выбирает подходящее прозвище для своей науки» (МН, 86); Саккокий: тот, кто был мастером ножей, занимался изготовлением ножей, «саккок» в значении нож (Навоий. Наводир ушшабоб. 1959, 588); Райхони: «Райхони использовал тахаллус... из-за его отношения к роду деятельности ему дали прозвище Джамий. Он из царевичей и его псевдоним свидетельствует о том же» (МН, 76); Зулолий: «Не путайте свой разум, поэзия Зулолий чиста и ясна, он от того и получил тахаллус Зулолий» (МН, 76); Амири – Мирзаолим Мушриф был во дворце хана канцелярским служащим, от того имеет псевдоним «мушриф» [7; 331]; Малик: «Он считал себя из поколения Малик-Равзанов, оттого его псевдоним Малик» (МН, 78); Бу-Али: «Он ходит как сумасшедший, если бы он не был сумасшедшим, у него не было бы псевдонима Бу-Али» (МН, 83), т. е. он не должен равняться себе с Абу Али ибн Сино [2; 64]; Жалол Табиб Шерози: «Несмотря на то, что занимался врачеванием, написал дастан «Гул и Навруз», который стал популярным среди молодежи» [4; 124]; Отои: «Отец Отои Исмаил был сыном Иброхима младшего брата Ахмада Яссави. Значит, Отои был потомком известных шейхов-отцов. По этой причине его псевдоним стал Отои, а не Атои от слова ота-отец» [3; 5] и др.

Кажется, что поэты выбирали тахаллусы по разным мотивам, например, в таких псевдонимах, как Шавки, Вафои, Якини, Мир Ишки, выражены надежды и мечты писателя. Учёные называют этот тип псевдонимов, полученными «для собственного духовного удовольствия» [6; 33].

Отсюда становится ясно, что в узбекских псевдонимах XV в. нет связи с именем и фамилией. Такое явление продолжается до начала XX в. Начиная с середины XX в. появляется связь псевдонимов с именем или фамилией, только под сатирическими произведениями ставят сезонные псевдонимы, не связанные с именем и фамилией, а имеющими большую связь с содержанием сатирического рассказа (Жулкунбой, Бойкуш, Думбулбой, Думбул жияни – А. Кодири, 1894–1938).

Псевдоним имеет некоторые уникальные особенности:

1. Один автор подписывается более чем одним псевдонимом. Таких можно назвать поэтами или политическими деятелями с множеством псевдонимов. Например, Алишер Навои рассказывает о 4-х псевдонимах Мавлоно Яхъя Сайбака (XVI в.): «Сначала пользовался псевдонимом Туффони, потом Фаттохи, но Хумори и Асрори – тоже его псевдонимы» (МН, 17) [2; 74]. У узбекской поэтессы Мохларойим (1792–1842) было три псевдонима: Комила, Нодира, Макнуна [7;220].

Писатель Абдулла Каҳхор (1907–1968) публикует в газетах и журналах стихи и статьи под псевдонимами Ниш, Норин Шилпик, Мавлоно Куфур, Гулёр, Эркабой, Элбой, Ялангоёк; Абдулла Кадыри публикуется под несколькими псевдонимами: Шоши, Алимов, Жулкунбой, Бойкуш, Думбулбой, Думбул жияни, Думбулдевона, Думбулугли, Калвак Махсумнинг жияни, жиян Совринбой, Овсар, Жиртаки, Шигой, Йоловчи; Шарафиддин Шамсиев имел более 27 псевдонимов: Шукрия, Доий, Шарафзода, Хуршид, Али Тошканди, Шукри, Тошканди, Шамсиддин Шароф, Шамсиддин Тошкандий, Дилхаста, Факир, Тожали, Ужар, Индамас, Инжик, Шукри, Шароф, Чайнбай, Шохиди, Алин Шоши, Алон Шукри, Шоши, Элибой, Жаркинбой, Жиян [10; 218-220].

Такое множество псевдонимов было характерно только для писателей-сатириков и политиков, например, у А.П. Чехова (1860–1904) насчитываем более сорока псевдонимов:

только буквы: А.П., А-н Ч-те, Ан. Че-в, А.Ч, А. Че, Ан. Ч., Ан, Ч-е, Ч. Б. С., Ч. без С., С. Б. Ч., ...въ, Ц, З;

выдуманные фамилии: Антоша Чехонте, Ч. Хонте, А. Чехонте, Г. Балдастов, Макар Балдастов, Шиллер Шекспирович Гёте, Василий Спиридонос, Сволачёв, М. Ковров, Дон Антонио Чехонте, полковник Кочкарев, Пурселепетанов, Акакий Тарантолов, Н. Захарьева, Смирнова, Кисляев, Шампанский;

словосочетания: Вспыльчивый человек, Брат моего брата, Врач без пациентов, Человек без селезёнки, Юный старец, Прозаический поэт;

предмет: Гайка № 6, Гайка № 9;

название птиц: Грач, Архип Индейкин, Индейкин, Петухов;

ироничные слова: Дяденька, Антош, Зевуля, Проптер, Лаэрт, Рувер, Рувер и Ревур, Улисс, Некто, Известный, Анче;

растение: Крапива.

Параллельно в эти же годы в Азербайджане в юмористических журналах печатают свои сатирические статьи, фельетоны, рассказы такие писатели, как Джалил Мамедкулузаде (1866–1932), Омар Фаик Нейманзаде (1872–1937). Рассмотрим некоторые псевдонимы азербайджанского писателя сатирика Омар Фаик Нейманзаде, у которого насчитываем более 20 псевдонимов: Бир Эронли (один Иранец), Умид (мечта), Ола Қарға (сорока), Лаглаги, Дардли (грустный), Бозор жужаси (базарный цыплёнок), Визвиза (жуздание), Дали (чокнутый), Хейрани (удивлённый), Аччик суз (горькое слово), Мулла Кулу, Ийна (игла), Мумин (верующий) и т. д. У Джалила Мамедкулузаде было тоже много псевдонимов, но в основном он подписывался под псевдонимом Мулла Насреддин, а также выпускал сатирический журнал под названием «Мулла Насреддин». Он тоже, как и Чехов, был мастером коротких рассказов – фельетонов [11].

Таблица 1

Число сезонных псевдонимов принятых русскими писателями*

№	Ф.И.О. русских и узбекских писателей	Число псевдонимов
1.	А.П. Чехов	Более 40
2.	Иехил-Лейб Арьевич Файнзильберг	10
3.	М.Горький	11
4.	Кир Булычёв	11

Число сезонных псевдонимов принятых узбекскими писателями*

№	Ф.И.О. русских и узбекских писателей	Число псевдонимов
1.	А.П. Чехов	Более 40
2.	Иехил-Лейб Арьевич Файнзильберг	10
3.	М.Горький	11
4.	Кир Булычёв	11

* Составлено автором диссертации.

Хотелось бы отметить и то, что у некоторых псевдонимов наблюдается несколько значений, например, у основы псевдонима Садриддина Айни айн 48 значений.

Не отставали от сатириков и политики, которые прибегали к разным маневрам. Из-за пристального внимания общества политик были вынуждены скрывать своё имя. Особенно это наблюдается перед революциями, с ростом народного недовольства над властью имущих. Например, в России Зиновьев, Григорий Евсеевич – Овсей-Герш Аронович Радомыслский; Каменев, Лев Борисович – Лев Борисович Розенфельд; Камо – Симон Аршакович Тер-Петросян; Киров – Серге́й Миронович Костриков; Молотов – Вячеслав Михайлович Скрябин; Троцкий Лев Давидович (Перо, Антид Ото, Л. Седов) – Лейба Давидович Бронштейн и др.

В Узбекистане Махмуд Максудович Ходиев – поэт, писатель, журналист, общественный деятель, главный редактор общественно-политических изданий «Фергана» и «Еленге». Он являлся

секретарём Антирелигиозной комиссии и Комиссии по борьбе за раскрепощение женщин (Худжум), выступал под псевдонимом Бату[9;]; Косим Солихов (1902–1938), узбекский журналист, драматург и критик, джадид – Зиё Саид; Абдулла Бадриев (1893 –1936) – Абдулла Бадрий; Ашурали Зохиров (1885–1937), известный просветитель, джадид – Ашурали Зохирой; Отажон Хошимов (1905–1938), литературный критик – Хошим Отажон; Шокир Сулаймонов (1900–1942) – Шокир Сулаймон.

Список использованной литературы:

1. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. Тўла асарлар тўплами. – 3-ж. – Т., 1948. (в тексте – МН).
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: Фан, 2013.
3. Отойи. Избранные произведения. – Т.: Фан, 1958.
4. Самарқандий Давлатшоҳ. Шоирлар бўстони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
5. Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. Дисс... в виде науч. доклада докт. филол. наук. – Волгоградский государственный педагогический университет. – Волгоград, 2000. – С. 76.
6. Чобанов М.Н. Фәмилия. Тәхәллус. – Тбилиси, 1987.
7. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т., 1961.
8. Бату Махмуд Максудович. – 2022 [Электронный ресурс]. – URL: <https://arboblar.uz/ru/people/batu-makhmud-maksudovich/>
10. Турдиев Ш. Абдулла Қодирий асарлари библиографияси. – Т., 1960. – Б.218–220. [Электронный ресурс]. – URL: <https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/sherali-turdiev-tong-yulduzi-qismati-1991/>
11. Мамедкулизаде Д. Гасан Кулиев // Литературный Азербайджан [Электронный ресурс]. – URL: <https://azerhistory.com/?p=30622>

TABIAT UNSURLARINI ATOVCHI NOMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI

Zohida MUQIMOVA,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Аннотация. В данной статье рассмотрены лингвокультурные особенности единиц, называющих природные элементы, которые являются составной частью устойчивых единиц узбекского языка.

Ключевые слова: лингвокультурология, устойчивая единица, лингвокультурный код, культурная информация, лингвокультурные характеристики, национально-культурное единство.

Xalqlarning bir-birini o'zaro tushunishi uchun lingvistik tadqiqotlar zarurati, milliy madaniyatlar muloqoti allaqachon umumetirof etilgan haqiqatdir. Boisi, u yoki bu til o'z egasi tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzi, qadriyatları, fe'l-atvori, e'tiqod va an'analari o'zida yorqin ifodalaydi. Aniqki, "Xalq madaniyati til orgali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi [5; 15]". Bugungi davrda muayyan til lisoniy birlıklarini o'zi mansub millat madaniyatı bilan aloqadorlikda o'rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik jahon tilshunosligidagi yetakchi hamda istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylandi, tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Mazkur sohaning obyekti, tilshunos olima Durdona Xudoyberganova ta'kidlaganidek, "Lisoniy belgining ma'nosи va madaniy birikuvidan tarkib topuvchi, semantikasida madaniy axborot yaqqol namoyon bo'luvchi til birlıkları, ya'ni frazeologizmlar, etalonlar, ramzlar, metaforalar, turg'un o'xshatishlar, nutqiy etiketkalar, urfat va marosimiga doir so'zlar, topishmoqlar, milliy realiyalar, arxetipler, mifologemalar, lakunalar, pretsedent birlıklar va b." [6; 41]. O'zida o'zi tegishli millatning yuksak ma'naviyati, milliy tafakkuri, ruhiyatining o'ziga

xosligini yaqqol aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar (lingvokulturemalar) sanaluvchi "...barqaror birliklarda asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy kod – obrazlar saqlanadi" [4; 21]. O'zbek xalqi barqaror birliklarida o'zbek millati milliy mentalitetining rang-barang qirralari, milliy qiyofasi o'z aksini topadi. O'zbek xalqi adabiy merosida milliy o'zlikni namoyon qiluvchi barqaror birliklar bisyor. Ularning lingvomadaniy mohiyatini ochib berish uchun teran va asosli tadqiqotlarni yaratishimiz lozim.

O'zbek tili barqaror birliklarida tayanch qism bo'lgan tabiat unsurlarini nomlovchi birliklar: olov, tuproq, havo, suv so'zlari o'zida madaniy axborot tashiydi. Quyida berilayotgan tahlil buning isbotidir.

Ibtidoi davrlarda kishilar dastlab olovdan qo'rqishgan, keyinchalik undan o'zlarini himoya qilish uchun vositasi sifatida foydalanishgan. Zardushtiylik dinidan ham ayonki, ba'zi insonlar olovga sig'inishgan, uni ulug'lab, muqaddas hisoblashgan. Bugungi kunda ham ayrim hududlarda o'lik chiqqan uyda uch kungacha olov yoqilmasligi, yangi kelin-kuyovlarning olov atrofida aylanishlari va shu kabi odatlar buning isbotidir.

Ko'zidan o't chaqnamoq, oyog'idan o't chaqnamoq, yuragiga o't solmoq, tovonidan (tuyog'idan) o't chaqnamoq iboralarida o't (olv) so'zi milliy-madaniy ma'noga ega. Ko'zlaridan o't chaqnamoq iborasi "g'azablanmoq, jahh qilmoq" ma'nolarida qo'llaniladi. "Sevinmoq, xursand bo'lmoq" ma'nolarini ifodalovchi ko'zlar chaqnamoq iborasi tarkibiga qo'shilgan o't (olv) so'zi undagi ijobjiy buyoqdurlikni yo'qotib, uning salbiy ma'noda ifodalanishiga sabab bo'lgan. Serjahl va g'azab otiga mingan kishi ko'zlarining me'yordan katta ochilishi olovning shiddat bilan yonish holatiga o'xshatilgan. O't (olv) leksemasining milliy-madaniy xususiyati so'zlashuv nutqida faol qo'llanuvchi yuragiga o't solmoq, yuragiga o't bermoq iboralarida yanada yaqqol hamoyon boladi. Yigit-qizlar o't tasida faol qo'llanuvchi yuragiga o't solmoq iborasida o't lingvomadaniy kodi sevgi uchquni, kurashga shaylangan polvonlarga nisbatan qo'llanuvchi yuragiga o't bermoq iborasida esa madad, mador, kuch-quvvat ma'nolarini anglatadi. Go'ng tepada o't yonar (Bo'ri) topishmog'ida esa o't lingvomadaniy kodi yirtqich bo'ri ramzi sifatida keltirilgan.

Quruqning o'tiga ho'l kuyar, Quruq shoxning oloviga ho'l shox ham yonar maqollari To'qayga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi maqolining variantlaridir. Bilamizki, agar biror yerni olov olsa, u yerdagi va uning yaqin atrofidagi barcha narsa yonib kulga aylanadi. Ushbu maqollarda o't-olv lingvomadaniy kodi urush, ofat-falokat ma'nolarini aks ettirib, bu vositasida biror-bir falokat yuz bersa, hamma baravar aziyat chekishi tasvirlangan.

Topishmoqlarda quyosh olov lingvomadaniy kodi orqali yorqin tasvirlangani kuzatildi. Quyidagi topishmoqlar fikrimiz dalilidir: Hu uzoqda Olatov, Olatovda bir olov, Tunda unga tegmasdan Ko'tarar ko'kka birov (Quyosh); Ko'kka chiqib olov-shar, Bizga ziyo ulashar (Quyosh). Tunda yonar sonsiz cho'g', Kunduz izlasang ham yo'q (Yulduz); Tunda ko'rib, cho'g' deysiz, Tongda ko'rib yo'q deysiz (Yulduz) topishmoqlarida yulduz qip-qizarib, yarqirab turadigan cho'g'ga taqqoslangan. Mazkur topishmoqlarda yulduz cho'g' lingvomadaniy kodi zamirida yashiringan.

El yuragi pok bo'lsa, Yov yuragi xok bo'lar maqolidagi xok lingvomadaniy kodi vositasida agar el, inson yuragi pok bo'lsa, dushman, raqib tarafning yer bilan yakson bo'lishi aytilgan. Bu maqol orqali odamlar sofdillikka, birlikka chaqirilgan. Er bo'l, er bo'lmasang, qaro yer bo'l maqolidagi qaro yer lingvomadaniy kodi El yuragi pok bo'lsa, Yov yuragi xok bo'lar maqolidagi xok lingvomadaniy kodi bildirayotgan ma'nomazmunga teng.

Kuchingni yelga berma, yerga ber. Bunda yel kodi "behuda, bekor, foydasiz" ma'nolarini anglatadi. Mazkur maqol orqali kishilarga kuchingni yel, ya'ni shamolga berma, yerga ber: gul ek, daraxt ek, yerni bog'-u bo'stonga aylantir deb nasihat qilinmoqda. Kuchingni yelga berma, yerga ber maqolining birinchi gapidan anglashiladigan mazmun yelga uchmoq, yelga uchirmoq (yoki sovurmoq) iboralarida ham ifodalanadi. Yelga uchmoq iborasi havoga ketmoq iborasi bilan, yelga uchirmoq (yoki sovurmoq) iborasi havoga sovurmoq (yoki sovrilmoq) iborasi bilan ma'nodosh bo'lib, bir xil ma'noni ifodalayapti. Ushbu iboralarda yel so'zi bilan havo so'zi o'zaro ma'nodosh hisoblanadi.

Suv – dunyonи tashkil etuvchi to'rtta ramziy asosiy elementlardan biri, birlamchi materianing ramzi. Qadimgi mif, rivoyat va hikoyalarda daryolar xudolar sifatida tasvirlangan (Misrda Nil, Hindistonda Gang daryosi va boshqalar muqaddas hisoblangan, ular xudolar sifatida tasvirlangan). Turli millat xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan barqaror birikmalar kuzatilganda, suvning hayot manbayi sifatida qadrlanishi ayon bo'ldi. Jumladan, "Rus folklorida biz daryo nomini uchratamiz: Volga – ona, uning o'z irodasi va xarakteri bor, u hukmdor va qo'riqchi.

Xristian adabiyotida suv, daryo, ko'l hayot va xristian ta'limotining ramzi hisoblanadi. Suv va suv manbalari onaning ramzi bo'lib, tug'ilish, ayollik tamoyili, hayot manbayi bilan bog'liq" [1; 79]. Dono xalqimiz ham bir

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

turkum maqollarida suvni obi-hayot deb e'zozlaydi, uning qadriga yetish, tejab-tergash, ifloslantirmay, toza va pokiza saqlash lozimligi yuzasidan nasihat qiladi. Bu hol ular yaratgan bir necha maqollarda, jumladan, Suv oltindan aziz; Suv – zar, Suvchi zargar; Suv keldi, nur keldi; El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan kabi maqollarida yorqin namoyon bo'lgan.

Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni karim"ning "Baqara" surasida "U sizlar uchun Yerni "poyandoz", osmonni "bino" qilib qo'ydi va osmondan suv tushirib, u sababli sizlarga rizq sifatida mevalar (mevali daraxtlar) ni undirdi" [3; 4] degan oyat bor. Bundan ma'lumki, butun borliqning boshlang'ich asosi, ibtidosi to'rt unsur (suv, havo, tuproq, olov)ning biri suvdir. Obi hayot ta'rifini olgan ne'matni atovchi suv so'zi barqaror birikmalarda keng qo'llaniladi. Bu suvning hayot manbayi ekanligidan, unga insonning ehtiyoji benihoya ko'p bo'lganligidan hamdir. Mazkur fikrimiz suv bilan havoday (nihoyatda, juda-juda) iborasidayoq o'z isbotini topadi.

O'zbek xalqi barqaror birliklarida suvga inson, rizq-nasiba, yorug'lik, poklik; ofat-falokat ramzi sifatida qaraladi. Jumladan, Qulunli biyadan quduq suvi ortmas maqolida quduq suvi rizq-nasiba – oziq-ovqat, noz-ne'mat, yashash uchun keraklik yegulik ma'nosini bildiradi.

Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas maqoli Mehnatsiz rohat yo'q; Mehnat qilmay rohat ko'rmas, Urug' sepmay ekin ormas; Yer qazimasang, oltin chiqmas, Qarmoq solmasang – baliq maqollarini yodga soladi. Sababi, mazkur maqollarning barchasida Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas maqolidan anglashiladigan ma'no – har qanday rohat ortida mashaqqatli mehnat borligi uqtirilgan. Ariq qazimasang, otizga suv chiqmas maqolidagi suv lingvomadaniy kodi "yorug'lik", rohat-farog'atda yashash ramzi bo'lib kelgan. Suv lingvomadaniy kodi vositasida har bir mehnat qilgan kishining "otizi", ya'ni dasturxoni noz-ne'matlarga to'la bo'lishiga ishora qilingan.

O't bilan suv – tilisiz yov; Suvning ishi o'pirmoq, O'tning ishi kuydirmoq; Suvning ko'rinishi muloyim, Bag'ri – tosh maqollarida "Suv garchi sekin, muloyim, beozor oqqani bilan, suzishni bilmagan yo ehtiyot bo'limgan kishini g'arq qiladi" deyilgan hamda suvning, o'tning ana shunday xavfliligini ta'kidlab, undan saqlanish choralarini ko'rish zarurligi uqtirilgan [2; 345]. Shu boisdan ham "O't balosidan, suv balosidan o'zing saqla" degan ezga niyat qilinib, buning har bir duoda aytishi odat bo'lib qolgan.

Dunyoni suv bossa, to'pig'igacha chiqmaslik iborasi o'taketgan beg'am, haddan tashqari beparvo odamga nisbatan qo'llaniladi. Bunda suv lingvomadaniy kodi ofat, falokat ma'nosini ifodalaydi. Suvga tushsa cho'kmaslik, suv kelsa – simirmoq, tosh kelsa – kemirmoq iboralarda yoki dunyoni suv olsa, o'rdakka ne g'am maqolidagi suv lingvomadaniy kodi dunyoni suv bossa, to'pig'igacha chiqmaslik iborasidagi suv lingvomadaniy kodi anglatgan ma'noga yaqin. Boisi, bu iboralarda ham suv lingvomadaniy kodi og'ir sinov, qiyinchilik ma'nosini o'zida saqlagan. Sirtiga suv tegizmaslik iborasida suv lingvomadaniy kodi dog' (kishining o'z sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakat qilmaslik) ma'nosida kelgan. Siqb suvini chiqarmoq iborasida suv lingvomadaniy kodi oxirgi madori, yakuniy kuchi degan ma'noga ishora qiladi. Ushbu ibora biror kishini u yoki bu muammo, masala bilan bog'liq bo'lgan voqealarda tergashga, unga zulm o'tkazib madori qolguncha qiyashga nisbatan aytildi. Bir odam ariq qaziydi, ming odam suv ichadi; Bir tomchi suv chumoliga daryo ko'rindi; Yer – xazina, suv – gavhar maqollarida suv lingvomadaniy kodi ijobiy buyoqqa ega bo'lib, rizq-nasiba ma'nosini ifodalaydi.

Tagiga suv quymoq iborasi amalidan, obro'-e'tiboridan mahrum qilmoq ma'nosiga teng. Bunda suv lingvomadaniy kodi suv so'zining oquvchi, oqib ketuvchi ma'nolarini o'zida saqlab, mansab, amaldan ayrilishni bildiradi.

Suvga suyanma, yovga sig'inma maqolining Suvga suyanma, folga ishonma ko'rinishi ham bor. Suvga suyanma, yovga sig'inma maqolida suv lingvomadaniy kodi vositasida suvning oqishiga ishora qilinib, o'zganing fikri, o'zganing aqli insonning o'ziga o'zining fikridek foyda keltirmasligi nazarda tutilgan. Suv bunda puch narsa, beburd kimsa ramzini ifodalagan. Ma'lumki, bu barqaror birikma birovning aqliga suyanib ish qiluvchilarga, birovning fikri bilan yuradigan mustaqil bo'limgan kishilarga qarata aytildi.

Suv lingvomadaniy kodi ba'zi maqollarda fe'l-atvori, yurish-turishi, qilish-qilmishi, gap-so'zi odamiylikdan uzoq bo'lgan shaxslarni bildirib kelgan. Ya'ni "suyuq" kishilar suvga tashbeh qilinib, suyuq odam deyilgan, hozirda ham hayotga yengil-yelpi qaraydigan odamlarga qarata shunday deyiladi. Ushbu ma'no-mazmun Suvni ming qaynatsang ham quyulmas maqolidagi suv lingvomadaniy kodi vositasida yanada aniq ifodalangan. O'zbek tili barqaror birliklarining bir nechtasida suv so'zi madaniy ma'nolariga ega bo'lib o'zi ishtirokida shakllangan barqaror birliklardagi milliy-madaniy bo'yoqni ta'minlagan.

O'zbek tili barqaror birliklarida tayanch qism bo'lgan lingvomadaniy kodlarning mohiyatini oshib berish, bu borada teran va asosli tadqiqotlarni yaratishimiz lozim. Chunki u yoki bu madaniyat o'zi mansub tildagi lingvomadaniy kodlarda o'z ifodasini topadi. Lingvomadaniy kodlar to'liq idrok etilmasa, u qatnashgan matn yoki birikmaning mazmun-mohiyati butunicha anglashilmaydi. Har qanday millatning lingvomadaniyatini to'liq idrok etish uchun uning madaniyat kodlarining ham ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маслова В.А. Пименова М.В. Код лингвокультуры. Учебное пособие. –М.: Флинта: Наука, 2018.
2. Шомақсұдов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Т: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2018.
3. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Т: Ислом университети, 2004.
4. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа (PhD) д-ри ... дис. – Т, 2019.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. – М., 1997.
6. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қичқача изоҳли луғати. – Т: Турон замин зиё, 2015.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TURKOLOGIYADA BARQAROR BIRLIKLER TASNIFI

Mansur HAMIDOV,

*Termiz davlat universiteti O'zbek tili va
adabiyoti kafedrasи katta o'qituvchisi, PhD*

Аннотация. Вданной статье освещены проблемы классификации устойчивых (паремиологических) единиц в узбекском и тюркском языкоznании, указаны их лингвостилистические особенности, приведены статистические данные их распространения. Также предложены рекомендации по расширению сферы использования паремиологических единиц.

Ключевые слова: устойчивые сочетания, диалектная парема, лингвостатистика, классификация, загадки и поговорки, тюркские устойчивые единицы.

O'zbek tilshunosligida barqaror, turg'un birikmalar doirasida asosan ibora va tasviriy ifoda vositalariga nisbatan munosabat bildirish mavjud bo'lib, bu holat matab darsliklarida ham uzoq yillar shu an'anaviy qarash ko'p yillar mavjud edi. Hozirgi zamona viy tilshunoslik esa yangicha va kengroq yondashuvni talab etmoqda. Yer sharida mavjud har bir millat, xalq ona tilining milliy koloriti undagi madaniy xoslangan lingvistik birliliklarda aks etadi. Mazkur unsurlar orasida fanda paremiologik birliliklar deya nom olgan barqaror qurilmalar ham borki, ular millat olam manzarasini ifodalash bilan birga milliy lisoniy ongning uzviy, ajralmas, hayot tajribalari mahsuli hisoblanadi.

O'TILda paremiologik (yunoncha paroimiya – masal, ramzli hikoya) birliliklar turg'un ibora, maqol, matal sifatida izohlangan [16; 650]. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da paremiologiya hikmat+fan tarzida talqin etilib, "maqol, matal, aforizmlar singari hikmatli iboralar butunligini o'rorganuvchi fan" deya izohlanadi, o'zga lug'atlarda esa lotincha parema – "barqaror", logos – "ta'lilot" ma'nolarini anglatishi aytilgan [9; 5].

O'zbek tilshunosligida paremiologik birliliklarning til va nutq hodisasi sifatidagi ahamiyatini yoritishga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, maqollarning sintaktik jihatlari X.Abdurahmonov, maqol va matallar leksikasi, ularning dialektal xususiyatlari M.Sadriddinova tomonidan o'rorganilgan.

Maqol, matal atama (maqol va matal)larini izohlash va ularning farqlarini ajratib tasniflashda S.Ro'zimboyev va H.Ro'zmetovlar oltita e'tiborli jihatni ko'zda tutgan [12; 27]. Ularning fikricha, maqol va

matallar grammaatik asoslar miqdoriga ko'ra teng bo'lishi mumkin, lekin matallar asosida tugal bo'lмаган ifodaning yotishi, maqollar singari qofiyaga, ohangdoshlikka ega emasligi ular orasidagi differensial belgilarni yuzaga chiqaradi. Matallarda fikr (xuddi maqollar singari) obrazli, ko'chma ma'noda qo'llanilishi mumkin, lekin ularda fikr va muhokamaning tugal natijasini ko'rmaymiz [19; 18].

O'zbek tilshunosligida maqollar, matallar, hikmatli so'zlar kabi barqaror birikmalarni ularning lingvistik xususiyatiga ko'ra tasnif qilish masalasiga XX asr ikkinchi yarmidan boshlab e'tibor qaratildi. 1984-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da 8449 ta birlik jamlangan bo'lib (1-jadval), ular orasida N.Ostromov to'plamidan keltirilgan 575 ta parema mavjud. Shuningdek, lug'atdan 289 ta tarixiy paremalar, M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan 197 ta, Muhammad Sharif Gulhaniyning "Zarbulmasal"idan 119 ta hamda 2 ta individual-muallif (H.Olimjon – Baliq suvsiz, shoir xalqsiz yashay olmaydi; M.Shayxzoda – Basharning ozodligi – dunyoning obodligi singari) parema(aforizmlari joy olgan. 8449-1182=7267 ta paremiologik birlik esa o'zbek xalq maqollari, matallaridan, turli xil ilmiy manbalardan jamlangan. Biroq lug'atda PBlar alohida ajratib berilmagan.

1-jadval

Nº	Manbalar	Miqdori	Jami
1.	N.Ostromov to'plamida ifodalangan paremalar	575 ta	8449 ta
2.	Tarixiy paremalar	289 ta	
3.	"Devonu lug'otit turk" asaridan	197 ta	
4.	"Zarbulmasal" asaridan	119 ta	
5.	Individual-muallif aforizmlari	2 ta	
6.	O'zbek tilidagi turli manbalardan	7267 ta	

1-jadval. "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"da jamlangan birliklar tasnifi

PL (paremiologik lug'at) tarkibidan o'sha davr manzarasini akslantiruvchi, hukmron mafkura manfaatlarini ifoda etuvchi: Sotsialistik zamon – mehnatkash omon; Bog'li kolxoz – yog'li kolxoz; Kolxoz – baraka daryosi; Kolxoz – ishlaganga tishlatadi; Kolxoz – kengchilik, mo'lchilik; Paxta – kolxoz ro'zg'orining fili; Paxtazor – mardlar maydoni kabi paremalar ham o'r'in oglanki, ular til va madaniyatning zamon va makon kesimidagi mutanosibligi, xalq qaysi davrda, qanday jamiyat g'oyasi bilan yashayotganiga ishora beruvchi o'ziga xos "aniqlagichlardir".

Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning hammulliflikdagi "Nega shunday deymiz?" nomli to'plamida 942 ta maqollar turli xil variantlari bilan izohlangan [14; 352]. Maqollarning leksik-semantik xususiyatlarini izohlashda rivoyatlar, afsonalar, hikoyalar va daliliy manbalar asos qilib olingen. Biroq bundagi barqaror birliklar morfologik, grammaatik tomondan yoritilmagan. Variantlari va mazmundoshlari aralash holda berilgan, ba'zi maqollarda ular mutanosib kelmagan. Shunga qaramay, manbada maqollar etimologiyasiga murojaat, maqollarning aniq va to'g'ri variantda ifodalanishi, eng muhimi, to'plamning "O'zbek tili paremiologik izohli lug'ati"ning debochasi ekanligi o'ta ahamiyatlidir.

Ushbu mualliflar tomonidan 1990-yilda "Hikmatnoma" nomi ostida o'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati, undan keyin 2032 ta maqollarning (variantlari bilan 20 mingdan ortiq) "Ma'nolar mahzani" nomli izohli to'plami yaratildi. Ushbu lug'at va to'plamda ham maqollarning lingvistik jihatlari tavsiflanmaydi. Biroq mazkur lug'at keyingi istiqbolli ishlar uchun muhim manba vazifasini bajarishi bilan e'tiborlidir.

Ma'lumki, paremiologik birliklar sirasiga maqollar, matallar va hikmatli so'zlar (aforizmlar) qamrab olinadi. H.Berdiyorov va R.Rasulovlar muallifligidagi "O'zbek tili paremiologik lug'ati"da hikmatli so'zlar PBlarning uchinchi turi sifatida keltiriladi. Garchi muallif va xalq hikmatli so'zları didaktik maqsadda adabiy-badiiy jihatdan to'plab o'rganilgan, tafsif etilgan, maqollarning esa adabiyotshunoslik, folklorshunoslik va birmuncha lingvistik tomonlari o'rganilgan bo'lsa ham, o'zbek tilshunosligida matallar va hikmatli so'zlarning tafsifiga alohida ahamiyat berilmagan. Shu jihatdan olib qaraganda paremiologik birliklarni tasniflash zarurati yuzaga keladi va biz ularni quyidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq deb bildik (2-jadval):

2-jadval

BARQAROR BIRIKMALAR	Tashqi tasnif (maqol, matal, hikmatli so'zlar)											
	Maqollar											
	Matallar											
	Iboralar											
	Ichki tasnif	Alifbo tartibida	Tematik tasnif	Leksik tasnif	Morfologik tasnif	Sintaktik tasnif	Grammatik tasnif	Dialektal tasnif	Ko'chma ma'nosiga ko'ra tasnif	Leksikografiq tasnif	Lingvostatistik tasnif	Areal tasnif
	Alifbo tartibida	Tematik tasnif	Leksik tasnif	Morfologik tasnif	Sintaktik tasnif	Grammatik tasnif	Dialektal tasnif	Ko'chma ma'nosiga ko'ra tasnif	Leksikografiq tasnif	Lingvostatistik tasnif		
	Dialektal tasnif	Mavzusiga ko'ra tasnif	Tarkibiga ko'ra tasnif	Tuzilishiga ko'ra tasnif	Lingvoddidaktik tasnif							
	Mavzusiga ko'ra tasnif	Tarkibiga ko'ra tasnif	Tuzilishiga ko'ra tasnif	Lingvoddidaktik tasnif								

2-jadval. O'zbek tilida paremiologik birliklarning tasnifiyi jihatlari

Paremiologik birliklarning tashqi tasnifiga "topishmoq"lar ham mansubdir [8; 374]. Shu kabi, sintaktik qurilmaning barqarorlik tabiatidan kelib chiqib, xalq jonli nutqidagi "tez aytishlar"ni ham paremiologik birlikka kiritishimiz mumkin. Bunga sabab bu birliklarga yaqingacha tilshunosligimizda tadqiq obyekti sifatida qaralmagan, faqat adabiyotshunoslik, aniqrog'i folklorshunoslik doirasidagina o'rganilgan. G'ani g'ildirakni g'izillatib, g'ildiratdi, qishda qatiq qotib qoldi, oq choynakka ko'k qopqoq, ko'k choynakka oq qopqoq, qishda kishmish pishmasmish, pishsa kishmish qishmasmish kabi tez aytishlar azaldan hech bir o'zgarishsiz hatto transformatsiyaga uchramagan holatda bugungacha til xazinasida o'z o'rnnini yo'qotmasdan kelmoqda. Yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq (sabzi), kichkina dekchi, ichi to'la mixcha (anor), o'zi bitta ko'zi mingta (elak), qat-qat qatlama, aqling bo'lsa tashlama (kitob) singari topishmoqlar ham nutqiy xususiyatlarini saqlagan holatda barqarorlik qoidasini buzgani yo'q.

Topishmoqlar va tez aytishlar yaratilishiga ko'ra tashqi jihatdan hikmatli so'zlarga o'xshaydi. Ya'ni ular ham "muallif ijodi" va "xalq og'zaki ijodiga mansublik" singari ikki xil belgini ifoda etadi. Ikkinci toifadagi belgida umummilliy til va uning dialectlariga xos lisoniy tabiat bo'y ko'ssatadi. Shu tufayli PBlarni dialectal jihatdan o'rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, hududiy jihatdan yig'ilgan paremiologik birliklar milliy tilimiz ravnaqi uchun amaliy ahamiyatga ega.

Janubiy Surxondaryo o'zbek shevalarida mavjud paremiologik birliklar o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, i:tti:ng lähädi:ni q:i:di:rib (ilojsiz narsani qidirib, imkon bo'lмаган ishni bajarishga urinish (Jar.), biläk ki:mniği, ki:ji:z öšäniki (Ang.) – kigiz tayyorlash juda murakkab jarayon bo'lib, unda bilak kuchidan unumli foydalaniladi. Kigizning sifatli va chiroqli chiqishida bilakdag'i kuch muhimligi nazarda tutilgan. mi:s kasä mi:stär kasä, mi:s keli:n misopir keli:n (maqolning birinchi qismidagi "mistar" so'zi chizg'ich ma'nosida bo'lib, bu so'z A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida ham uchraydi. Ikkinci jumlada musofir leksemasining semantik maydonida ifoda topgan kelin semasida bir vaqtning o'zida baho semasi va ijtimoiy komponentning faollashuvini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni uzoqdan, begona joydan kelgan kelin oltin, kumush kabi qimmatbaho metalga emas, balki misga qiyos etilgan. Mazkur maqolning "Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi" maqoliga zid qo'yilishini inobatga olsak, o'zbek lingvomadaniyatida qarindosh bo'lмаган va ustiga-ustak, musofir kelinga o'gay ko'z bilan qaralgani ma'lum bo'ladi.

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

A.Omonturdiyev va B.Rahmonovlarning "Surxondaryo dialektal-etnografik maqollarining izohli lug'ati"da vohadagi sheva maqollari hududiy (tumanlarning ayrim mahallalari) jihatdan ajratilib, ko'chimi, umumxalq va dialektal varianti tasniflangan. Bu ish o'zbek shevalari barqaror birikmalarining mukammal izohli lug'atini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek xalq maqollari" [10; 496] to'plamida 70 ta turli xil mavzuga bo'lingan maqollar tarkibida uchragan ayrim sheva va eskirgan so'zlarning kichik izohli lug'ati berilgan bo'lib, ushbu to'plam ham dialektal maqollar tadqiqi uchun amalga oshiriladigan ishlar uchun zarurdir.

Turkiy tillarning barchasida (dunyo tillarida bo'lganidek) paremiologik birliklar mayuddir. Ularni tasniflash, tadqiq etish borasida tilshunoslarning qarashlari qaysidir tomonidan bir-biridan farq qilsa ham ularni bog'lab turuvchi o'xhash unsurlar juda ko'p. Bu ularning tarixiy ildizi bir ekanligidan dalolatdir. Buni Mahmud Koshg'ariy XI asrda "Devonu lug'otit turk" asari orqali turkiy xalqlarning turli sohalar, xususan, paremiologik birliklar masalasida ham mushtarakligini asoslab berdi. Jumladan, mualif 300 ga yaqin maqol (asarda "saw" atamasi bilan keladi)lar orqali umumturkiy xalqlarning madaniyati, kundalik hayoti, turmush tarzi, ma'naviyati bir ekanligini namoyon etadi

[6; 168-169]. Buni o'zbeklarning "maqol", "otalar so'zi"; turklarning "atasözü"; ozarbayjonlarning "atalar sözü"; turkmanlarning "naqıl ve atalar sezi"; qozoqlarning "babalar sezi", "maqal-mətel"; qirg'izlarning "naqal-lakaplar"; qoraqalpoqlarning "naqıl-maqal", "mýısal səz", "nəsiyat səz"; tatarlarning "məkal" deb atashida ham kuzatamiz. Bu turkiy tillar barqaror birikmalari semantik strukturasining bir-biriga muvofiq kelishini hech bir lug'atsiz anglash mumkinligini ifodalaydi. Qiyoslang, qq./: Juo'ryanlar emes, buy'ryan aldi – o'zb. Yugurgannikimas buyurganniki; Ne eksej, soni orasan – Nima eksang, shuni o'rasan; qijmildayan qır aşar – Qimirlagan qir oshar; Bir köjlek burin tozdırıyan – Bir ko'ylak ko'p (oldırı;ortıq) yırtmoq; Kiymesen de toniğ bolsın – Berarga noning bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin; Yer basına kün tüösa, yetigi menen süöv kesher – Suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib kabi (ayrim fonetik jihatlarini mustasno qilgan holda) ikki tildagi bir xil paremalar bu turkiy xalqlarning har tomonlama uyg'unligini asoslaydi.

Qirg'iz va o'zbek xalq maqollarida ham bu xil holat uchraydi. B.Kerimjanova [4; 188], S.Musayev [5; 188] ishlarida maqol va matallarning farqli va o'xhash jihatlari izohlangan. Vaqtin ketdi – naqding ketdi – Ubakittan utturganiñ – iñiskidan kuru kalganiñ; O'tni kovlasang o'char, qo'shningni kovlasang ko'char – O'ttu köölösön öchöt, qoñshunu köölösön köchöt" (var. diss. ketti kovlasang...chiqadi) kabi muqobililik matallarda uchramaydi.

M.Temirova o'zbek va qirg'iz xalq maqollarining tadqiqida ekvivalentlikni to'rt guruhga bo'lib tasniflaydi: fonetik, leksik, morfologik va sintaktik. Shuningdek, funksional jihatlarini yetti guruhga ajratib tahsil qiladi. Turkiy xalqlarga xos bo'lgan merganlik, ovchilikka aloqador: Ovchi qancha ov hiylalarini bilsa, ayiq ham shuncha qochish yo'llarini biladi – mergen tileyt kiyikki, kiyik tileyt biyikti", ot haqidagi Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas –x alyız attin čanji čikpajt, čanji čiksada dankü čikpajt maqollari leksik-semantik va sintaktik qurilishi jihatidan bir-biriga mos kelishi yuqoridağı fikrlarımızni tasdiqlaydi.

Bu holat muomala odobi haqidagi o'zbek-qozoq maqollarida ham uchraydi: zaman qapi:b ajtadi; yaqsi: tavi:p ajtadi [17; 217-324]; äjti:lgän söz, ati:lgan oq. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, P.Bakirovning rus, o'zbek, qozoq tili materiallari asosida nominasentrik maqollarning semantik va struktur xususiyatlariiga bag'ishlangan tadqiqot ishi [1; 286] ham har jihatdan nafaqat turkiy xalqlar, shu bilan birga g'arb va sharq paremiologiyasini o'rganishda ahamiyatlidir.

Matal termini ko'p turkiy tillarda uchramaydi. Qozoq tilida esa "pogovorka"ning ekvivalentini bildiradi. Qozoq maqol va matallarini diniy jihatdan o'rgangan B.Mansurov qozoq tili paremalarini Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislari bilan qiyoslab, maqol va matallarda insonning ezgu fazilatlarini ulug'lovchi, undagi illatlarni qoralovchi ma'nolarni hadislар orqali tushuntirib bergen. Tadqiqotda turkiy xalqlarning maqol va matallari negizida, tadrijiy takomilida hadislarning o'rni va ahamiyatini leksik-grammatik, lingvokonseptual, lingvosemiotik tomonidan tadqiq qilingan. Olim "maqol" so'zi arabcha "qavlun"dan olingani, bu esa PBlar uchun hadislар muhim manba bo'la olishini ko'rsatadi [7; 24]. Xuddi shuningdek, hadislarning turk xalq maqollariga ta'sirini Selman Basharan ham atroficha tadqiq etgan [2; 191]. U turk xalq maqolarini hadislар bilan taqqoslagan va ishonch, ilm, ibodat, shifo, axloq (yaxshi va yomon odatlar) va umumiyy mavzularga ajratgan.

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida va turkologiyada barqaror birikmalar tasnifi, ularning o'ziga xos xususiyatlari boshqa birliklar bilan aloqasi, o'xhash va farqli tomonlari atroficha tadqiqlanishi zarur. Shundagina barqaror birikmalarining, ayniqsa, maqol va matal kabi birikmalarining

alohidalik sifatlari ochiqlanadi va qat'iy to'xtamga kelishga asos bo'ladi. Adabiyotshunoslik, folklorshunoslik tarkibidagi vositalarning lingvistik, lingvopoetik xususiyatlari singari dolzarb masalalar tahlili uchun metodologik yo'l yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис. ... док. филол. наук. – Тошкент, 2007.
2. Башаран С. Hadislerin Turk atasozlerine tesiri. – Bursa, 1994.
3. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луфати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
4. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.
5. Керимжанова Б. Қыргыз элинин макал-лакаптары. – Фрунзе, 1948.
6. Кошғарий М. Девону луготит турк. III томлик. З-том. – Тошкент: Фан, 1963.
7. Мансуров Б.Б. Религиозно-хадисный аспект в казахских пословицах и поговорках: Автореф. дис. ... док. философ. (PhD) по филол. наук. – Ашхабад, 2018.
8. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). O'quv qo'llanma. – T.: Firdavs-Shoh, 2021.
9. Менглиев Б., Холиёров Ў. Она тили (Қомус) – Тошкент, 2009.
10. Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Шарқ, 2005.
11. Омонтурдиев А., Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг изоҳли луфати. – Термиз, 2019.
12. Рўзимбоев С., Рўзметов Ҳ. Фольклор атамаларининг қисқача луфати. – Урганч, 2007.
13. Темирова М. Ўзбек ва Қирғиз халқ мақоллари типологияси: Филол. фан. бўйича фал. док (PhD)... дис. автореф. – Тошкент, 2018.
14. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз? – Тошкент: F.Гулом, 1988.
15. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луфати. – Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 tomlik. – Toshkent, G'afur G'ulom, 2023.
17. Өмірзақ Айтбайұлы. Қазақ фразеологизмдері мен периframздары: Қазақ өркениетінің қайнар бұлағы-мақал-мәтелдер хақында. – Алматы: Абзат-ай, 2013.
18. Қарақалпақ фольклоры. Қарақалпақ халық нақыл-мақаллары. IV том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1978.
19. Ҳакимов М. Ёзуви ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971.

REKLAMA MATNLARINING SOTSIOLINGVISTIK TADQIQI

Muxlisa SABIROVA,
*O'zbek tili, adabiyoti va folklori
 instituti doktoranti, PhD*

Аннотация. В статье рассматриваются социальные характеристики рекламных текстов, социолингвистические аспекты, специфика использования языковых единиц при выражении гендерных различий, возрастные различия в рекламных текстах, анализ рекламных текстов, предназначенных для детей.

Ключевые слова: реклама, социолингвистика, психолингвистика, медиасимволика, медиатекст.

So'nggi yillarda ommaviy axborot vositalari tilini tahlil qilish, mediamatnlarning har bir turiga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'payishi uning o'rganish obyekti kengayganini ko'rsatmoqda. Bugungi zamonaiv jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy omillar rivojiga xizmat qiluvchi reklamaning jamiyatdagи о'rni ham ortgani bois uning tadqiqi dolzarblik kasb etmoqda. Reklama – jamiyatdagи ma'lum mafkuraviy yukni tashir ekan, mahsulot iste'molida jamiyat turmush tarzi talablaridan kelib chiqqan holda o'z xizmatini taklif etadi.

Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa reklama matnlari tadqiqi rus va xorij tilshunosligida izchil tadqiq qilingan. Jumladan, Teun Van Deyk, Martin Montgomeri, Alan Bell, Norman Feyerklaaf, Robert Fauler ingliz

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

tilidagi reklama matnlarini sosiolingvistik, mediastistik, lingvokognitiv, pragmalingvistik aspektlarda tadqiq etishdi [1, 2, 3, 4, 5]. Bu ishlarda reklama matnlarining tuzilishi, qo'llanish doirasi, uslubiy xususiyatlari, kishilarga ta'sir ko'rsatish kuchi kabi masalalar tahlil qilingan.

Rus tilshunosligida A.P.Repyevning "Reklama tili" [6], S.N.Berdishevning "Reklama matni" [7; 182], N.A.Savinaning "Социолингвистические характеристики рекламного текста" [8; 44-54], S.A.Korochkovanning "Социолингвистическая характеристика рекламных текстов в гендерном аспекте" [9] tadqiqotlarida reklama matnlarining o'rganilishi, janr xususiyatlari, lingvostistik ahamiyati, ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, gender farqlanishi kabi masalalar tahlilga tortilgan.

O'zbek tilshunosligida reklama matnlarining imperativlik, undash, da'vat qilish, ishontirish ma'nosining o'zbek tilida ifodalanish usullari, mexanizmlari va qonuniyatları K.Yusupova tomonidan ilmiy ochib berilgan. [10; 58] Ammo uning sotsiolingvistik jihatlari, reklamaning ijtimoiylik belgisini ifodalovchi yoshi, jinsi, mavqeyi, kasb-kori kabi ijtimoiy omillari farqlangan tadqiqotlar mavjud emasligi uning ijtimoiy til xususiyatlarini ham o'rganish kerakligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, "Sotsiolingvistika insonlar mazkur lisoniy belgilarni ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, bilimi va madaniyatlilik darajasiga ko'ra qanday qo'llashlarini, ya'ni ijtimoiy muhitning ularning nutqiy muomalasiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi" [11; 3]. Reklama matnlari tadqiqida ham ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan matnlarni kuzatish mumkin. Masalan, adresant o'z mahsulotini reklama qilayotganda albatta adresatning ijtimoiy belgilarini, yoshini, ayollar yoki erkaklar uchun mo'ljallanganligini inobatga olgan holda o'z mahsulotini taklif etadi. Rus tilshunosligida reklamaning gender farqlanishi bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Ularda auditoriyaning jins jihatidan farqlangan tadqiqotlar tahlilida ayollar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida ekspressiv-emotsional til birliklaridan foydalangani, erkaklar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida esa psixologik ta'sir ustuvorlik qilgani ko'rindi.

Reklama matnining mavzusi (reklamada qanday mahsulot muhokama qilinmoqda) ba'zi hollarda qabul qiluvchining jinsini aniq ko'rsatadi. Erkaklar va ayollar mahsulotlarining mavjudligi, ularning qiziqishlari o'rtasidagi tafovut erkaklar va ayollar reklama mavzularini farqlashda namoyon bo'ladi. Masalan, dekorativ kosmetika reklamasi ayollar uchun mo'ljallangan aniq reklama turi sifatida qabul qilinadi. Biroq, bir qator mahsulotlar erkaklarga ham, ayollarga ham murojaat qilishi mumkin. Bunday hollarda adresatni aniqlashda uning lingvistik xususiyatlari, ekstralingvistik va albatta, vizual omillar ham yordam beradi.

Tilning ifodali vositalari reklama qilinayotgan mahsulotning muhim qirralarini ochishda zaruriy vosita hisoblanadi. Masalan, vizual(ko'ruv) reklama matnlarida lingvistik vosita sifatida asosan yuqori emotsiyal-ekspressivlikka ega bo'lgan sifat turkumiga oid so'zlar qo'llaniladi. Chunki reklama qilinayotgan xizmatlar, tovarlarning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklarini alohida ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatish, asosan, sifat so'z turkumi orqaligina amalga oshiriladi. Masalan, xushbo'y, nozik, shaffof, sof, asl, toza, haqiqiy, tabiiy, chin, arzon, ommabop, hammabop, yoqimli, ko'rkar, yorqin, porloq, xushbichim, orasta, zebo kabi. Shuningdek, reklama matnlarida buyruq tarzidagi da'vat fe'llari ham ko'p qo'llanilishi ma'lum. Masalan, his eting, tashrif buyuring, marhamat qiling, tanishib chiqing, tanlang, kuting, ishtirok eting, ega bo'ling, shoshiling, lazzatlaning, quvoning va hokazo: Sog'liqni o'yla – Nestle Sutini tanla! Mutlaqo sof va tabiiy! Mahsulot sertifikatlangan (Nestle suti reklamasi).

Reklama ma'lum bir jamiyat ta'sirida shakllangan va uning o'ziga xos madaniy va milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi, shuningdek, dunyoning milliy o'ziga xos manzarasini aks ettiruvchi ma'lum bir lisoniy va madaniy hodisa hisoblanadi. Reklama maxsus lingvistik va madaniy hodisa sifatida lingvomental stereotiplarga amal qiladi, ular asosida u yoki bu reklama matni yaratiladi. Reklama asosida muayyan jamiyatning xususiyatlari, madaniy qadriyatları, etnik xususiyatlari haqida ma'lum xulosalar chiqarish mumkin. Bir tomondan, reklama matnlari, boshqa matnlar singari, dunyoning mavjud manzarasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular uni shakllantiradi, yangi tasvirlar va haqiqatlarni yaratadi, ularsiz zamonaviy jamiyatni tasavvur qilib bo'lmaydi [12].

O'zbek tilida ayollar uchun mo'ljallangan reklamalarda ekspressiv-emotsional til birliklari, baho munosabatini ifodalovchi leksik birliklar keng qo'llanadi. Masalan, Kukmara idishlari – ayollar orzusi! Kukmara idishlari Rossiyada ishlab chiqarilgan; Yaxshi uy bekalari "Gloss" ni yaxshi ko'radilar (kir yuvish kukuni "Gloss"); Bolajonim haqiqiy tadqiqotchi. O'zi uchun yangi hidlarni kashf etadi, lekin ularni uzoq vaqtga saqlab qolish oson emas. Yangi Vernel bilan o'zingizni 100 kungacha intensiv hushbo'y hid bilan qurshab oling. Vernel oshiq qildiruvchi hid. ("Vernel" kir yuvish vositasi reklamasi). Misollardan ko'rindaniki, ayollar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida nutqiy ta'sir vositalaridan, ijobiy baho anglatuvchi til birliklaridan keng foydalaniadi.

Reklamalarning berilishida yosh bilan bog'lik jihatlar ham farq qilinishini ko'rish mumkin. Masalan, bolalar uchun mo'ljallangan reklamalarda ularga xos dunyoqarash, fikrlashga e'tibor qaratiladi va tabiiyki, shunga mos til birliklaridan foydalaniladi. Masalan, Assalomu alaykum aziz opalar! Man hozir sizlarga haqiqiy chocolate qilishni ko'ssataman. Buning uchun bizga kerak Oyim, non va chocotella. Nonni olamiz, chocotellani surtamiz. Diqqat bilan tinglang! Mana qarshingizda tayyor chocotella. Reklama matnini kichik yoshdagi bola o'qigan va bu bolalarga xos kayfiyat berishiga xizmat qilgan. Matnda bola tilining adabiy tildan chekingani, ya'ni Men olmoshi o'rnila Man deb qo'llagani va so'zlashuv uslubiga oid matni ham bolalarga xos reklama matnlarining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Chunki bolalar adabiy til me'yorlariga amal qilmasligi va uslublararo farqni bilmasligi ma'lum.

Reklama yaratuvchisining adresatning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olishi reklamaning muvaffaqiyati uchun ham muhim hisoblanadi. Masalan, Zizi reklamasini olaylik. Unda bolalarning o'yinda tushgan holda, qo'shiq qilib kuylangan reklama matni auditoriyani, ayniqsa, bolalarni bir zumda jalg qilishi shubhasiz. Misolga e'tibor qaratsak: Zizi o'ynab chaynagini, do'stlarni ham chorlagin! Kayfiyatni chog'lugin! Zizi bilan quvnagin! Zizi manda bor-ku, mevalarga boy-ku! Ey, senda-chi Zizi bormi?! Reklamada bolalar va multiqahramonning birga o'ynagan holda Zizi saqichini reklama qilishi bolalar auditoriyasini o'ziga jalg qiladi. Reklama uchun tanlangan matnda esa da'vat fe'llarini qo'llash orqali reklama samaradorligini oshirishga erishiladi.

Yana bir misolga e'tibor qaratsak: Yoqtirmaysanmi bizni, xohlamaysanmi bizni! Quvnoq ta'm – sladokda mujassam! Reklama samaradorligiga xizmat qiluvchi omillardan biri – mediaviy vositalar uyg'unligi hisoblanadi. Yuqorida reklamada ham mediaviy belgilar – matn va unga hamohang tayyorlangan ohang, bola nutqining berilishi reklamaning nutqiy ta'sirini oshirgan.

Bolalar uchun mo'ljallangan reklamalarda tibbiy reklamalarning ham alohida o'rni bor. Jumladan, Bobotik, Anaferon, Lineks, Pikovit, Bepanten, Supradin Kids kabi reklamalar faqat bolalarga mo'ljallanganligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, reklama matnida ham "bolalar uchun", "bolalarga mo'ljallangan" kabi til birliklaridan keng foydalaniladi: O'vi va grippni davolashda, profilaktika qilishda; farzandingiz immunitetini mustahkamlashda va bir oylikdan oshgan bolalar uchun mo'ljallangan (Anaferon dori vositasi reklamasidan)

Korinadiki, reklama matnini o'rganish nafaqat uning sotsiolingvistik, balki lingvokulturologik, pragmalingvistik, psixolingvistik jihatlarini ham tadqiq etish zaruratini ko'ssatadi. Chunki ommaviy axborot vositalari orqali uzluksiz beriladigan reklama katta auditoriyani qamrab organi sabab, uning til bilan bog'liq jihatlarini tartibga solish, adabiy til qonuniyatlariga amal qilingan samarali reklama matnlarini tavsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fowler R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. – London: Routledge, 1991.
2. Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991.
3. Теун ван Дейк. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 2000.
4. Montgomery M. Introduction to Language and Society. – London: Routledge, 2008.
5. Fairclough N. Language and Power. – London, 2014.
6. Репьев А.П. Язык рекламы Часть I. http://www.repiev.ru/articles/ad_lang.htm
7. Бердышев С.Н. Рекламный текст. Методика составления и оформления.- Москва: Дашков и К, Ай Пи Эр Медиа, 2012.
8. Савина Н.А. Социолингвистические характеристики рекламного текста // Мир лингвистики и коммуникации: электронный научный журнал. – Москва, 2019. – № 1. – С. 44–54.
9. Корочкива С.А. Социолингвистическая характеристика рекламных текстов в гендерном аспекте. Автореф.дисс. канд.филол.наук. – Москва, 2004.
10. Yusupova K.Q. O'zbek tilidagi reklama matnlarida imperativlik va uning ifodalanishi. F.f.f.d. diss... avtoref. – Toshkent, 2022.
11. Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent, 2014.
12. Shermatov A., Saparova N. Reklama matnining lingvokulturologik tahlili // Problems and prospects for the implementation of interdisciplinary research. <https://www.intereuroconf.com/index.php/PPFIIR/article/view/1017>

O'ZBEKONA NUTQIY STRATEGIYA VA NUTQIY TAKTIKA HAQIDA

Feruzaxon KARIMOVA,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Аннотация: В статье автор рассуждает об управлении узбекского коммуникативного процесса, а также речевой стратегии и тактике.

Ключевые слова: pragmalingvistika, коммуникативная сел, диалог, иллокутивная сила, речевая стратегия.

Sistem-struktur tilshunoslikning Praga lingistik to'garagida ma'ruzalar o'qigan venger tilshunosi F.Kifer pragmatika sohasining pressupozitsiya masalasi bilan shug'ullangan. Uning pressupozitsiyaga bag'ishlangan ishida kontekstual erkin va kontekstual tobe ma'no haqida fikr yuritiladi va ularning quyidagicha farqi keltiriladi: sintaktik shakl va leksik birliklar orqali anglashiladigan ma'no kontekstual erkin ma'no, kontekst bilan shartlangan ma'no esa kontekstual tobe (bog'liq) ma'nodir [6; 333]. Pragmatikaning nutqiy muloqot mavzusiga bag'ishlangan ishlaridagi nutqiy vaziyat, kontekstga doir qarashlar Kifer nazariyalari ta'sirida ham rivojlangan deyishimiz mumkin.

Dialogik tadqiqotlar nutqiy vaziyat va konteks tahlilisiz hech qachon to'lva va mukammal bo'lomaydi. Shuningdek, muloqot ilmida yana "kommunikativ maqsad" tushunchasi ham ko'p qo'llaniladi. Kommunikativ maqsad "..so'zlovchining kommunikativ niyatini, ya'ni shu gapdan ifodalangan obyektiv mazmun elementlarining ahamiyatlilik darajasini belgilashni (aktual bo'laklarga ajratish) hamda darak, so'roq, buyruq ifodalashni, ikkinchidan, pressupozitsiya axborotini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, til birligi sifatida gap semantikasiga faqat nominativ plan – propozitsiya plani oiddir. Kommunikativ plan esa jumla semantikasining, demak, nutq semantikasining predmetidir". [8; 94].

So'nggi yillarda nutqiy muloqotning o'rganilishida kommunikativ maqsad tushunchasidan tashqari "kommunikativ strategiya", "kommunikativ taktika", "kommunikativ sabotaj" kabi terminlarning qo'llanilishini uchratamiz. Mazkur terminlar dialogik muhit uchun juda qulay bo'lib, unda suhbatdoshlar o'z nutqiy muloqoti orqali kerakli maqsadni amalga oshirishda foydalanadilar. Ma'lumki, strategiya va taktika atamalari dastlab harbiy sohada qo'llanuvchi tushunchaga nisbatan ishlatilgan. Mazkur atamaning falsafiy talqini ham bunga guvohlik beradi. V.Alimasovning "Strategema – fikrlash va eyngish ilmi" nomli maqolasida strategemalarning quvlik, hiyla, nayrang, aldash, chalg'itish deb tushunilishi qayd etiladi. Muallif yozadi: "Ammo ushbu ilk etimologik ma'no (lashkar, qo'shin; ergashtiraman, boshqaraman ma'nolari ko'zda tutilmoxda) hozir transformatsiyaga uchragan, ya'ni strategemaga inson aql-u idroki, faoliyati bilan bog'liq barcha sohalarga taalluqli voqelik sifatida qaralmoqda". [1; 55]. Shuning uchun ham til ilmiga oid tadqiqotlarda ham mazkur atamalarga tez-tez murojaat qilinayotganini kuzatamiz.

Har bir tilning vazifasi jamiyat va undagi insonlarning ma'naviy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Muloqot ishtirokchilarining o'z fikrini tinglovchiga yetkazishda, unga ta'sir etishda, o'z mental aktini sodir etishda bir necha usul va yo'llarni qidirishi tabiiy jarayondir. Nutqiy akt mavzusi bilan shug'ullanib kelayotgan olim M.Hakimov "kommunikativ taktika – so'zlovchining fikr ifodalash usuli" deya ta'rif beradi [4; 155]. Rus olimasi T.M.Nikolayeva fikricha esa, "kommunikativ sabotaj" va "lingvistik demagogiya" tushunchalari bir-biriga yaqin [7; 154-165]. Olimaning tadqiqotida "kommunikativ sabotaj" ommaviy tarzdag'i ongni boshqarish usuli sifatida qo'llaniladi. O.S.Issers talqiniga ko'ra esa: "Nutqiy strategiya – bu kommunikativ maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatlar majmuidir" [5; 54]. "Nutqiy taktika" termini ostida esa bir necha usullar jamlamasidagi ma'lum tarkib, ya'ni nutqiy strategiyaning bir qismi tushuniladi. Ta'kidlash lozimki, mazkur terminlar ostida o'rganilayotgan hodisalarda so'zlovchining kommunikativ maqsadini ro'yobga chiqarish usul va vositalarigina emas, balki o'ziga xos suhbatdoshning raqib nutqiy va mental bosimidan himoyalash usuli sifatidagi qarashlarga ham duch kelamiz [9]. Bunday qarashlar o'z

asosiga egaligi bilan nutqiy muloqot jarayonida tadqiqotchilarni mazkur hodisalarini o'rganishga undaydi, degan fikrdamiz. "Mental akt yoki mental holat so'zlovchi nazarda tutgan illokutiv akt ma'nosi tinglovchi tasavvuri bilan o'zaro muvofiq kelishidir" [3; 130].

O'zbek tilidagi dialoglarda nutqiy strategiyalarning milliy ruhdagi o'zbekona ko'rinishi tariqasida quyidagi dialogni keltirish o'rinnlidir.

– Fuzuliy yaxshi kitob, – dedi Kumush, – men ham yolg'iz qolgan kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?

– Otabek garansib qolg'an, o'zini ovutmoqchi bo'lg'an bu oliyanob go'zalga nima deyishni bilmas, qayerdan so'z boshlashqa hayron edi:

– Kim yig'latdi sizni?

– Yig'labmanmi?

– Ko'zingiz, kiprakingiz...

– O'zi shunaqa...

– Yig'latgan men emasmi?

– Kitobni nega yopdingiz? Ochib o'qung, men eshitay.

– Ota-onha rizolig'ini bir tomchi ko'z yoshingizga arzitdimmi?

– Men rozi, men ko'ndim, – dedi daf'atan Kumush, bu so'zni nimadandir qo'rqqandek shoshib aytdi. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar).

Mazkur dialogda Kumushning Otabekning uylanishiga o'z rozilagini ehtiyojkorlik bilan ifodalash usulidan ma'lumki, Otabek kutgan noqulay nutqiy muloqot yuzaga kelmadı, aksincha, tinch holatdagi rozilik mazmunining yashirin tasdiq ishorasi (Fuzuliy yaxshi kitob... Kitobni nega yopdingiz? Ochib o'qung, men eshitay) o'ziga xos nutqiy taktika bilan bayon etildi. Ushbu dialogda qo'llanilgan mohirona nutqiy harakat – taktika dialogning boshlanishidagi nizoli holatdan so'zlovchini ham, tinglovchini ham qutqarib qolgan. Shunga ko'ra mazkur qo'llangan usulni himoyalash usuli sifatidagi taktika deb baholash maqsadga muvofiqdir.

Pragmalingvist olim M.Hakimov o'z qarashlarida illokutiv kuch haqidagi fikrlarini bayon etar ekan, mazkur tushunchani "ifoda imkoniyati" tarzida berishni ma'qul ko'radi va shunday yozadi: "Ifoda imkoniyati (illokutiv kuch) ko'rinishlaridan biri bu fikr ifodalash uslubi yoki taktikasi hisoblanadi. So'zlovchi o'z niyatini amalga oshirish uchun nutqiy ta'sir etish usuli yoki taktikasi vositasi bilan tinglovchining ichki ruhiyati yoki ichki pozitsiyasini aniqlab oladi... Bunga ko'ra so'zlovchi kommunikativ niyatini, maqsadlarini bayon qilish uchun qulay bo'lgan ma'lum nutqiy vaziyat yuzaga kelishini kutadi, shu ma'noda illokutiv aktni vaziyat etilishi bilan propozitsional mazmunning ostiga yashiradi va ifoda etadi" [2; 141]. Olim keltirilgan mulohazalar orqali nutqiy taktikani illokutiv kuch bilan bog'liqligini asoslاب bergan. Aslida illokutiv maqsad, illokutiv kuch, intensiya, tagma'no, tagbilim kabi tushunchalar nutqiy taktika yoki nutqiy strategiyani amalga oshirishda bir maydon ichida birlashuvchi asosiy qorol tushunchalar vazifasini o'taydi.

Olim qo'llagan "individul strategiya" tushunchasi ham diqqatga sazovor bo'lib, mazkur tushuncha tilshunosligimizda nisbatan yangi tushuncha hisoblanadi. Uningcha, "so'zlash va fikrlashni to'g'ri ifodalash uchun individual strategiya mahoratiga ham ega bo'lish lozim" [2; 26]. Bu o'rinda gap yana aylanib kelib, so'z ustasi va "suhbat guli"ga aylana olgan zakiy va oqil suhbatdoshning mahoratiga taqaladi. Darhaqiqat, muloqotda maqsadga yetish omili so'z orqali ekan, undan qay tarzda foydalanish ham shaxsiy, ham lisoniy, ham aqliy, ham ijtimoiy bilim va tajribalarga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, pragmalingvistik tadqiqotlar ko'lami nihoyasiz bo'lib, u hayot bilan, insonlarning xohish-irodasi, maqsad va intilishlari bilan chambarchas bog'langan. Mazkur holatlarni lisoniy tafakkur va lisoniy qobiliyat orqali amalga oshishini yoritish esa tilshunoslardan oldiga qiziqarli sayohatga otlanishdek qizg'in va jo'shqin hayrat hissini berishi shubhasizdir. Bunday maroqli sayohatdan bosh tortish aslo mumkin emasdek, nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. – Тошкент: Noshir, 2008.
2. Hakimov M, Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Farg'on, 2020.
3. Hakimov M. Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi. – Farg'on, 2020.
4. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

5. Иссерс О С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – М.: ЛКИ, 2008.
6. Кифер Ф. О роли прагматики в лингвистическом описании // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С. 333–348.
7. Николаева Т.М. Лингвистическая демагогия // Прагматика и проблемы интенциональности. – М., 1988. – С. 154-165.
8. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбектилингмазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
9. Андреева В. Ю. Коммуникативный саботаж в бытовом дискурсе // Теория языка и межкультурная коммуникация. – Курск, 2013. – №1(13). – С. 1-5.

ПРИЧИНЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ

Шахло УРИНОВА,
Преподаватель Ташкентского государственного
университета узбекского языка
и литературы имени Алишера Навай

Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tilining internatsional leksikasi ko'rib chiqilgan, internatsional leksika shakllanishning ekstralolingvistik va intralingvistik omillari tahlil qilinadi va bunday o'zlashmalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: internatsional leksika, ichki omil, tashqi omil, o'zlashma so'z, neologism, donor til, qabul qiluvchi til.

Интернациональная лексика является наиболее общим пластом лексики большинства языков мира. В словарях и лингвистических энциклопедиях приведены различные толкования термина «интернациональная лексика». Вот как характеризует её Т.Жеребило: «Совокупность интернационализмов, используемых в различных языках в пределах того или иного культурно-языкового ареала, для каждого из которых характерна собственная интернациональная лексика: 1) интернациональная лексика европейского ареала включает языковой материал из латинского, древнегреческого, западноевропейских языков; 2) интернациональная лексика восточного ареала включает слова, взятые из персидского, арабского языков. Удельный вес интернациональной лексики в современных языках достаточно велик (примерно 10 %). Интернациональная лексика распространена в терминологии точных наук, в общественно-политической терминологии [1; 123].

Причины формирования интернациональной лексики можно разделить на экстралингвистические (внешние) и интралингвистические (внутриязыковые).

Экстралингвистические факторы образования интернациональной лексики заключаются в следующем:

1. Заемствование слова вместе с заемствованием вещи или понятия. В этом случае заемствуется и новое понятие, и его вербальное обозначение. Например, появление в нашей жизни новых понятий и новых реалий, таких как, например электробус, электрокар, принтер, сканер, лазер, компьютер, чип, тостер, чоппер, новых профессий: менеджер, маркетолог, мерчандайзер, супервайзер, риэлтор, визажист, имиджмейкер, футуролог, блогер, вайнер и многих других обусловили появление в языке и их наименований. Расширение интернациональной лексики напрямую связано с развитием науки, технологий, экономики, культуры, искусства, производственных отношений, глобализацией во всех отраслях жизни. Многие из этих слов в начале имеют статус неологизма, затем прочно входят в повседневную жизнь и утрачивают свою новизну, переходя в активный лексикон носителей языка. Например, изрядное количество терминов, связанных с развитием космонавтики (космонавт, космический корабль, спутник и т.д.).

спутник, космодром, луноход, марсоход), находящихся в 50-70-е гг. XX века в статусе неологизмов появилось и др. Сегодня все эти слова стали общеупотребительными.

2. Обозначение с помощью заимствованного слова специального понятия, существующего в языке, но немного отличающегося от него. Это и ведёт к заимствованию интернационального термина. «Потребность в специализации предметов и понятий ведет к заимствованию научных и технических терминов, многие из которых имеют русские соответствия: лат. трансформатор – рус. преобразователь; лат. компрессия – рус. сжатие; франц. пилотировать – рус. Управлять, англ. модератор – рус. ведущий и т.п. [2; 137]. Также можно привести следующие примеры: рекорд (англ. record); ректор (лат. rektor); ремонт (франц. remonte) (compression – англ); пилот (франц. pilote), ренессанс (франц. renaissance).

3. Глобализация, способствующая расширению международных связей, которая и приводит к пополнению интернационального пласта лексики в языках мира.

Таким образом, экстралингвистические факторы, не связанные с внутренним развитием языка, оказывают значительное влияние на процесс заимствования интернациональной лексики. Экстралингвистическая реальность во многом обуславливает развитие языковых связей, интенсивность языкового контакта и характер его функционирования. В современных условиях глобализации, усиливающей взаимозависимость и взаимообусловленность национальных государств и регионов, интенсификацию языковых контактов, возрастает потребность в выявлении внешних факторов образования иностранных слов в национальных языках мира.

Интралингвистические факторы формирования интернациональной лексики можно обозначить следующим образом:

1. Тенденция к замене описательного наименования однословной единицей. Это свойственно большинству языков, в том числе, русскому и узбекскому). Например: снайпер – вместо меткий стрелок, мотель – вместо гостиница для автотуристов, спринт – вместо бег на короткие дистанции, вебинар – вместо дистанционный семинар, электробус – вместо электрический автобус и т.п.

2. Укрепление в языке заимствованных слов с определенной морфологической структурой. В таких случаях заимствование нового иноязычного слова значительно облегчается. Например, слова, имеющие значение лица и общий элемент -мен. В настоящее время подобные слова составляют довольно значительную группу персоналий: бизнесмен, конгрессмен, кроссмен, спортсмен, бармен и др. В последнее время участились случаи заимствования персоналий с англоязычным элементом -ер: копирайтер, промоутер, трейдер, маклер, брокер.

К внутрилингвистическим причинам появления заимствований в языке Л.П. Крысин относит следующие:

1. Устранение полисемии исконного слова и упрощение его смысловой структуры.

2. Потребность уточнить, детализировать соответствующее понятие, разграничить некоторые смысловые оттенки, прикрепив их к разным словам.

3. Наличие в заимствующем языке тенденции к образованию структурно аналогичных слов или наличие класса слов, структурно однотипных с воспринимаемой лексической единицей.

4. Наличие в языке-приемнике определенного лексического ряда заимствований с общим значением и повторяемостью какого-либо одного структурного элемента (можно добавить, что это способствует более легкой адаптации заимствования, однотипного со словами уже существующего лексического ряда).

5. Тенденция к соответствуанию нерасчлененности обозначаемого понятия с нерасчлененностью обозначающего, т.е. язык стремится назвать обозначаемое (если оно представляет собой единое целое) отдельным словом, а не группой слов или словосочетанием [3].

Анализ функционирования иноязычной лексики показывает, что иноязычные термины, заменившие исконные словосочетания, не всегда приспособливаются и укореняются в лексической системе принимающего языка, в котором уже сложились определенные микросистемы с общими структурными признаками.

Также стоит отметить, что вышеперечисленные внутриязыковые причины не существуют отдельно, они взаимосвязаны между собой. Например, явление языковой экономии может быть обусловлено тенденцией к экспрессивности или немотивированного языкового знака.

В заключении можно сказать, что интралингвистические факторы, связанные с внутренними тенденциями развития языка, способствуют формированию заимствованной лексики в языке. Проникновение иностранных слов и их адаптация в языке-реципиенте очень часто обусловлено необходимостью обозначения, номинации новых реалий и предметов, а также потребностью уточнения соответствующего существующего понятия. Совокупность внутриязыковых причин формирования иноязычной лексики может отличаться от набора таковых факторов в других языках, ибо каждый конкретный язык уникален по-своему.

Список использованной литературы:

1. Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. Издание 5-е, исправленное и дополненное. – Назрань: Пилигрим, 2010.
2. Кушнарёва Н. В. Проникновение иноязычных слов в русский язык // Омский научный вестник, 2011. – № 6 (102). – С.135-138.
3. Крысин Л.П. Русское слово, свое и чужое / Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 23–29.

ODDIY FOLKLORIZM – IBORALARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Aziza AXMEDOVA,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi

Аннотация. Статья посвящена анализу разновидности обычных фольклоризмов – фразеологизмов. Раскрываются отличительные особенности пословиц и фразеологизмов, приводится лингвопоэтический анализ фразем в произведениях Чуллана.

Ключевые слова: фольклоризм, обычный фольклоризм, сложный фольклоризм, фразеологизм, пословица.

"Hech shubhasizki, til o'ziga muhtasham mazmuh va muntazam mohiyat ato etadigan barcha katta-kichik birliklarning teran va tarang tashakkuli, tanosibi, ayni paytda tinimsiz takomili tufayli betimsol sinoatli tilsim o'laroq asrlar osha tirikdir. Shu narsa ham ochiq haqiqatki, bu tilsim silsilasida lug'aviy birliklar favqulodda ayricha o'ringa sohibdir... Tilning chinakam sehr-u joduli lug'aviy birliklari olamida yana bir mutlaqo uzviy qatlam mavjudki, uni mutaxassislar "iboralar" yoki "frazelogizmlar" // "frazelogik birliklar" termini bilan ataydilar" [1; 3].

"O'zbek tilida xalqning o'ziga xos tafakkur tarzini, badiiy tasavvurini, qudratini ko'rsatuvchi iboralar mavjud. Iboralar, umuman olganda, hayotdagি voqeа-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagи maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir" [2; 75]. Frazelogizmlar fikrni aniq va qisqa ifodalashga xizmat qiladi.

Avvalgi tadqiqotlarda aytganimizdek, iboralar ham oddiy folklorizm hisoblanadi. Ammo folklorshunos olima L.Sharipova o'z tadqiqotida iboralarni janr xususiyatiga ega emasligi uchun oddiy folklorizm bo'lolmasligini, B.Sarimsoqov fikrlariga qarshiligidini aytadi: "Og'zaki nutqqa xos ifoda hamda oborotlar oddiy folklorizmlar bo'lolmaydi. Chunki ular nutqqa xos hodisa bo'lib, maqol, matal kabi tilda hamisha tayyor holda uchrasa ham badiiy ijod mahsuli sifatida janriy belgilarga ega emas. Shu ma'noda folklor janri bo'lgan maqol va matal o'zlashuviga alohida e'tibor berish lozim" [3; 34], deb ta'kidlaydi. Tilshunos olima Sh.Maxmaraimova to'g'ri ta'kidlaganidek: "Frazelogizmlar millatning o'zigagina xos bo'lgan munosabat bildirish, baholash shakli bo'lib, bunda millatning ma'naviy-qadriyatiy manzarasiga tegishli belgililar frazeologik ma'noni tarkib toptiruvchi asosiy sabablardan hisoblanadi" [4; 271]. Shuningdek, biz ham B.Sarimsoqov fikriga qo'shilamiz. Chunki iboralar xalq og'zaki nutqida tayyor holda imkoniyat sifatida mavjud bo'lib, har safar yangitdan

yaratilmaydi, balki tayyor holda nutqqa olib kirilaveradi. Shu ma'noda, turg'un ibora va muayyan qolipa ega oborotlarni ham oddiy folklorizmlar sifatida qabul qilish mumkin, degan fikrdamiz.

Xalq maqollarini o'zbek tilshunosligida o'rgangan B.Jo'rareva "Maqollarning lisoniy mavqeい va ma'noviy uslubiy qo'llanishi" mavzucidagi tadqiqot ishida maqollarni ibora bilan umumiylar farqli jihatlarini etimologik, ma'noviy va sintaktik jihatdan farqlagan va quyidagicha fikr bildirgan: "Frazeologiya doirasini tor ma'noda tushunish o'rinni bo'lib, maqol bilan ibora faqat bir nuqtada umumiylilikka ega. Ya'ni maqol ham, ibora ham idioma sanaladi. Ammo bu o'xshashlik ulardagi boshqa farqli jihatlarni inkor etmaydi, chunonchi, maqol o'tkir kuzatuvchanlik asosida vujudga kelgan fikrlarning xulosasi hisoblanadi, frazeologizm esa tayyor so'z tizimlarining ko'chma ma'no ifodalash va shu holatda turg'un so'z bog'lanmasiga aylanishidir. Maqollar kamida bitta gapga teng kelib, hukm ifodalaydi; ibora esa gapda atamatik xususiyatiga ega bo'lib, leksik tushuncha anglatadi" [5; 45].

Atoqli tilshunos olim A.Hojiyevning "Frazeologizmlar so'zlar kabi yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabilarni) ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frazeologizmlar so'zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bilan leksik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi... Juda ko'p frazeologizmlar bildiradigan ma'nolarni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi. Buyuk tilshunos olimi N.Mahmudov A.Hojiyevning fikrlariga qo'shilgan holda, quyidagilarni aytib o'tadi: "so'z shaklan ixcham, ibora esa tarkibli (kamida ikki so'zdan iborat), ya'ni hajman katta, agar har ikki birlik ham ayni bir ma'no ifodasi uchun xizmat qiladigan bo'lsa, til vositalarini tejash tamoyiliga muvofiq til egasi ixcham birlikni tanlamog'i joiz, ammo tilda ixcham emas, balki "qo'pol" birlik – ibora ham yashayaptimi, demak, bu til taraqqiyotidagi yana bir tamoyil – til vositalaridagi ortiqchalik tamoyili harakatining natijasidir. ...Aytish mumkinki, so'z va iborani bir-biriga tamoman teng, mutlaq ekvivalent hodisalar sifatida baholash maqsadga muvofiq emas, bunga, ayniqsa, frazeologik ma'noning o'ziga xosligi, ko'lAMDORligi, hajman boyligi, emotSIONAL-ekspressiv zanginligi, umuman, frazeologik semantikaning murakkabligi yo'l qo'yaydi" [1; 7].

O'zbek tilshunosligida iboralarni o'rganish o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu borada mashhur tilshunos Sh.Rahmatullayev xizmatlari beqiyosdir. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasining shakllanishi va rivojlanishida olimning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasini va "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"ning ahamiyati katta bo'lgan [6, 7]. Shuningdek, tilshunos olima Sh.Toshxo'jayeva ta'kidlaganidek: "mashhur tilshunoslari Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, A.Rafiyev, Sh.Almamatova va boshqalarning xizmatlari alohida e'tirof etish lozim. Sh.Rahmatullayev o'z tadqiqotlarida frazeologizmlarning ma'no xususiyatlari, shakl va ma'no munosabatlari borasida maxsus monografik ishlar olib borish bilan birga, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug'atini yaratdi va bu bilan amaliy tilshunoslik sohasiga katta hissa qoshdi. B.Yo'ldoshev frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlari, A.Mamatov ularning shakllanishi, Sh.Ganiyeva esa frazeologizmlarning ma'no tuzilishi, ularni shakliy va mazmuniy modellashtirish muammolari xususidagi ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'zbek frazeologizmini ilmiy jihatdan o'rganilishiga va bu sohaning alohida fan sifatida shakllanishiga hissa qo'shmaqdalar" [8; 90].

Tilshunos olim N.Mahmudov iboralar va ularning lug'aviy tavsifi muammolari tahliliga bag'ishlangan maqolasida korparativ iboralar to'g'risida so'z yuritadi va ular hozirgi kunga qadar yetarli darajada e'tibor berilmaganligini ta'kidlaydi. "Tilda idiomalarga yaqin turadigan yoki frazeologizm maqomida bo'lgan turg'un o'xshatishlar asosidagi birlıklar mavjud bo'lib, ularni komparativ frazeologizmlar sifatida qarash mumkin, ular ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shakliida mustahkamlanib qolgan, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obratzning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy aloqasi yuzaga kelgan. Ular til sistemasidagi frazeologik iboralarning alohida, o'ziga xos bir guruhini tashkil etadi va tayyor holda nutqqa olib kiriladi" [1; 11].

Yosh tilshunos olim G.Ismoilov o'zbek, qozoq va qoraqalpoq tillarida misolda frazeologik birlıklarni lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatdan tadqiq qilmoqda va ushbu mavzuda bir qator tadqiqotlarini e'lon qilib bormoqda. Olim "Frazeologik birlıklarda sonlarning ifodalanishi" nomli maqolasida iboralarda sonlarning ifodalanishi va ular asosida shakllangan iboralarning diniy-mifologik kognitiv strukturasini ochib bergen. Uning fikricha: "Frazemalarning ko'pchiligi inson hayotiy faoliyat, ma'naviy va jismoniy holati bilan

bog'liq hodisalar asosida shakllangan bo'lib, ular tarkibidagi zoologizm, somatizm, mifologik hodisalar, ranglar va son kabilar frazemalarning semantik tayanch komponenti vazifasini o'taydi. Turkiy tillarda ham son komponentli frazemalar ma'lum miqdorda faol ishlataladi. Sonlar har qanday madaniyat tarkibiga singib borada hamda undagi axborotni mazmuniy guruhlarga uyuştiradi. Bu holat ushbu madaniyatda yozma yoki og'zaki ijod an'anasi mavjud yoki mavjud emasligidan qat'iy nazar, bilimlarning avloddan avlodga o'tishini ta'minlaydi. Turkiy tillarda sonlar mantiqiy asos sifatida frazeologizmlarni shakllantirgan hamda bu sonlar diniy-mifologik va madaniy-etnik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan holda shu til vakillarining milliy va madaniyati, urf-odati va an'analariga muvofiqdir" [9; 4].

Tilshunos olima Sh.Maxmaraimova frazeologizmlarni tadqiq qilar ekan, idiomatik frazeologiya (idiomatika) to'g'risida so'z yuritadi. Bilamizki, idiomalar ko'chma ma'noda keladi. Olima idiomalarni badiiy adabiyotda obrazlilikni tashkil etuvchi asosiylar til vositalardan biri ekanligini, badiiy asar tarjimasida bunday iboralarning tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalenti yozilishini aytadi: "idiomalar badiiy adabiyotda obrazlilikni tashkil etuvchi asosiylar til vositalardan bo'lib, ular asarda kesatiq, qochiriq ma'nolarini ifodalaydilar. Badiiy asar tarjimasida bunday iboralar o'rniq tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalentlarni topib qo'yiladi. Boshqa tilda idiomaning mazmunini anglatuvchi ibora topilmasa, o'sha ibora aynan berilib, sahifa ostida uning ma'nosini tushuntiriladi yoki mazmun tarjima qilinadi" [4; 286].

Har qanday mahoratli yozuvchi o'z asarlarini xalq iboralari, matallari, maqollar bilan to'yintiradi. Ba'zan muallif nutqi orqali, ba'zan asar qahramonlari nutqida qo'llangan iboralar asarning badiiy quvvatini oshirishga va ta'sir kuchini ta'minlashga xizmat qiladi. Cho'lpon ham o'z asarlarining ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida iboralardan ustalik bilan foydalanadi.

Yozuvchi o'z asarlarida iboralardan vogelikni tasvirlashda, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantirishda foydalanadi. Tabiiyki, yozuvchi bunda to'g'ri kelgan, har qanday iboralarni o'z asariga olib kirmaydi, balki asar tilining emotsiyal-ekspressivligini oshiradigan, badiiy-estetik niyatiga xizmat qiladigan, asar qahramonining xatti-harakati va ruhiyatini ochib beradigan chinakam xalq iboralaridan saralab tanlab oladi.

Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda bir nechta iboralarni ketma-ketlikda qo'llaydi. Miryoqub, bir joyda bir nafas o'tirolmaydigan narsa, olti-yetti kundan beri mingboshining yonidan jilmaydi. Jahli chiqib to'nini teskari kiymoqchi bo'lgan mingboshini gap bilansovutadi va yo'lga soladi. (misolni qolgan qismini ham olish kerak. holat yaxshi ochilmagan) Ushbu matnda "to'nini teskari kiymoq", "gap bilansovutmoq", "yo'lga solmoq" iboralar mavjud. O'zbek tili frazeologik lug'atida "to'nini teskari kiymoq" va "yo'lga solmoq" iboralarini berilgan va quyidagicha izohlangan: "To'nini teskari kiymoq kim? [o'zining] o'chakishgan holda qaysarlik qilmoq. Yo'lga solmoq kim? 1 kimni? yoki nimani? ketish tomoniga to'g'rilaq jo'natmoq, yurg'izmoq. 2 kimni? to'g'ri yo'lga qaytarmoq. 3 kimni? manfaatdor bo'lgani holda biror ishga rag'batlantirmoq. 4 nimani? faoliyatini yaxshilamoq" [10; 517, 587]. Ammo "gap bilansovutmoq" iborasi lug'atda berilmagan. Ushbu ibora yozuvchining ijod mahsuli bo'lib "tinchlantirmoq" ma'nosini beradi. Ushbu iboralarning ketma-ket kelishi, matnning uslubiy bo'yoqdarligini oshirgan va lingvopoetik yuk olgan. Mingboshining jahli juda ham qattiq chiqqanligini, buning oqibatida birovga, hatto o'ziga ham biror zarar yetkazishi matndan anglashiladi.

Cho'lpon mos iboralarni tanlabgina qolmay, balki ularni asar qahramonining ruhiy holatiga moslab o'zgartiradi. Xalq iboralarining tuzilishini va mazmunini o'zgartiradi, ularga yangicha ma'no beradi. Bunday iboralar asarda go'zal tasvir yaratadi, asarning ta'sirchanligini oshiradi.

Frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilgan tilshunos B.Yo'ldoshev tomonidan badiiy asarlarda iboralarni o'zgargan shaklda ko'rsatib bergen. Cho'lpon xalq iboralarini quyidagi usullarda o'zgargan shaklda qo'llagan:

1. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish. "Frazema gap tarkibida boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishar ekan, ba'zan anqlik kiritishni, konkret shart-sharoitga moslashishni talab qiladi. Ana shunday hollarda ibora komponentlaridan biri boshqa so'z bilan almashtiriladi" [11; 130]. Bu usulda ibora tarkibidagi so'z boshqasi bilan almashtirilganda, uning ma'nosini yana kuchayishiga xizmat qiladi. Bunday iboralar lingvopoetik ma'no kasb etadi. Masalan: – Qo'y endi, kechqurunning maslahatini qilaylik. Bugun kechqurun kuyovni bir ish qilib suyganiga qovushtirmaslik bo'lmaydi. Juda alangasi osmonga chiqib ketdi! O'zi ham xunuk ish bo'ldi. ("Kecha va Kunduz"). Alangasi osmonga chiqib ketdi iborasi fig'oni falakka chiqdi iborasining o'zgargan varianti hisoblanadi. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati'da fig'oni

falakka chiqdi iborasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ruhan ortiq darajada bo'g'ilib, shovqin qilmoq" [10; 166]. Ushbu matnda fig'on so'zi alanga so'zi bilan, falak so'zi esa osmon so'zi bilan bilan almashtirilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida alanga so'zi quyidagicha izohlangan: "ALANGA 1 Yonib turgan o'tdan, olovdan ko'tarilayotgan yolqin" [12; 83]. Yozuvchining so'zlarni almashtirish orqali "kuyov"ning "jahli alangga bo'lib, butun bir osmonni tutib ketganligini", me'yordan ortiq darajada bo'rttirib ko'satishga xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bilan iboraning ma'nosi yanada kuchayishiga, tasvirlanayotgan holatni bo'rttirib ko'satishga erishilgan.

2. Ibora tarkibini kengaytirish. "Bunday holatda iboraning an'anaviy strukturasi kengayadi, iboraning o'zida esa semantik siljish yuz beradi, uning ekspressiv bo'yoqdorligi ortadi" [11; 133]. Iboraning leksik tarkibiga yangi so'z yoki so'z birikmasi kiritiladi. Xalqda yerga kirib ketmoq, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmaslik iboralari keng qo'llaniladi. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati"da yerga kirib ketmoq iborasi qo'yidagicha izohlangan: "Qattiq izza bo'lmoq, o'sal bo'lmoq" [10; 550]. Cho'lpon iboraga yangi so'z, ya'ni, yer so'zi oldidan yetti qat sifatlovchisini qo'shib iborani kengaytiradi va ketmoq fe'lining o'rnila uning inkor shakli – ketmaydi fe'lini qo'llaydi. Bu bilan ibora qo'shimcha konnotativ ma'no kasb etadi, ya'ni "izza bo'lish", "uyalish" ma'nosi orniga "bezbetlik", "sur" ma'nolari anglashiladi. Masalan: Uyalmaydi Miryoqub, xijolatidan yetti qat yer ostiga kirib ketmaydi... uni yer ham o'zining mahram qo'yniga olishdan tortinadi, chekinadi! ("Kecha va Kunduz").

3. Iboraning tarkibini qisqartirish. "Iboralar qisqaruvi dastlab nutq jarayonida boshlanadi va asta-sekinlik bilan tilda iboralarning to'la (yoyiq) va qisqargan variantlari paydo bo'la boshlaydi" [11; 142]. O'zbek tilida shovqini olamni buzadi, ovozi olamni buzadi iboralari xalqimiz tomonidan ko'p qo'llaniladi. Cho'lpon ushbu iborani qisqartirgan holda qo'llaydi: Biror choynak ortib qolsa,sovutib qo'yarmiz. Akam ba'zi vaqtida yaxna choy deb nax olamni buzub yuboradi. ("Nonushta"). Misoldan ko'rinish turibdiki, iboraning tarkibi qisqarishiga qaramasdan uning ma'nosiga putur yetmagan, o'z ma'nosini saqlab qolgan.

Xullas, Cho'lpon xalq og'zaki ijodi namunalarining katta bilimdoni sifatida iboralardan mohirlik bilan foydalangan. Bu bilan asarlarining badiiyligi, estetik ta'sirchanligi oshishiga erishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Маҳмудов Н. Иборалар ва уларнинг луғавий тавсифига чизгилар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2022. – № 3. – Б. 3-14.
2. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати ("Кеча ва Кундуз" роман мисолида): Фил. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.
3. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Фил. фан. номз ...дисс. – Тошкент, 2008.
4. Махмараимова Ш. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Фирдавс-шоҳ, 2021.
5. Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий услубий қўлланилиши: Фил. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2002.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
8. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Фил. фан. б-ча фалсафа док. ...дисс. (PhD). – Тошкент, 2017.
9. Исмоилов F. Фразеологик бирликларда сонларнинг ифодаланиши (Ўзбек, қозоқ ва қорақалпоқ тиллари мисолида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014.
10. Rahmatullayev Sh., Mahmaudov N., Xolmonova Z., va boshqalar. O'zbek tili frazeologik lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
11. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1999.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. Tahriri ostida. 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.

JURNALIST VA BLOGERLAR NUTQI ETIKASI

Sherali BAZAROV,

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

O'zbek tili va adabiyoti (tillar) kafedrası o'qituvchisi

Аннотация. В данной статье освещается культура и экспрессивные особенности речи журналистов и блогеров. Автор перечисляет негативные факторы, влияющие на эффективность речи и приводит рекомендации по совершенствованию речи.

Ключевые слова: речевая этика, культура речи, журналист, блогер, коммуникация, экспрессивность.

Ommaviy axborat vositalarining bugungi globallashuv jarayonida tutgan orni juda muhimdir. Xususan, televideniye, radio va internet tarmoqlaridan kuniga minglab axborot ma'lumotlar uzatiladi. Teleradiokanallarida va internet tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan direktor yoki boshlovchi journalistlarning nutqlari ravon, talaffuzlari aniq bo'lishi kerak. Jurnalistning nutq madaniyati, ovozi yangilikning qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Ovozning ta'sirchan kuchi va uning inson ruhiyatiga ta'sir etish imkoniyatlarini rad etib bo'lmaydi. Ovozning noto'g'ri qo'yilishi, tovushning past-balandligi axborotni yetkazishda to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, suxandonning adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ko'rsatuv olib borishi, davlat tilining boy imkoniyatlaridan mohirona foydalanish orqali ta'sirchanlikka erishishi, boshlovchi matn yozayotganda professional metodlarni qo'llashi kabi omillar journalist muvaffaqiyatini belgilab berishiga asoslangan.

M.Jumayev, D.Rahmonov [1], K.Adashboyeva [2] kabi tadqiqotchilarining maqolalarida teleboshlovchilarining nutq madaniyati, reportyor sifatida ishlash va axborot teleko'rsatuvining olib boruvchisi maqomiga erishish tadriji, telejournalistning ijodkorligi, mavzu va uslub tanlashdagi mahorati, ko'rsatuvlarni tayyorlashdagi ishtiroki haqida bir qancha fikrlarni keltirib o'tishgan. Rus olimlaridan E.P.Proxorov journalistlar kasbiy etikasiga quyidagicha ta'rif beradi:

"Jurnalist kasbiy etikasi – bu kasbiy ijodiy tashkilotlarning yuridik jihatdan mustahkamlanmagan, lekin jurnalistik muhitda qabul qilingan va jamoatchilik fikri kuchini qo'llab-quvvatlovchi axloqiy yozma buyruqlar – prinsiplar, me'yorlar va jurnalistning axloqiy fe'l-atvor qoidalari" [3; 302]. Shu o'rinda, har qanday jurnalist yoki bloger (OAV)ning asosiy faoliyati jamiyat vakillari bilan muloqot qilishdan iborat. Bizga ma'lumki, bu soha vakillari og'zaki yoki yozma nutqqa murojaat qilishadi.

H.Saidov teleradio yangiliklarining o'ziga xosligi va tildan foydalanish masalalari, A.Pardayev, F.Ro'ziyev, X.Mahamadaliyevlar [4; 24] esa teleradiokanallarida adabiy til me'yorlariga rioya etish, teleboshlovchilar nutqi kabi muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilishgan.

Yurtimizda ommaviy axborot vositalarini "to'rtinchchi hokimiyat" deb bilamiz. Jamiyatda bo'layotgan har bir o'zgarishlarni bilishimizda uning tutgan orni katta. Bu soha nafaqat mafkura yaratadigan, uni shakallantiradigan manzil, qurol sifatida, balki turli ijtimoiy-siyosiy qarashlarni jamiyatga tezkor va aniq yetkazadigan vosita sifatida qaraymiz. So'nggi yillarda jurnalistik va bloger nutqining individual xususiyatlarini o'rganish hamda tadqiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jamiyatda har kim o'z fikrini bemalol bildirishi, murojaat va e'tirozları, taklif hamda shikoyatlarını erkin ifoda etisha olyapti. Bu borada jurnalist, blogerlarga katta imkoniyatlar berildi. Bular internet, undagi ijtimoiy tarmoqlar, portallar, gazeta-jurnallar, tv va radio, xullas, axborot yetkazishning barcha vositasini, onlayn va oflays, an'anaviy va noan'anaviy instrumentlarni qamrab oldi. Shunga yarasha insonning so'z va axborot olish erkinligi, jurnalistik faoliyat erkinligi kafolatlari tubdan mustahkamlandi, bunday huquqlarga daxl yoki qarshilik qilganlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralar kuchaytirildi. Yurtimizda shaffof va tezkor axborot maydoni vujudga keldi. Turli axborot saytlari rivojlana boshladi, blogerlik harakati keng quloch yozdi. Bugun har kim va har bir tashkilot, xoh u matbuot sohasi bo'lsin, xoh boshqa soha o'z sayti, "Telegram"

kanali, "Facebook", "Youtube", "Instagram" kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifalarini yuritishi oddiy holga aylandi. Tabiiyki, bunday holatda axborot olish va yetkazish jabhasida ham raqobat keskin kuchayib ketdi.

Bugungi kunda jamiyatda auditoriya qamrovi bo'yicha, umuman, kontent reytinglarida nodavlat ommaviy axborot vositalari, xususan, internet saytlari, shuningdek, blogerlar yuritayotgan onlayn kanallar yetakchi o'rnlarda turadi [6]. Biz ularning bu yutuqlaridan faqat xursand bo'lamic. Shu orinda davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari o'rtasida sog'lom raqobat paydo bo'ldi.

Har qanday yo'nalishda faoliyat olib borayotgan jurnalist yoki bloger – so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari vakillariga jurnalistlar qatoriga blogerlar ham kiritilmoqda. Jurnalistning individual mahorati hamda nutqi aynan shu jihat orqali yaqqol ko'rindi. Keyingi vaqtarda shu soha vakillariga imkon qadar qo'shilayotgan blogerlardan ham jurnalistga xos bo'lgan me'yorlarga amal qilishni davr taqozo etmoqda. Tilshunosligimizda jurnalist nutqining o'ziga xosligi, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali faoliyat olib borayotgan blogerlar nutqi ham adabiy til me'yorlariga amal qilinishi kabi jihatlar bosh mavzu sifatida ko'tarilmoqda. Telejurnalist nutqini uslubiy jihatdan tahlil qilish, jurnalist va bloger tilning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, umuman tildan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali uning o'zbek tili rivojidagi o'rnini belgilashdan iboratdir. Ular nutqining uslubiyatini o'rganish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Jurnalistikaning o'zbek tilshunosligida o'rganilish holatini ilmiy-tanqidiy baholash;
- Jurnalist va blogerlar nutqining fonetik xususiyatlarini tahlil etish;
- Jurnalist va blogerlar nutqining lingvistik tamoyillarini o'rganish;
- Jurnalist va bloger nutqining morfemik xususiyatlarini tahlil qilish;
- Jurnalist va blogerlar nutqi grammatik-stilistik jihatdan tahlil qilish. Bundan tashqari sohada faoliyat olib borayotgan jurnalist va blogerlar gender tengligi ham muhimdir.

Bugungi tilimizdagagi eng noxush qusurlardan biri – so'z va iboralarni soxta liboslarga burkab, chirmab, go'yoki shu tilda chiroyli so'zlash uchun so'zlarning mazmuni va mohiyatiga yetmasdan talqin qilish holatlari ko'p uchramoqda. Teleradiokanallarda, ayniqsa, xususiy televideniye hamda radiokanallarda duch kelgan matnni alohida umumxalq tiliga xos bo'lgan so'zlar orqali jonli efir paytida foydalanish odad tusiga aylandi. Jumladan, "Qadringiz va qaddingiz doimo baland bo'lsin" degan oddiy va hamma uchun tushunarli jummalarni yosh boshlovchilar har kungi ko'rsatuvgan yoki eshittirishlarda foydalanib kelmoqda. Aslida ommoviy axborot vositalari vakillari efir paytida, albatta, adabiy til qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda til me'yorlariga amal qilishi lozim.

Imlo va talaffuzlarda ham juda jiddiy muammolar yuzaga keladi. "U" tovushi bilan "o" tovushini, bo'g'iz "h" tovushi va chuqur til orqa t "x" ovushini farqlolmaydiganlar "hayot" so'zini "xayot" so'zi deya bermalol aytishmoqda. Ba'zi jurnalistlarning ochiqdan-ochiq beboshligi, savodining g'o'rligi buning ustiga tinglovchi bilan chaq-chaqlashishi efir mas'uliyatini his etmasligiga toqat qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, nodavlat teleradiokanallargi ko'ngilochar ko'rsatuvtar, "shou" dasturlarda sheva va lahjaga xos bo'lgan so'zlardan foydalanishmoqda. Aslida, "Jurnalist" – o'z nutqi, tashqi ko'rinishi hamda dunyoqarashi bilan qolgan soha vakillaridan ajralib turishi lozim. Jumladan, hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan jurnalist: teleboshlovchi, suhandon yoki sport sharhlovchilariga – "O'zbekoston" telekanali "Assalom O'zbekiston" ko'rsatuvi suxandoni Rustamova Dildora, "Sevimli" telekanali "Yangi zamon" dasturi muxbir Olimov Jahongir, "Zo'r tv" telekanali "Bu kun" informatsion tahliliy dasturi muxbir Nosirova Iroda hamda "Sport" telekanali futbol sharhlovchilari Hamidov Xayrulla va Fayziyev Davronlarni namuna qilib ko'rsata olamiz.

Blogerlardan huquqiy maslahat va jamoatchilik uchun qonunlarimizda bo'layotgan muhim yangiliklarni yoritib boruvchi "Xushnudbek.uz" telegram kanali blogeri Xudoyerberdiyev Xushnudbek, tilshunos va jurnalist "Asanov formati" telegram kanali blogeri Asanov Eldar, sport sharhlovchisi, "Kun.uz" sayti muxbir hamda bloger Akmalov Boburlarni yuqorida nomi keltirilib o'tilganlar ro'yxatiga qo'shishimiz mumkin.

Aksincha, ba'zi jurnalist va blogerlarning xato va kamchiliklarini umumlashtirgan holda quyidagi fikrga kelamiz. Muloqot paytida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan xotolar:

I. TIL NAZARIYASI VA AMALIYOTI SHU'BASI

1. Teletomoshabinlarning talab-istiklarini e'tiborga olish zarur, avvalambor, odamlar uchun kerakli bo'lgan voqealarda qiziqish bildirish kerak. Shuning uchun har qanday axborotni uzatishda yoki fikrni bildirishda auditoriyaning manfaatlardan kelib chiqish zarur.

2. Auditoriyan bilmaslik axborot uzatishda yoki fikr bildirishda konkret auditoriyaning xususiyatlari talab-ehtiyojlari manfaatlari tayanish lozim;

3. Muloqot ikki yoqlama jarayon ekanligini hisobga olmaslik bu axborotni uzatish jarayonining o'zi - hali muloqot o'rnatiladi degani emas, auditoriya ham munosabat bildira boshlagandagina muloqot o'rnatiladi va samara beradi.

Jurnalist va blogerlar nutqining muhim fazilatlaridan biri – ifodalilik, ta'sirchanlikdir. Ifodali, ta'sirchan nutq tinglovchida qiziqish uyg'otadi, uning ongiga tez yetib boradi, uning e'tibori va qiziqishini qozonadi. Nutqning aloqaviy sifatlari-aniqligi, to'g'riliqi, mantiqiyligi, sofligi (tozaligi) – nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi [7; 84].

Jurnalist va bloger nutqi samarador bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Nutq auditoriyaga mos bo'lishi kerak;
2. Nutq aniq bo'lishi kerak;
3. Nutq ta'sirchan bo'lishi munosabat uygotishi lozim;
4. Nutq aniq maqsadga yo'naltirilishi kerak;

5. Nutq o'qilmaydi balki tinglanadi. Shu bois sof muloqot bilan bog'liq talablar vujudga keladiki, ularni hisobga olish zarur. Bizningcha, bugungi kun jurnalistlari hamda blogerlari o'zlarini ustiida ko'proq ishlashlari, o'zlariga yanada talabchan bo'lishlari kerakilgini taqozo etadi. Bloger auditoriya talab etadigan yangiliklarning, turi va mazmunini his qilishi kerak, aks holda u an'anaviy jurnalistika vakillari va boshqa blogerlar bilan raqobatga bardosh berolmaydi. Blogerlarga qo'yiladigan yana bir talab – turli rahbarlar va politexnologlarning bevosita yoki bilvosita buyurtmalarini bajarishdan bosh tortishdir. Blogerlik faoliyatini olib boradigan muallif nafaqat savodli, shu bilan birga u ham tashqi, ham ichki erkinlikka ega bo'lishi zarur. Blogerlarning bir qismi odatda muntazam yozadigan doimiy mualliflar bo'lmaydilar.

Bizning fikrimizcha, jurnalist va blogerlar vakillarining milliy madaniy leksikondan foydalanishiga turli xil auditoriyan hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak. Madaniy haqiqiylik va inklyuzivlik o'rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining tashkilotchilari, ya'ni jurnalist va blogerlar o'z faoliyatining ijtimoiy va ijodiyligi uchun tinimsiz kurash olib boradilar. Har bir jurnalist hamda bloger o'z faoliyatining ijtimoiy va ijodiyligi muammolarini hal etishi eng yuqori erkinlikdir. Shunday qilib, jurnalist va blogerlar har bir tayyorlagan material, ma'lumotni o'z auditoriyasiga yetkazib berishda nutq madaniyatiga e'tibor qaratishi lozim deb hisoblaymiz. Hozirgi kunda davlat va nodavlat teleradiokanalarda hamda ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat olib borayotgan muxbir, suxandon, teleboshlovchi, sharhlovchi hamda blogerlar adabiy til qonun-qoidalariga to'liq amal qilishi shart ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жумаев М., Раҳмонов Д. Телебошловчи: у қандай савияга эга бўлиши керак? // Олий журналистика курсларида ихтисослашув масалалари: II илмий-амалий семинар материаллари. – Т.: Faafur Fулом, 2013. – Б. 311–313.
2. Адашбоева К. Телебошловчи ва унинг кўрсатувлардаги ўрни // Олий журналистика курсларида ихтисослашув масалалари: II илмий-амалий семинар материаллари. – Т.: F.Fулом, 2013. – Б. 354–360.
3. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. – М.: 2002. – Б. 302.
4. Саидов Ҳ. Янгиликлар ёзиш ва таҳрир санъати. – Т.: Маърифат-мададкор, 2002.
5. Пардаев А., Рўзиев Ф., Махамадалиев Ҳ. Журналистика тил ва ифода. – Т.: Истиқол, 2006.
6. <https://kun.uz/uz/news/2019/08/30>.
7. Bazarov Sh. Jurnalist va blogerlar faoliyatida nutq madaniyatining o'rni va ahamiyati // Tamaddun nuri, 2023. – № 7.

RAMZ VA PRETSEDET NOM MUNOSABATI

Muxlisaxon SAYDALIYEVA,
*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
 folklori instituti kichik ilmiy xodimi*

Аннотация. Одной из проблем лингвокультурологии является вопрос о соотношении символов с прецедентными именами. В данной статье символ описывается как лингвокультурный концепт, также обсуждается его связь с эталоном. Также автор рассматривает вопрос о роли имён в системе символов.

Ключевые слова: лингвокультурология, символ, миф, образ, эталон, прецедентное имя.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida, ibtidoiy dunyoqarash shakllangan zamonlardayoq moddiy borliqdan tashqari ramzlar olamida ham yashagan. Shu jihatdan ramzlar inson tasavvuri va tafakkurining eng dastlabki hosilalaridan deyish xato bo'lmaydi. Sh.Turdimov ramz sifatida kelayotgan, anglanayotgan narsaning (u nima bo'lmasin) o'zida bir qancha tushunchalarni jamlab, turg'un assotsiatsiya (imuquq) uyg'otishini ramzning aosiy xossasi deb aytadi [5; 5]. Olimga ko'ra, turmush, fan, adabiyot va san'atdagi ramzlar vazifasiga ko'ra farqlanib, bir sohadagi ramzlar tizimi ikkinchi sohada bu xil vazifani bajarmasligi mumkin. Turmushdagи ramzlar tizimi kommunikativ vazifa bajarishga, fandagi ramzlar tushunchalarni bildirishga, san'at va adabiyotdagi ramzlar tizimi esa kechinma, vogelik va holatni badiiy-estetik anglatishga xizmat qiladi [5; 5]. Rus tilshunosi V.Maslova ramzlarning quyidagi xususiyatlarini ajratadi: obrazlilik, motivlashganlik, mazmun kompleksliligi, ko'p ma'nolilik, ramz mazmun chegarasi yoyilib ketishi (noaniqik), simvolning arxetipligi, alohida olingan madaniyatda ramzning universalligi, ularning boshqa madaniyatlardagi ramzlar bilan kesishuvi, ramzlar tizimining milliy-madaniy o'ziga xosligi, mif va arxetipda o'rashganlik [7; 76].

Ramz tadqiqi miflardan boshlanadi deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Miflar etnos dunyoqarashi va e'tiqodining qadimiylar bo'lislari bilan bir qatorda majoziylik asosida millat madaniyatining boshlang'ich nuqtasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Y.Stepanov ramzlar ilmiy emas, balki poetikaga daxldor tushuncha deb hisoblaydi. Olimga ko'ra, ramzlar faqatgina ma'lum poetik tizimlar doirasida qimmatli va ayni vaqtida faqat shu shu doiradagina haqiqiydir [9]. Turli xalqlarning madaniyat tizimida muhrlangan ramzlar o'zaro farqli tushunchalarni, dunyoqarashni, qadriyat va an'analar tizimini ifodalashi mumkin. Y.Lotman aytganidek, madaniyat, bir tarafdan, meros qoldirilgan matnlar bo'lsa, boshqa tarafdan, meros ramzlar tizimidir [9].

Ramzlar asosida obraz yotadi. Ramzlar obraz asosida yuzaga keladi, ya'ni har qanday ramz – obraz, biroq obrazni ramz sifatida qabul qilish uchun ma'lum cheklov va mezonlar mavjud. N.Fray she'riyatdagi obrazlarning "ramziyligi"ga quyidagi alomatlarni keltiradi: 1) kontekstda abstrakt ramziy ma'no anglashiladi; 2) obrazni to'g'ridan to'g'ri tavsiflash imkonsiz yoki yetarlicha emas; 3) obrazda mif, afsona, folklor bilan assotsiatsiya yashiringan bo'ladi [4; 76].

Tilshunos Sh.Usmanovaga ko'ra, "ramz – tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksi. Ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi" [1; 160]. Shuningdek, olima ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokazolar ramz bo'lib kelishi; ramzlar moddiy, tushunchaviy, so'zli, tasviriy va ovozli bo'lishi mumkinligini alohida ta'kidlaydi. Aslida ramz va etalonni bir hodisa sifatida qarash ko'p kuzatiladi. Lekin, bizningcha, bu ikki hodisaning umumiyligi nuqtalari bo'lgani holda, ayrim farqli jihatlari ham mavjud. Masalan, bo'ri totemi ramz sifatida turkiy xalqlarda jasurlik, bo'y sunmaslik ramzi sifatida kelsa, o'z navbatida bizning lingvojamiyatimiz uchun ochlik etaloni hamdir – bo'ridek och komparativ iborasi fikrimizni dalillaydi. Bir obyektga nisbatan turli madaniyatlarda turlichayta ramzlar tizimi shakllanishi ijtimoiy, maishiy, diniy, tabiiy omillar asosida shakllanganligini kuzatish mumkin. Masalan, aksar xalqlarda it kulti vafodorlik, do'stlik ramzi sanalsa-da (it so'zi haqoratni ham ifodalaydi, lekin ramz sifatida bizning madaniyatimizda vafodorlik ramzi sifatida qo'llanadi), beloruslarda

it kultiga salbiy munosabat kuchliroq ekanligi anglashiladi. Bu holat belorus frazeologik birliklar tizimida it bilan bog'liq birliklarning tahlilida yanada oydinlashadi. Beloruslar yomon odam yoki dangasa, landovur ma'nolarini ifodlashda it komponentli iboralarga murojaat qilishi ma'lum bo'ladi [8]. Tabiat hodisalariga munosabat ham aynan shunday: arab xalqlarida, ayniqsa, issiq iqlimli mamlakat xalqlari uchun yomg'ir baraka ramzi sanalsa, doimiy namlikda bo'lgan Yevropa xalqlarida yomg'ir tushkunlik, depressiv kayfiyat, yomon hodisalarning ramzi o'laroq namoyon bo'ladi.

Pretsedent nomlardagi ramziylik funksiyasiga Y.Karaulov tomonidan pretsedent matn muammosi tadqiq obyektiga aylanganda etibor qaratilgan. Olim qayd etishicha, "pretcedent matn ramzining lisoniy ifoda etish usuli boshqa qatlamaqda oid stereotiplarining ifoda etish usuli bilan muvofiq keladi: masalan, qanotli jummalarga aylangan sitata yoki faqat badiiy obrazni ifodalashgagina emas, balki adresatda tanlangan pretcedent matn bilan bog'liq boshqa turli konnotatsiyalarni faollashtiruvchi atoqli ot" [3; 102]. Onomastik birliklar vogelikdagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladilar, shu sababli ham atoqli otlar tilning eng qadimiy birliklaridan sanalib, ularga xos bo'lgan mifologik tabiat ramzlar tizimi bilan bevosita aloqador ekanligidan dalolat beradi. Badiiy onimlar tadqiqi bilan shug'ullangan Y.F.Kosichenko badiiy matndagi onimlarni tasnif qilar ekan, semiotik tahlilga ko'ra ularni indeksal, ikonik va simvolik turlarga ajratadi va simvolik (ramziy) onimlar pretcedent nomning aynan o'zi ekanligini qayd etadi. Badiiy matndagi onimlarning simvolik tipi yuqori informativlikka ega ekanligi, shuningdek, dunyoviy va madaniy qadriyatlar bilimiga yo'l ochadi, deb yozadi olima.

O'zbek tilshunosligida atoqli otlar, xususan, pretcedent nomlarning ramz sifatida kelishi bilan bog'liq ilmiy qarashlar D.Xudoyberganova va D.Andaniyazovalarning ishlarida kuzatiladi [6; 133]. D.Xudoyberganova ramziylik atoqli otning pretcedentlik xususiyatini yuzaga chiqaruvchi asosiy jihat ekanligini e'tirof etadi. D.Andaniyazova dissertatsiyasida Ka'ba, Makkatillo toponim va oykodomonimlari muqaddaslik ramzi, Tojmahal sevgi ramzi, Sahroyi Kabir toponimi "muayyan sharoitning yo'qligi", "taraqqiyotdan mahrumlik, hayotdan, rivojlanishdan orqada qolib ketganlik" holatining, shuningdek, Elsinor, Ichon qal'a, Dishon qal'a, To'polondaryo singari qator poetonimlarning ramziylik kasb etganini badiiy matndagi misollar orqali dalillaydi [2; 123-136].

Pretcedent nomning ramz sifatida kelishining yaqqol namunalardan yana biri Amerika Qo'shma Shtatlarining ramzi sifatida ozg'indan kelgan Sem amaki (inglizchada "Uncle Sam" abbreviaturaga aylantirilganda "Un[ited]" "S[tates]" of "Am[erica]" – Qo'shma Shtatlar bilan mutanosib keladi) tasviri ko'z oldimizda gavdalanadi [7]. Odatda, Sem amaki tasviri qirrador yuz tuzilishiga ega, cho'qqisoqol, Amerika bayrog'i elementlari mayjud bo'lgan silindr va ko'k frak kiygan oq tanli, ozg'in keksa yoshli kishi qiyofasida gavdalantiriladi. Bu obrazning ommalashishi 1812-yilda Britaniya-Amerika urushi bilan bog'lanadi. O'sha davrlarda Nyu-York harbiy bazasiga Sem Uilson ismli qassob front uchun bochkalarda go'sht topshirib boradi. Sem doim bochkalar ustiga "U.S" ishorasini yozib qo'ygan, harbiylar esa buni Sem amakidan deb hazil tariqasida gapirib yurganlar. Keyinchalik Nyu-York gazetalari vatanparvarlik ramzi sifatida Sem amakining suratini chop etadi va shu voqeadan so'ng Sem amaki Amerika timsoli sifatida keng ommalashadi. Yoki yana bir universal nom e'tiqodi boshqa bo'lgan g'arb xalqlari vakillarining dunyoqarashi, e'tiqodi va qadriyatları asosida ommalashgan Santa Klaus diniy Rojdestvo bayrami va keyinchalik uning ta'sir ko'lami va ichimlik markasining keng targ'iboti natijasida Yangi yil ramziga aylanishini ham keltirishimiz mumkin.

Atoqli otning stereotip, etalon va ramzlar tizimidan joy egallashi aynan shu nomning pretcedentga aylanganini ko'rsatadi. Pretcedentlik lingvomadaniy jamiyat vakillari lisoniy xotirasidan mustahkam o'rin egallaganlik va diskursda qayta-qayta jonlanish xususiyati bilan ham namoyon bo'ladi. Biroq pretcedent nomning etalonga aylanishi yoki ramz sifatida namoyon bo'lishini aynan bir narsa deb bo'lmaydi. Aslida har ikki holatni chalkashtirish ko'p uchraydi. Ramzda majoziylik kuchli bo'lishi, uning sifat yoki xususiyat bilan bevosita aloqasi bo'lmasligi mumkin. Biroq etalon tanlangan xususiyatning markazida turuvchi unsur sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, Humo qushining tinchlik yoki davlat, hokimiyat ramzi ekanligida reallikdan uzoqlik kuzatilib, majoziylik unsuri yetakchilik qiladi, biroq Hotamtoyning saxiylik etaloni bo'lib belgilanishi shu nom (obraz) atrofida asosiy va eng yetakchi jihat – saxiylik shu personajga xos ekanligini ko'rish mumkin. Anglashiladiki, etalonda reallikka yaqinlik, xususiyatning sohibi ekanlik jihatni yetakchilik qilsa, ramzlarda badiiy tasavvur va obrazlilik ustuvorligi kuzatiladi. Nomning mashhurligi u bilan bog'liq stereotip qarashlarni shakllantiradi va bu nom atrofida o'ziga xos stereotipik bilimlar tizimi yuzaga

kelishiga olib keladi. Bir pretsedent nomga nisbatan turli lingvomadaniy jamiyatlarda turlicha stereotiplar shakllanganligini ko'rish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik: darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022.
2. Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2017.
3. Гудков Д.Б. Прецедентное имя и проблемы прецедентности. – М.: Ленанд, 2020.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2001.
5. Турдимов Ш. Халқ қўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020.
6. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2017.
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BC_%D0%A1%D0%A5%D0%9D](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%94%D0%B4%D0%B4%D0%B5%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BC_%D0%A1%D0%A5%D0%9D)
8. https://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Linguist/maslova/02.php
9. <https://www.textologia.ru/yazikoznanie/lingvokulturologiya/lingvokulturnyj-analiz/simvol-kak-stereotipizirovannoe-yavlenie-kulturi-chast-2/1928/?q=641&n=1928>

SHAVKAT RAHMON SHE'RLARIDA ALLITERATSIYANING IFODALANISHI

**Jamila YUNUSOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti doktoranti**

Аннотация. В данной статье на основе лингвопоэтических анализов рассмотрено явление аллитерации в поэзии Шавката Рахмона, демонстрирующая богатые лингвистические возможности узбекского языка.

Ключевые слова: аллитерация, гласные звуки, художественный текст, поэтическая реализация, лингвопоэтика, художественный замысел.

Fonetik sath nutq tovushlarini o'rganadi, tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Badiiy adabiyotda ko'proq lirik asarlarda tovushlar, urg'u va ohang hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim poetik vositadir. She'riy matnda fonetik birliklaning aktuallashuvi turli holatlarda voqeylanadi. Ijodkor o'zi yaratayotgan asarga o'quvchi diqqatini tortish, uni hayajonga solish yoxud hissiy ta'sir qilish uchun tafakkurida paydo bolgan g'oyalari, tasavvurlarni nutqiy jarayonda rang-barang, jilolangan, she'riy intonatsiya, ritmlarni o'zining strukturasiga qamrab olgan, talaffuzi va aytilishida ohangdoshlik, qofiyadoshlik kabi hodisalarни singdirgan tovush va tovushlar birikmasi orqali ham ifodalaydi. Natijada badiiy matnda ayrim tovushlar qavatlanadi, tushib qoladi yoki ketma-ket takrorlanib ohangdoshlik hosil qiladi, shunday usullar bilan fonetik ekspressivlik ta'minlanadi.

Fonetik ekspressivlik tovushlar takroridan hosil bo'lgan ohanglarda yaqqol ko'rindi. Tovushlar takroridan yaralgan badiiy ohanglar xalq qo'shiqlari, masallari, tez aytishlari va mumtoz adabiyotimiz namunalari orgali bizga ma'lum. Ularda takrorlar asosiyl tasviriy vosita bo'lib kelgan. "Takrorlar she'riyatning ohangdoshlik va xushohanglik xususiyatlarini kuchaytirish orqali musiqiylikni maksimal darajada ta'minlaydi. Shu bilan birga ular fikr va ma'nuning turli qirra darajalarini anglatadi" [1; 386]. S.Karimovning "Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari" kitobida takroning o'ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora kabi turlarining mavjudligi" [2; 44] haqida ma'lumot berilgan.

Alliteratsiya badiiy matnda tovushlarning poetik aktuallashuvida muhim vosita hisoblanadi. Alliteratsiya fonopoetik vosita sifatida she'riy matn intonatsion butunligi shakllanashida faol ishtirok etadi va ohangdorlikni kuchaytiradi. Tilshunos olim M.Yo'ldoshev alliteratsiya haqidagi "... badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta'sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda o'rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim" ekanligini ta'kidlaydi [5; 165]. Alliteratsiyaning she'riyatdagi o'rni o'zbek tilshunosligida bir necha tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Jumladan, A.Shofqorovning "Mirtemir she'riyatida takroning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining "Mirtemir she'riyatida fonetik takrorlar" nomli I bobida hamda S.Umirovning "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining "Poetik matnda takror usulini q'llashning prosodik va kompozitsion tamoyillari" nomli II bobida fikr bildirilgan. Shuningdek, J.Yuldashevning "Usmon Nosir lingvopoetikasi" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) tadqiqotining III bobi, birinchi faslida alliteratsiya Usmon Nosir she'rлari misolida chuqur o'rganilgan.

Cho'ng shoir Shavkat Rahmon ijodida ham alliteratsiya matn mazmuniga mos shakily turli poetik ma'no aks ettirgan go'zal namunalarni kuzatamiz.

*Tog' xo'rsinib yubordi og'ir –
 vodiylarga yugurdi shamol,
 yuzlarini yashirdi hilol.
 Tog' xo'rsinib yubordi og'ir,
 Teran xobdan uyg'ondi yurak,
 tog'lar kabi xo'rsinmoq kerak.* ("Tog' xo'rsinib yubordi og'ir")

Vertikal alliteratsiyaning ajoyib namunasi bo'lgan ushbu parchada shoir o'quvchining nafaqat e'tiborini jalb qilishni, balki asar mazmunini tovushlar uyg'unligi orqali ham ifodalamoqchi bo'lganini ko'ramiz. Ya'ni Shavkat Rahmonning ushbu she'ri Vataninimiz hali mustaqillikka erishmagan paytda yozilgan bo'lib, unda xalq yuragida yillar davomida yetilib kelayotgan erk sog'inchini yanada yorqinroq, kuchliroq aks ettirish, kurashish payti kelganligi haqida yashirin da'vati aks etgan. Shoir ijodida uning badiiy niyatini to'liq gavdalantiruvchi bir necha poetik obrazlar bor. Ulardan biri "tog" obrazidir. Bu haqda adabiyotshunos olima R.Mullaxo'jayeva "She'rda tog' obrazi sabr-toqatni kuch-qudratga aylantirgan bardoshning poetik ifodasi", deya ta'riflaydi [3; 117]. She'rda tog' ho'rsinishi – bardoshning sinishiga mengzanadi. Shuning uchun ham shoir "tog'lar kabi ho'rsinmoq kerak" kerakligini ta'kidlaydi. "T" undoshi hosil bo'lish o'rni va usuliga ko'ra til oldi, portlovchi undosh. "She'rda shoir badiiy niyatini "t" tovushining takrori orqali beradi hamda o'quvchida kuchli emotsiyonallikni qo'zg'atadi

Nutqning fonetik "qiyoфasi"ni yaratishda alliteratsiya muhim vositalaridan biri sanaladi. Masalan.

*Kelar qora rido kiygan tun,
 sukunatning qushlarin suyar,
 suronlardan horgan shaharni
 silab-siypab uxlatib qo'yar.* ("Safsarlashar oqshomgi osmon")

Alliteratsiya asosida aloqalanib poetik yuk olgan ushbu parchadagi sukunatning, suyar, suronlardan, silab-siypab leksemalari tarkibidagi "s" tovushi tunning tasviriy ifodasi sokinlikni ifodalab, muhim poetik vazifa bajargan. Shoirning mahorati tunning mohiyatini tovushlar zamiriga joylay organida va matnning mazmun va shakl uyg'unligiga erisha organida yaqqol seziladi, go'yoki ss jim tun deyayotganday o'quvchi ongida tasavvur uyg'otadi.

Ijodkor voqeа-hodisalarining nazarda tutilgan muhim tomoniga o'quvchi diqqatini tortish, uni bo'rttirib tasvirlash niyatida ham she'riy asarlarda ayrim tovushlarni takrorlaydi. Masalan, quyidagi she'rda erksiz xalq ruhiyati lirik qahramon ruhiyati misolida aks ettirilgan.

*Asov ko'ngil ...
 ergashar andom,
 qadim yo'ldan qayga yetaklar.
 Qorong'ilik quyular qandoq,
 qandoq titrar edi chechaklar.
 O'sib borar qop - qora besha,*

*sovib borar yo'llar tuprog'i.
 Ko'ngil tashna
 Qondiray desam,
 qaynab turar g'amlar bulog'i. ("Qumaru")*

Lirik qahramonning o'zlikni anglashga bo'lgan harakatsizlikka qarshi ruhiy isyonini tasviri ifodalanishida "q" undoshi kuchli poetik aktuallashgan, gorizontal va vertikal alliteratsiyadan foydalanilgan.

Umuman, Shavkat Rahmon o'z she'rlarida nafaqat matn mazmuniga, balki uning shakilya va tovush qobig'iga ham e'tiborli bo'lib mos tovushlarni badiiy maqsad ifodasi uchun saralay bilgan, mazmun va shakl uyg'unligiga erishgan. Bu favqulodda holat bo'lib, she'rning o'ziga ohangini hosil qilgan. Shuningdek alliteratsiyadan unumli foydalaniib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga poetik vazifa yuklay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиёт назарияси. Адабий асар. 1-жилд. Тошкент: Фан, 1978.
2. Каримов С. Бадиий услугуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994.
3. Муллахўжаева Р. Тафаккур янгиланиши. – Тошкент: Мұҳаррир, 2019.
- 4 Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ТЕМ ДЛЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Мухаббат КАСИМОВА,
преподаватель русского языка
кафедры Узбекского языка и литературы
Ташкентского государственного аграрного университета

Annotatsiya. Maqolada rus tilini chet tili sifatida o'qitishning an'anaviy va innovatsion usullari taqqoslash orqali ko'rib chiqilgan, shuningdek, rus tili darslarida lug'atni o'rgatishning kognitiv modelini yaratish imkoniyatlari tahsil qilingan.

Kalit so'zlar: integrativ yondashuv, usul, rus tilini o'qitishning an'anaviy va innovatsion yondashuvlari, lug'at o'qitishning kognitiv modeli.

Разработка лексических знаний и навыков, пронизывающих все уровни языковой системы, считается ключевым фактором успешного освоения иностранного языка. Словарный запас, в своей иерархической структуре, формирует цельное представление о мире, отражая взаимосвязь между человеком, культурой и обществом в рамках национальной специфики как части общемировой системы ценностей.

Мы предлагаем новый методический подход к решению указанной проблемы, который заключается в разработке комплексной инновационной модели обучения лексике на занятиях по русскому языку как иностранному в традиционных университетах по гуманитарным специальностям. Наша цель, озвученная в научном исследовании на тему "Улучшение системы и инновационные подходы к преподаванию лексики при обучении русскому языку как иностранному", успешно достигается. Этот проект был реализован в рамках научного направления, связанного с лингвокультурологическим описанием различных уровней языковых единиц и методологическими принципами преподавания языков, под руководством доктора филологических наук, профессора

Р.К. Боженковой. Это исследование можно связать с другими работами, выполненными в рамках этого научного направления, такими как "Понимание текста как лингвокультурологическая категория" Р.К. Боженковой (2020), "Логико-синтаксические механизмы кодирования возможных культурных смыслов в тексте" Н.А. Боженковой (2015), "Формирование личности в процессе обучения русскому языку: теория и опыт практической работы" Н.П. Шульгиной (2017), "Понимание текста в контексте лингвокультурологии" Р.К. Боженковой (2015) и др.

В то же время, в условиях глобальной трансформации системы высшего образования происходит изменение содержания и структуры общепризнанной методологии преподавания русского языка как иностранного и его составляющих. Происходят потяжкие изменения в структуре и содержании концепции «язык - культура - личность», а также появляются новые методы обучения русскому языку и его носителям. В данном случае речь идет о том, чтобы использовать уже накопленный педагогический опыт для комплексного усвоения студентами иностранного языка в тесной взаимосвязи с их интеллектуальным становлением и потребностями.

Этим требованиям в современной методике преподавания РКИ всецело отвечают личностно, коммуникативно и профессионально ориентированный подходы.

Возникновение коммуникативно-ориентированного (коммуникативного) подхода было ознаменовано стремлением методистов представить язык именно как средство общения. В этом подходе реализуются важнейшие требования к современному учебному процессу: коммуникативное поведение преподавателя и иностранного студента на занятии, а также использование заданий, моделирующих реальные ситуации общения [3; 192].

Главным критерием отбора лексического материала в рамках рассматриваемого подхода служит принцип функциональности, предполагающий организацию лексики по определенной тематике на основе частотности употребления слов для данной ситуации общения, а также выбор основных сфер коммуникации и постановка проблем для коллективного обсуждения [4].

В центре личностно-ориентированного подхода находится личность иностранного студента, и главной целью обучения языку становится его всестороннее воспитание и комплексное и непрерывное образование. Преподавание РКИ в рамках данного подхода включает в себя не только овладение разными видами речевой деятельности, но и овладение знаниями, которые обеспечивают более высокое качество коммуникации [5].

Вместе с тем профессиональную компетенцию иностранных студентов определяет, с одной стороны, объем специально- научных знаний, а с другой - уровень владения иностранным языком [2]. Именно поэтому целью профессионально ориентированного подхода к обучению РКИ является развитие способности решать в процессе общения средствами изучаемого языка (в том числе и лексическими) не только общекультурные, но и профессиональные задачи, связанные с формированием таких знаний и навыков, которые помогут будущим специалистам адаптироваться к новым условиям, преодолеть коммуникативный барьер в рамках профессионально-делового общения, а также повысят их конкурентоспособность на рынке труда [2].

Поставив целью работы обоснование выбора и разработки инновационных подходов к преподаванию лексики русского языка, мы считаем, что в полной мере можем опираться на описанные выше современные подходы, предположив, что важным и плодотворным для реализации целей нашего исследования будет создание когнитивной модели обучения лексике в курсе РКИ, на развитие у иностранных студентов способности осуществлять все виды речевой деятельности (говорение, письмо, аудирование и чтение) на основе сформированных лексических навыков, а также знакомить их со стратегиями речепонимания и речевоспроизведения. Кроме того, результаты проведенного анализа психолого-педагогической и методической литературы позволили в качестве основополагающих считать следующие составляющие:

- 1) коммуникативная направленность процесса обучения;
- 2) взаимосвязанное обучение всем видам речевой деятельности (говорение, чтение, аудирование, письмо);
- 3) учет профессиональных интересов иностранных студентов;
- 4) усвоение лексики, отражающей национально-культурные особенности страны изучаемого языка;

5) активизация когнитивной деятельности иностранных студентов и учет их интеллектуально-познавательных способностей.

В систему лексических знаний и навыков мы включаем следующие компоненты: понимание семантики лексических единиц и правильный выбор значения многозначного слова в определенном контексте или ситуации общения, комбинирование единиц между собой на основе правил лексической и грамматической сочетаемости и распознавание в речи границ каждого отдельно взятого слова, а также использование знакомых лексем в процессе осуществления разных видов речевой деятельности.

Структура занятий:

Компонент структуры занятия	Характеристика компонента
1. Введение в языковую среду	<ul style="list-style-type: none"> Формулировка темы и основной цели занятия. Подготовка иностранных студентов к активной учебно-познавательной деятельности
2. Актуализация известной лексики	Выполнение заданий, направленных на реализацию лексики, изученной на предыдущих занятиях, в речи
Компонент структуры занятия	Характеристика компонента
3.Предъявление новой лексики	<ul style="list-style-type: none"> Работа со словарем, включающая в себя основную(тематическую) и вспомогательную (учебную) лексику. Семантизация лексем. Чтение и запись новых слов
4. Тренировка введенной лексики	Тренировка новой лексики путем выполнения языковых упражнений
5.Закрепление лексикона основе учебных текстов	<ul style="list-style-type: none"> Анализ функционирования лексических единиц в их естественном окружении; Обобщение и систематизация лексического материала, развитие речевых умений на основе текстовых упражнений
6. Активизация новой лексики в речи	<ul style="list-style-type: none"> Выполнение творческих заданий коммуникативного характера на продуцирование нового текста с введенной лексикой
7. Подведение итогов занятия	<ul style="list-style-type: none"> Концентрация внимания иностранных студентов на материале, изученном на занятии. Ориентация на задачи следующего урока

Результатом создания когнитивной модели обучения лексике русского языка стало схематичное представление структуры урока с описанием его основных компонентов, представляющих собой последовательно сменяющиеся стадии изучения новых слов. Следующим этапом должна стать работа, связанная с определением особенностей организации занятий и их непосредственной разработкой в рамках представленной модели обучения лексике.

Список использованной литературы:

- Боженкова Р.К., Боженкова Н.А. Язык – культура – личность как методологический концепт обучения РКИ в условиях глобализации системы высшего образования // Известия Юго-Западного государственного университета. Серия: Лингвистика и педагогика. – 2012. – №1. – С. 30-36.
- Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного: учеб. пособие для вузов. – М.: Высш. шк., 2013. – 334 с.
- Антонова И.А., Христиансен И.А. О методических принципах создания профессионально ориентированного пособия по русскому языку для иностранных учащихся // Язык, сознание, коммуникация: сб. ст. / отв. ред. В.В. Красных, А.И. Изотов. – М.: МАКС Пресс, 2013. – Вып. 25. – С. 189-196.
- Галиаскарова Н.Г. Функционально-коммуникативный подход в формировании лексических навыков при изучении иностранных языков [Электронный ресурс] // Гуманитарные научные исследования. – 2013. – № 12. URL: <http://human.snauka.ru/2013/12/5364>.

4. Лазарева О.А. Лексическое знание в процессе обучения иностранных студентов русской лексике: структура и форма репрезентации // Вестник МГГУ им. М.А. Шолохова. Филологические науки. – 2012. – №1.
5. Отабоева М. Р. Использование современных инновационных технологий в обучении иностранному языку и его эффективность // Молодой ученый, 2017. – № 4.2 (138.2). – С. 36–37.
6. Джонсон К. Э. Социокультурный поворот и его проблемы для подготовки учителей второго языка // TESOL Quarterly. – Лондон, 2016.
7. Хармер Дж. Практика преподавания русского языка. – Лондон, 2011.

SOTSOLEKT VA JARGON

Mirzoxid TURSUNOV,
*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti kichik ilmiy xodimi*

Аннотация. В статье приведены сведения о социолекте и разновидности социолекта – жаргоне, являющимися объектами изучения социолингвистики, рассмотрены професионализмы, функции и значение социолектов.

Ключевые слова: социолингвистика, социолект, региональный диалект, жаргон, общий жаргон, военный жаргон, професионализм.

Har bir tilning adabiy tilga mansub bo'limgan, biroq xalqning katta qismi uchun asosiy muloqot vositasi hisoblangan so'zlari mayjud. Bu so'zlar kundalik hayotda ko'p ishlatalgani bois tilshunoslikda ulardan voz kechib bo'lmaydi. Muloqot uchun qulay hisoblangan bu birliklar tilshunoslikda sotssolekt deb yuritiladi. "Sotssolekt" atamasi tilshunoslikda nisbatan yaqinda – XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. U ikki qismidan: jamiyatga munosabatni ko'rsatadigan ijtimoiy qismdan va "dialekt" so'zining ikkinchi tarkibiy qismidan hosil bo'lgan; bu mohiyatan "ijtimoiy dialekt" iborasining bir so'zli birikmasidir.

V.M.Jirmunskiy jamiyatdagi mavjud tilning hududiy dialektlarga bo'linishidan tashqari, o'z navbatida, sotsial dialektlarga bo'linishini ta'kidlab shunday yozadi: "Har qanday tilda hududiy dialektlogiya mavjud ekan, unda sotsial dialektlogiya ham bo'lishi kerak" [4; 61].

Sotssolekt – muayyan jamiyatda ijtimoiy kelib chiqishi, kasbiy mansubligi, qiziqishlari umumiy, yosh jihatidan yaqin bo'lgan kishilar yoki shunday sotsial belgilariga ko'ra birlashgan guruuhlar qo'llaydigan tilning yashash shakllaridan biri. Sotssolektlar adabiy tildan asosan leksik, qisman grammatik jihatdan farqlanadi. Masalan, shifokor nutqi bilan harbiyning nutqi leksikasi va ifoda tarziga ko'ra farq qiladi. Shifokor nutqida og'ir-vazminlik, harbiy nutqida tezlik, keskinlik ustuvor bo'ladi [2; 77].

Chez tilshunoslari tomonidan sotssolektlar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan va ular quyidagicha tasniflangan:

1. Tilshunos Y. Filipes sotssolektlarni uch guruha ajratgan: a) professionalizm; b) sleng; c) jargon;
2. J. Xloupek nazariyasiga ko'ra: a) professional nutq; b) sleng; c) argo;
3. L. Klimeshning qarashlariga ko'ra ijtimoiy nutq birinchi navbatda a) jargon
b) jinoyatchilarning argosiga bo'linadi [5; 14]. Tilshunos Y. Filipes tomonidan keltirilgan tasnif zamonaviy tilshunoslikdagi sotssolektlar tasnifi bilan deyarli o'xshashdir. Lekin Filipes tadqiqoti davomida argoni sotssolektning alohida turi sifatida tasniflamagan, u argoni jargoning bir turi sifatida keltirib o'tgan. Klimeshning qarashlari esa zamonaviy tilshunoslikdagi sotssolektlar tasnifiga mos emas.

Angliya-Amerika tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham sotssolektlarni ifodalash uchun odatda uchta termin ishlataladi. Bular: argo, jargon, sleng. Biz sotssolektlar yuzasidan o'tkazgan tadqiqotimiz natijasida esa sotssolektlarni 4 ta turga: jargon, argo, sleng va professionalizmlarga ajratdik.

Jargon [fr. jargon – safsata] – kasb-kor asosida birlashgan ijtimoiy va professional guruhlarga xos, faqat a'zolari tushunadigan va adabiy tildan biroz farq qiluvchi til; bu guruhlar ishlatadigan so'zlar ma'nosi ko'p ham yashirin emas, oddiy nutqdan to'liq ajralmagandir [3; 426].

O'zbek tilining izohli lug'atida jargon quydagicha izohlanadi: "Jargon [fr. argone – ma'lum bir guruhga oid so'z] biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqatgina ularning o'zları tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so'z va iboralar jargonlardir" [8; 423]. Jargonlarning yaratilish yo'llari ham ko'pincha tilning so'z yasash sistemasiga to'g'ri kelmaydi. Ular o'ziga xos sun'iy, shartli so'zlardir.

Uslubiyatga oid manbada jargon quydagicha ta'riflangan: "yuqori tabaqa" kishilar nutqiga xos bo'lib, tor doirada qo'llanadigan "sinfiy dialektlar", ular ommaga tushunarsiz va umumxalq tiliga yotdir" [1; 69]. Shuningdek, o'quv adabiyotlardan birida uning shunday ta'rifi keltiriladi: biron-bir ijtimoiy guruh vakillarining boshqalar nutqidan ajralib turish maqsadida qo'llaydigan, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari. Masalan oq (aroq), qizil (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; strelka (uchrashuv) yoshlarning nutqida; ko'k, ko'kat (ADSh dollari), dodasi (biror narsaning zo'ri) – ko'proq bozorchilarning nutqida qo'llaniladi [6; 22].

Jargon tushunchasining yuqorida keltirilgan ta'riflaridan eng so'nggisi, nazarimizda, jargon termini uchun eng maqbul izoh. Sababi hozirgi kunda turli ijtimoiy guruhlar qo'llayotgan jargonlar, asosan, nutqqa ekspressiv bo'yoq, zamonaviylik tusini berish, so'zga o'zgacha ma'no yuklash, boshqalardan ajralib turish kabilar uchun xizmat qilmoqda.

Jargonlar kasbiy nuqtayi nazardan ham guruhlanishi mumkin. Kasbiy jargonlarning professional so'zlardan farqli jihat – ular faqatgina shu soha vakillarigagina tushunarli bo'ladi. Professional terminlar barcha uchun tushunarli, lug'atlardan o'rın egallaganligi bilan jargondan farq qiladi. Jargonlar o'zbek tilidagi lug'atlarga deyarli kiritilmagan. Ular asosan jonli nutqda "yashaydi".

A.Spirs o'z tadqiqotlarida jargonning barcha xususiyatlarini keltirib o'tadi:

1. Adabiy tilda nomi bo'lgan narsa va hodisalarining boshqacha, juda tor guruhdagi atamasidir.
2. Ekspressiv-uslubiy bo'yoqqa ega.
3. Aksariyat jargonlar muvaqqat bo'lib, vaqt o'tishi bilan unutiladi yoki adabiy tilga o'zlashadi.

Zamonaviy tilshunoslikda jargonning bir nechta turi mavjud bo'lib, ular:

Akademik jargon – ma'lum bir soha yoki kasb-kor egalari tomonidan qo'llanadigan va yuqori darajada ixtisoslashgan terminlar. Bu turga mansub so'zlar odatda nomutaxassis kishilarga tushunarsiz bo'ladi, sohaviy tushunchalarni aniq yetkazish uchun ishlatiladi. Shu ma'noda korporativ jargonlardan farqlanadi.

Biznes jargoni ishbilarmon va biznes vakillari nutqida adabiy tildagidan farqli ma'nolarda qo'llanadigan til birliklari bo'lib, so'z, ibora yoki qisqartma shaklida mavjud bo'ladi.

Harbiy jargon harbiy xizmatchilar nutqiga xos, shu soha vakillari faoliyatida amal qiladigan harbiylashgan tushunchalarni anglatadigan so'z va iboralar. Harbiy jargonlarda qisqartmalar ko'p uchraydi.

Huquqiy jargon huquqni muhofaza qilish, jamoat xavfsizligini saqlash, sud-tergov faoliyati kabi sohalarga oid tushunchalarning adabiy tildagidan farqli nomlaridan iborat. Masalan, ichki ishlar organlari xodimlari nutqida operatsiya so'zi "kimnidir jinoyat ustida ushslash, jinoyatchilikning oldini olish maqsadida uyuştirilgan maxsus tadbir"ni bildiradi.

Professional jargon kasbi yoki faoliyatiga ko'ra muayyan guruhga uyushgan kishilar nutqida maxsuslashgan ma'noda qo'llanadigan so'z va iboralar. Professional jargonlar umumadabiy sinonimlardan hissiy to'yinganligi, usluban keskinligi bilan ajralib turadi. Masalan, kompyuter ustalari nutqida mashina jargoni kompyuter so'zi ornida ishlatiladi. Professional jargonlar ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalamasligi bilan fan terminlaridan farqlanadi.

Sanoat jargoni qo'llanish doirasasi va ma'no jihatidan texnik terminologiyaga yaqin turadigan, ammo sanoat ishlab chiqarishining maxsus sohasi nutqini xarakterlovchi so'z hamda iboralar.

Talabalar jargoni talabalar nutqida alohida ma'no yuki bilan qo'llanadigan so'z va iboralar. Masalan, dum so'zi talabalar nutqida "baho olinmagan fan"ni ifodalaydigan jargon so'zdir.

Tibbiy jargon sog'lioni saqlash sohasi mutaxassislari tomonidan o'zaro muloqotda keng ishlatiladigan, asosan, aloqani qisqartirish va yengillashtirish uchun ishlatiladigan maxsus so'z va iboralar. Bunday so'z va iboralar bemorlarga tushunarli bo'lmaydi.

Ters jargon muayyan so'zdagi bo'g'lnarning o'rnnini almashtirish yoki so'zga qo'shimcha bo'g'in qo'shish yoxud unlilarni ikkilantirish bilan hosil qilingan yoshlarga xos so'z va iboralar. Ters jargonlar muayyan

axborotni maxfiylashtirish yoki so'z o'yini qilish maqsadida yasaladi. Masalan, ingliz tilida cafe so'zidan hosil qilingan feca, metro so'zidan yasalgan trome ters jargon hisoblanadi [2; 24].

Jargon muayyan ijtimoiy muhitda yuzaga keladi va shu ijtimoiy muhit doirasidagi shaxslarning manfaati uchun xizmat qiladi. Jargonlarni kuchli rivojlangan va aniq terminlarga ega biror kasb tili bilan aralashtirmaslik maqsadga muvofiqdir. Q. Rasulov o'zining "Sotsiolekt va nutq" nomli maqolasida jargon sotsiumning o'z nutqi bilan boshqalardan ajralib turish maqsadida o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari sanalib, professionalizmlarni ham o'zida mujassamlashtirishini aytib o'tgan edi. Chunki, professionalizm biror kasb-hunar egalari nutqiga xos so'z yoki ibora sifatida, sotsiolekt tarkibida bevosita jargon yoki, aksincha, jargon professionalizm bo'lib kelishi mumkin: avtomobilarga texnik xizmat ko'sratuvchi usta nutqida kaltak yegan – urilgan (avtomashina), motor pishgan – yaroqsiz (avtomashina dvigatelining ta'mirga muhtojligi) xodovoy ketgan (harakatlantiruvchi qismlari yaroqsiz holga kelgan); sotuvchilar nutqida bozor o'ldi, bozor kasod (savdo bo'lindi), tushib berish (narxni pasaytirish); o'qituvchilar nutqida doskaga chiq(ing) (doska oldiga kelish), qo'l ko'tarib gapir(ing) (ruxsat berilgach gapirish) kabi [4; 64]. Biz tadqiqotimiz davomida professionalizmlarning shu jihatiga e'tibor berib, uni sotsiolektlar tarkibiga kiritdik.

Jargonizmlar adabiy tilda ishlatilmaydi. Ulardan jonli so'zlashuv nutqida yoki badiiy asar tilida uslubiy maqsadlardagina foydalanish mumkin.

*Xohi pivo, xohi vino, xohi konyak, xohi oq,
No'sh etib, uyga kelurman, yerda turmaydur oyoq. (Habibiy)*

*Bir mакtabda gap mish-mish,
Turg'unning dumi bormish.
Xo'sh, bu ajab, qanday dum?
Hech kimda yo'q-ku bu dum!
Bilsam, voqeа o'zga,
Ilinmas qo'lga, ko'zga!
"Ikki" degan oti bor,
Na o'zi, na zoti bor... (Q.Muhammadiy)*

Ushbu keltirilgan misollarning dastlabkisida "oq" so'zi ichuvchilar tilida qo'llanadigan so'z bo'lib, spirtli ichimlikning bir turi sifatida qo'llangan. Ikkinci misolimizda esa talabalar nutqida qo'llanuvchu "dum" so'zi "topshirilmagan imtihon" yoki "qarz" ma'nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

Jargon tadqiqi bo'yicha fikrimiz so'ngida jargoning foydali va salbiy oqibatlari haqida fikr bildirmoqchimiz. Bizningcha, ko'p hollarda jargon tili mutaxassislar uchun o'z sohalarida samarali muloqot qilish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. Bu ularga murakkab va tushunchalarni ixchamroq yetkazish va asosiy tushunchalarni tushuntirishga vaqt sarflamasdan bir-birlarini tez anglash imkonini beradi. Bu holat, ayniqsa, tibbiyot sohasida ijobiy hisoblanadi. Salbiy jihatni esa, har doim tilning adabiy normalariga putur yetkazuvchi, adabiy tilning qadr-qimmatini kansituvchi hodisa ekanlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iminov M., Nu'monov T., Boboxonova D. O'zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan: Namangan, 2007.
2. Odilov Y. Sotsiolingvistika terminlarining izohli lug'ati. – T.: 2024.
3. Rahimova Z. O'zbek tilida jargon va unga yondosh hodisalar // Journal of universal science research, 2023. – Vol. 1 № 2. – B. 427-431.
4. Расулов Қ. Социолект ва нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. – №4. – Б. 61-64.
5. Социолект: структура и семантика. – Москва, 2013.
6. Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. –T.: Universitet, 2014.
7. Вопросы социальной лингвистики. – Л., 1969.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2- жилд. –T.: O'zbekiston milliy ensklopediyasi, 2020.

XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING O'ZBEK YURIDIK TILIGA O'ZLASHISH USULLARI

Munisa ISAQOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti tayanch doktoranti

Аннотация. В статье рассмотрены международные юридические термины, являющиеся частью юридической терминологической системы, проанализированы факторы их заимствования в национальный язык.

Ключевые слова: юридический термин, международное право, терминология, заимствование, калька, семантическая калька, фразеологическая калька.

XXI asr davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimi insoniyat boy tajribasining barcha ijobjiy tomonlarini sintezi bilan xarakterlanadi. Ushbu tajribalar barqaror rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyot uchun eng maqbul shart-sharoitlarning demokratik davlat va fuqarolik jamiyati vujudga keltirishini tasdiqlaydi. Har qanday davlatning miliy huquqiy tizimi boshqa milliy huquqiy tizimlar va xalqaro huquq bilan bog'lamasdan o'rganib bo'lmaydi. Bunday huquqiy "uchburchak" umumiyligi huquqiy hudud sifatida xizmat qiladi. Unda turli normativ-huquqiy hujjatlar o'zaro ta'sirda boladi, toqnashadi va birgalikda faoliyat ko'rsatadi. A.M. Vasilev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Huquq nazariyasi kategoriyalari va ularning tizimli rivojlanishi bilan bir qatorda dialektik va amaliy huquqiy mantiq darajasida faoliyat yurita olish ko'p jihatdan huquqiy bilimlarning amaliy ta'siriga bog'liq" [1; 13]. Yildan yilga bu hamkorlik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Davlatlar o'rtasida bunday aloqalarning kengayib borishi bilan tillararo so'z o'zlashirish jarayoni ham kuchayadi Yuqorida ta'kidlaganimizdek tilning leksik tarkibi sof leksik qatlam va boshqa tillardan o'zlashgan qatlam asosida shakllanadi. Dunyo tillari orasida birorta ham til yo'qki, unda ozmi ko'pmi o'zlashgan so'z uchramasini yoki "ma'lum darajada aralashgan bo'lmasin" [2; 37.] Uzoq o'tmishga nazar tashlansa, chet so'zlar o'zga tillarga asosan og'zaki muomala yo'li bilan (chunki yozuv hali yuzaga kelmagan) o'tganligini ko'ramiz. Og'zaki muomala esa yaqin qo'shnichilik natijasida xalqlarning bir hududdan boshqa bir hududga ko'chishi qolaversa, savdo-sotiq ishlarida muloqotga kirishish jarayonida yuz bergan. Bu so'z o'zlashuv sabablarini bir tomonidan xarakterlasa, ikkinchi tomoni esa xalqlar ruhiyati bilan bog'liqidir. Hozirgi kunda esa O'zbek tili huquq sohasida o'zlashgan qatlam alohida o'rinni egallaydi. Boshqa tillardan so'z o'zlashirish xalqlar o'rtasida kechadigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning tabiiy natijasi sifatida o'zini namoyon qiladi..

So'z o'zlashishining asosiy manbai sifatida kishilar o'rtafigi og'zaki aloqalar va rasmiy hujjat yozishmalarining standartlar asosida shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj natijasi sifatida ko'rsatish mumkin. Huquqiy sohada yangi tushunchalarning qo'llanilishi esa xalqaro munosabatlarda diplomatiyl xizmatchilar o'rtafiga og'zaki suhbatlar, turli davlatlar va tashkilotlar o'rtafigi rasmiy va norasmiy bitimlar asosida yuzaga keladi. O'zbek tili lug'ati tarkibining boyishi va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o'yinaydi. Shuningdek, har bir soha terminologiyasida bo'lgani singari yuridik terminologiyaning salmoqli qismi ham chetdan so'z o'zlashish ta'sirida to'lib boradi va mukammalashadi. O'zbek tiliga boshqa tillar ta'siri ikki muhim hodisada ko'zga tashlanadi.

- 1) o'zbek tiliga chet tilidan kirgan so'zlarni qabul qilishda;
- 2) chet tiliga oid so'zlarni o'zbek tiliga moslashtirishda.

So'zlarning bir tildan ikkinchi bir tilga o'tishi va o'zlashishi nisbatan murakkab jarayon hisoblanib, ijtimoiy –tarixiy va murakkab lingvistik sharoit bilan bog'liq hodisadir. Tildan tilga so'z o'zlashishi uchun avvalo real sharoit bo'lishi lozim. O'zbek tili o'tmishda bir qator qardosh bo'limgan boshqa sistemadagi tillar bilan ham aloqada bo'lgan. Shuningdek, o'zbek tili o'z rivojining milliy til va ijtimoiy millat tili davriga kelib rus tili bilan aloqa va hamkorlikka kirishdi. Bu jarayon esa o'z navbatida yuqorida aytib o'tilgan til leksikasining ona tilimizga kirib kelishi va millatning so'zlashuv nutqiga singib borishiga sabab bo'ldi.

Xalqaro va milliy huquqiy tizimlarning o'zaro ta'siri muammosini o'rganishning predmet bazasini va tegishli konseptual apparati aniq belgilanmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Biroq, yuridik adabiyotlarda "huquqiy tizim" toifasining mazmuni tadqiqotchilar tomonidan turlicha ta'riflangan bo'lib, bu nafaqat alohida olimlarning ushbu muammoga individual yondashuvi bilan izohlash mumkin. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan 80-yillarning oxirigacha bo'lgan ilmiy ishlarda xalqaro va milliy huquq doirasini ajratish borasida aniq chiziq tortildi deyish mumkin. Bundan tashqari xalqaro huquqshunoslarning ishlarida qoida tariqasida xalqaro huquq tizimi va ichki huquq o'rtasida hech qanday chiziq farqlar yaqqol berilmagan, faqatgina ekvivalent sifatida tegishli tushunchalar ko'rsatib o'tilgan. Shunga qaramay o'sha davrda ham universal davrning asosiy parametrlarini, shu jumladan nafaqat xalqaro huquqni, balki uning subyektlarini, ular o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni, xalqaro huquqni amalga oshirish shakllari va usullarini aniqlashga e'tibor qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan D.I.Feldmen xalqaro huquqiy tartibga solishning universal konsepsiysi, I.I.Lukashuk davlatlararo xalqaro tizim nazariyasi kabi masalalarni tadqiq qilgan. Hozirgi vaqtida xalqaro tashkilotlat normativ manbalarni model qonunlarni kiritish orqali kengaytirishning zaruriyati sezilarli darajada o'sdi. Bularning barchasi zamonaviy dunyoda xalqaro va milliy huquqning o'rni va ahamiyati haqida umumiyl fikrga kelish, ularning o'zaro bog'liqligi va istiqbolining asosiy parametrlarini aniqlash maqsadida xalqaro huquqshunoslar va huquq fanlari vakillari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni faollashtirish zarurligini oldindan belgilab beradi. O'zbek qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilayotgan hozirgi davrda davlatning ichki va xalqaro huquqiy tartiboti metodlarini qo'llash talab qilinadi. Bugungi kunda qonunchilikning har qanday bo'limi xalqaro shartnomalar bilan aloqadorlikka ega. O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiatiga faol kirib bormoqda, xorijiy mamalakatlar bilan xalqaro aloqalarni mustahkamlab shartnomaviy va diplomatik aloqalarni kengaytirmoqda. Bu jarayon esa o'z navbatida normativ-huquqiy hujjatlar tuzishda ma'lum bir standartlarga amal qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda normativ huquqiy hujjatlarning asosiy bo'g'ini bo'lgan atamalardan to'g'ri foydalana bilish muhim o'r'in tutadi. Shu ma'noda G.G'ulomova milliy qonunchiligidizning nufuzi va qadr-qimmatini oshirish, o'zbek xalqinining huquqiy madaniyatini yanada shakllantirish uchun ma'lum bir maqsadga qaratilgan tadbirlarni belgilab olish kerakligini ta'kidlaydi. Bunday vazifalarning eng asosiyлari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi.

- o'zbek yuridik terminologiyasining yagona standartlarini yaratish;
- xalqaro siyosiy-huquqiy terminlarni yaratishda milliy xususiyatlarni hisobga olish;
- jahon andozalariga muvofiq, xalqaro yuridik terminlarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish;
- qonun loyihalarini ishlab chiquvchi ishchi guruhlar tarkibiga huquqshunoslar bilan bir qatorda, filologlarni ham albatta jalb qilish [3; 25].

Yuridik terminlar standartlari qonunni to'g'ri tushunish, uni amalga to'g'ri tadbiq qilish uchun zarur bo'lsa terminlar bo'yicha yo'riqnomalar esa terminlar birligining bo'lishini ta'minlaydi. Xalqaro huquqiy terminlardan foydalanishda milliy til xususiyatlari va qonunchilik talablarining o'ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur. Xalqaro yuridik terminlarni dunyo xalqlari qanday ishlatayotgan bo'lsa biz ham shunday ishlatishimiz lozim. Huquq sohasiga boshqa tillardan terminlar kirib kelishi yoki ichki imkoniyatlar asosida yangi huquqiy terminlarning yasalishi natijasida ham o'zbek tili leksik qatlami boyib bormoqda, shuningdek yangi huquqiy tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, huquqiy sohada keyingi paytda milliy-huquqiy tizim, lingistik ekspertiza, filologik ekspertiza, qonun ustunligi kabi yuridik terminlar til tizimiga kirib keldi. Bundan tashqari xorijiy so'zlarni o'zgartirishsiz aslicha qabul qilinish holati ham nisbatan ommalashgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, yuridik sohaga mansub leksik qatlam ham til leksikasi umumiyl qonuniyatlar asosida rivojlanib boradi. O'zbek yuridik tilida qo'llaniladigan so'zlar ham milliy tilning sof terminlari va boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlardan tashkil topadi. Xalqaro yuridik tilda qo'llanilayotgan ko'pgina so'z va terminlar milliy yuridik tilga kirib boradi va aksincha milliy yuridik tildagi ayrim so'z va terminlar xalqaro huquqqa o'tadi. Professor Sh.Ko'chimovning ta'kidlashicha hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy yuridik terminlarini quyidagi tillarga oid so'zlar tashkil qiladi [5; 120]. Masalan:

Lotin tilidan o'zlashgan xalaro yuridik terminlar: konstitutsiya, integratsiya, diktatura, kodeks, manifest;
Fransuz tilidan o'zlashgan xalqaro yuridik terminlar: suverinitet, diplomatiya parlament, order, dekret, attashe, ministr;

Nemis tilidan o'zlashgan xalqaro yuridik terminlar:adyutant, veksel, abonent; Ingliz tilidan o'zlashgan xalqaro yuridik terminlar: monopoliya, monarxiya, gegemon, demokratiya; Yunon tilidan o'zlashgan xalqaro yuridik terminlar: amnistiya, anarxiya, protocol, apartid; Arab tilidan o'zlashgan xalqaro yuridik terminlar: alkogolizm, adat, algorifm.

Xalqaro huquq sohasiga oid so'z o'zlashtirish bir necha usul bilan amalga oshadi. Ulardan quyidagilarni tahlil qilamiz.

1. So'zni o'zgarishsiz qabul qilish. Bunday usulda so'z o'zlashtirganda qabul qilinayotgan leksik birlik na fonetik, na grammatik o'zgarishga uchraydi.

2. Kalkalash yo'li bilan so'z o'zlashtirish

a) Semantik kalkalash yo'li bilan so'z o'zlashtirish

b) Frazeologik kalkalash yo'li bilan so'z o'zlashtirish devalyatsiya (qog'oz pullarni bekor qilish)

Bulardan birinchisi milliy yuridik tilimizda eng mahsuldor usul hisoblanib, soha Iterminologiyasining asosiy qismini tashkil qiladi. Misol tariqasida "Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati" [4] ni tahlilga tortilganida lug'atga kiritilgan asosiy terminlarning o'zbek tilidagi muqobili berilgan: avans (bo'nak), agent(vakil), avtor(muallif), arenda(ijra) va boshqalar. Lekin ayrim terminlar hech qanday o'zgarishsiz qabul qilingan va aslicha kiritilgan. Misol tariqasida: attashe, balans, banditizm, bankrot, birja, deputat, diktatura, demokratiya, parlament va boshqalar. Ikkinci usul kalkalash yo'li bilan so'z o'zlashtirish Boshqa til materialidan qismma-qism nusxa olish bilan yasalgan so'zga kalka deyiladi. Kalkalashda so'z o'zlashtiruvchi so'zning ma'nosи va morfemik tuzilishi saqlanadi, ammo bu morfemik tuzilish o'zlashtirilayotgan tilning materiali bilan to'ldiriladi. Semantik kalkada nusxa olish prinsipi saqlanadi. Bir tildagi so'zga uning boshqa tildagi ekvivalenti qidirib topiladi va shu o'zlashtirilayotgan leksik ma'no yuklanadi. X.Dadaboyev semantik kalkalash usuli haqida o'z qarashlarini bayon qilib quyidagi fikrlarni aytib o'tadi. "Semantik kalka (metaforalashish)da kelib chiqishi jihatidan chet tiliga xos bo'lган yangi ma'noni o'zbek tili lug'ati tarkibida ishlatib kelinayotgan so'z o'zlashtiradi" [6; 120]. Misollarga murojaat qilinganda yuqorida keltirilgan lug'atda bunday birliklar o'zbek tilidagi ma'noviy jihatdan yaqin bo'lgan birliklar bilan birga kalkalash usuli orqali o'zlashtirilganligi namoyon bo'ladi. Shunday so'zlar qatoriga appelyatsiya(norozilik arizasi), immigrant (muhojir), instansiya (bosqich), gomeseksualist (besoqolbozlik). Frazeologik kalka chet tilidagi birikmani qismlarga bo'lib, so'zma so'z tarjima qilishdir. Bu usulda termin o'zlashtirish huquqiy terminologiyada biroz boshqacha holatda ham uchraydi. Ya'ni o'zlashtirilayotgan birlik qismlarga ajratilgan holatda har biri alohida tarjima yoli bilan yoki tarkibidagi ma'lum so'zlar o'z holaticha o'zlashadi. Masalan алтернат(xalqaro shartnomaning matnini navbat bilan imzolash), вербальная нота (verbal nota), гаагский трибунал (gaga tribunalı) вагнера закона (vagner qonuni), курьер дипломатический (diplomatik kuryer) va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, so'z o'zlashtirish huquqiy sohada ham faol qo'llaniladigan jarayon bo'lib, qonunchilik uslubida matnning aniq tushunilishini ta'minlaydi. Boshqa soha terminologiyasidan farqli ravishda yuridik terminlar tarkibida xalqaro terminelementlar mavjud leksemalar midqor jihatidan yuqoridir. Buning asosiy sababi, milliy yuridik tilda yaratilgan normativ qonun hujjalaringin jahon hamjamiyati standartlariga mos bo'lqidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Васильев А. М. Правовые категории. Методологические аспекты разработки системы категорий теории права. – М., 1976.
2. Berdiyorov X., Xo'jayev T., Yo'ldoshev B. Umumiyl tilshunoslik. – Toshkent, 1990.
3. Фуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Toshkent, 2004.
4. Mahmudov N., Ko'chimov Sh., Sharipova N. Yuridik terminlarning ruscha-o'zbekcha lug'ati. – Toshkent, 2021.
5. Ko'chimov Sh. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2013.
6. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.

DIGLOSSIYA HODISASIGA SOTSIOLINGVISTIK QARASH

**Sayyora QUDRATOVA,
O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti kichik ilmiy xodim**

Annotation. The phenomenon of diglossia is considered a comprehensive concept in linguistics, reflecting the linguistic situation in the country. This article highlights the theories and views advanced on the emergence, development and social functions of the diglossia phenomenon.

Key words: diglossia, bilingualism, subcode, diaglossic regions, language preservation, social inequality.

Ijtimoiy lingvistikada diglossiya deganda umumiy nutq jamoasi ichida tilning ikki ko'rinishi amal qiladigan holat tushuniladi. Diglossiya (diglōssia. yun. "di" – "ikki" va "gloss" – "til") yagona milliy til egasi bo'lmish jamoaning tilning turli subkodlarida gapira olishi, sharoit va muloqot doirasidan kelib chiqib, tilning bir subkodidan ikkinchi subkodiga o'ta olishi, bir til doirasida turli uslublardan foydalana olishi demakdir. "Diglossiya" termini nafaqat bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olishni, balki turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko'ra galma-gal qo'llay olishni ham anglatadi [1; 238].

Diglossiya hodisasi mahalliy va xorijiy tilshunoslarning ishlarida ko'p va xo'p o'rganilgan. Diglossiyaning o'ziga xos xususiyatlari J.Fishman tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan, diglossiyaning rus adabiy tili tarixidagi maqomi esa A.V.Isachenko, B.A.Uspenskiy asarlarida ochib berilgan. 50-80-yillar tilshunosligida ushbu hodisani o'rganish muammolari yoritilgan. Emmanuel Rhoides 1885-yilda chop etilgan "Parerga" asarining muqaddimasida diglossiya "bir tilning ikki shakli" degan maxsus ma'noni anglatishini ta'kidlagan. Bu atama yunon tilshunosi Ioannis Psycharis tomonidan "diglossie" sifatida fransuz tiliga o'zlashtiriladi [2; 163]. Tilshunos diglossiyani yunon adabiyotlarida zamonaviy yozma yunon tili ikki xil variantining yonma-yon yashash holati sifatida tasvirlagan.

Arab mamlakatlarida ham diglossiya termini mamlakatdagi lingvistik vaziyatni tasvirlash uchun qo'llangan. Bu hodisa haqida "Лингвистический энциклопедический словарь"да quyidagi fikrlar keltirilgan: "arab adabiy tili va arab shevalarining bir-biriga munosabati hamda ularning ijtimoiy nuqtayi nazardan funksional qo'llanishi diglossiyaga misol bo'la oladi" [3; 136]. Ijtimoiy lingvist Ch.A.Fergyuson 1959-yilda diglossiya terminini ilk bor maqola sarlavhasida qo'llagan [4; 59]. Olim diglossiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "jamiyatda bir vaqtning o'zida ukkita tilning yoki bir tilning turli funksional holatda qo'llanadigan ikkita shaklining amal qilishi" [5; 232].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib dunyo tilshunosligida diglossiya termini quyidagi ikkita hodisani ifodalash uchun xizmat qilishini ko'rishimiz mumkin:

1. Lisoniy jamoada bir tilning ikki shakli amal qilishi.
2. Lisoniy jamoada ikki yoki undan ortiq tilning amal qilishi.

Ammo biz ushbu terminni izohlashda Yuqorida keltirilgan "diglossiya bu – bir tilning ikki shaklidir" degan fikrga tayanamiz. Chunki diglossiya ikkita til mayjud bo'lgan vaziyat, ammo bu tillar so'zlashuvchilar tomonidan bir til sifatida qabul qilinadi. Diglossiyada bir tilning ikki shakli o'rtaida ierarxik munosabat mavjud bo'ladi. Emmanuel Rhoides va Ioannis Psycharis tomonidan keltirilgan ta'riflarda diglossiya hodisasi aniq yoritilgan bo'lsa, Ch. Fergyuson keltirgan ta'rifda diglossiya hodisasi bilingvizm kabi ta'riflangan. Bu hodisalarining farqini tilshunos quyidagicha ochib bergen: "agar bilingvizmda tillar funksional jihatdan teng bo'lsa, diglossiyada tillardan biri "yuqori" (H) til bo'lib, din, ta'lum, fan va boshqa aloqa sohalarida qo'llanadi, ammo kundalik muloqotda amal qilmaydi; ikkinchisi "quyi" (L) til hisoblanib, kundalik muloqotda va nutqning quyi funksioanl uslublarida qo'llanadi" [5; 234].

Tilshunoslikda diglossiya va ikki tillilik hodisalari bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblansa-da, ular o'rasisida bir qancha farqlar mavjud. Diglossiyada tillarning qarindosh yoki noqarindosh ekanligi muhim emas va unda bir tilning ikki shevasi, adabiy til va sheva funksional jihatdan farqli qo'llanadi. Shuningdek, dunyo tilshunosligida muayyan lisoniy jamoada ikki yoki undan ortiq tilning qo'llanishi bilan bog'liq hodisa diglossiya sifatida talqin etilgan ishlar mavjud. Buni Ch.Fergyuson alohida ta'kidlaydi va quyidagilarni diglossiya amal qiluvchi hududlar sifatida keltiradi:

№	Diglossik hududlar	Diglossik tillar
1	Gaiti	Gaiti kreoli (L – yuqori til), fransuz (H – quyi til)
2	Arab tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar	Misr mahalliy dialekti (L – quyi til), standart arab (H – yuqori til)
3	Shveysariya	Shveysariya nemischasi (L – quyi til), standart nemis (H – yuqori til)
4	Yunoniston	Demotik yunon (L – quyi til), sof yunon (H – yuqori til)

Diglossik jamoalarda amal qiladigan dialektlar rasmiy va norasmiy jarayonlarda qo'llana olish xususiyatiga ko'ra ikki turga ajratiladi.

1. Yuqori til shakli hisoblanib, asosan, rasmiy doiralarda qo'llanadi. Unda adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi. Masalan, o'zbek adabiy tili va uning shevalari. Adabiy til va shevalar qiyosiy tahlili ko'plab realiya va lakunalarni aniqlash imkonini beradi [6; 34].

2. Quyi til shakli hisoblanib, asosan, norasmiy doiralarda qo'llanadi. Ko'proq maishiy til sifatida qaralib, oila a'zolari va yaqin kishilar bilan muloqot jarayonida ishlataladi. Masalan: Dehqonqu! Men ularni jigit sanamayman, yo'q jigit sanayman. Gapning o'roli keldi, aytayin... [7; 20]

Diglossiyaning yana bir turi mavjud bo'lib, u manbalarda standart diglossiya yoki ikki tilli diglossiya deb ham nomланади. Diglossiyaning bu turida bitta tilning turli shakllari faqat yozuv amaliyotida foydalanilsa, ikkinchi tilning turli shakllari muloqot jarayonidagina qo'llanadi.

Hozirgi kunda ba'zi mamlakatlarda diglossiya gender jihatdan ham farqlanmoqda. Masalan, Ganada "talaba pidgin" deb nomlangan dialektda odatda erkaklar o'rta maktabda so'zlashadi, ammo ijtimoiy o'zgarishlar tufayli bugungi kunda o'quvchi qizlar ham "talaba pidgin"dan foydalanishmoqda [8; 28].

Diglossiyaning jamiyatga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin. Diglossiyaning o'ziga xos afzallikkari va kamchiliklari mavjud.

Diglossiyaning afzallikkari quydagilardan iborat. Birinchidan, diglossiya jamiyatdagi turli til yoki uning shevalarini muhofaza qiladi va bu holat jamoalarga etnik o'ziga xoslik hamda tilni saqlash qolish imkoniyatini beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib, so'zlovchilar tildan erkin foydalanishlari mumkin. Masalan, yuqori til shaklidan fan, ta'lif, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, rasmiy muloqot jarayonlarida foydalanilsa, quyi til shakli kundalik muloqot va norasmiy vaziyatda qo'llanadi.

Diglossiya hodisasi yuqorida keltirilgan afzalliklar bilan birga quyidagi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Avvalo, diglossiya jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltiradi. Yuqori til shaklida muloqot qiluvchilar quyi til shaklida so'zlashuvchilardan ko'proq imtiyozga ega bo'lishi, quyi til shaklidan foydalanuvchi lisoniy jamoani chetga surib qo'yishi mumkin. Bu holat ijtimoiy tabaqlanishiga olib keladi. Ikkinchidan, ta'lif sohasida quyi til shaklida so'zlashuvchilar imkoniyatining cheklanganligidir. Ular sifatlari ta'lif manbalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu ularning o'sib-rivojlanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Uchinchidan, quyi til shaklida so'zlashuvchi jamoa yuqori til shaklida so'zlashuvchilarga tenglashishga harakat qilishi natijasida quyi til shaklida til eroziyasi xavfi yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mohiyatan ikki tillilikni ifodalovchi diglossiya yakka shaxsga emas, muayyan lisoniy jamoaga qaratilganligi, madaniy meros bo'lmish tilni saqlab qolish xususiyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2020.
2. Mauro F. Los Origenes del término diglosia: historia de una historia mal contada // Historiographia Linguistica, 1995. – №1-2. – PP. 163-195.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.
4. Butch Randall, Notley R. Steven. The Language Environment of First Century Judaea: Jerusalem Studies in the Synoptic Gospels. – Boston, 2014.
5. Ferguson C.A. Diglossia // Word, 1959. – Vol. 15. – PP. 325-340.
6. Musayeva F. O'zbek xalq so'zlari. – Toshkent, 2022.
7. Murod T. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent, 1994.
8. Atanga L., Ellece S., Litosseliti L. and Sunderland J. Gender and Language in Sub-Saharan // Gender and Language, 2012. – № 6 (1). – PP. 1-20.

O'ZBEK TILI LEKSIKASI TARAQQIYOTIDA NEOLOGIZMLARNING O'RNI

Shoxista ANNAQULOVA,

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti tayanch doktoranti*

Аннотация. В данной статье приведены краткие размышления о лексическом пласте языка и роли неологизмов в его развитии. Также на основе примеров обоснована роль заимствованного пласта (арабских, персидско-таджикских, русских, английских) слов в узбекском языке, констатируется, что изменения, обновления, преобразования в обществе влияют на развитие лексического слоя языка.

Ключевые слова: лексический пласт, неологизм, новый пласт, заимствованный пласт, экстралингвистический фактор.

Tilning lug'at boyligi odamlar faoliyatining barcha sohalarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tezda javob berishi kerak, shunda til o'zining asosiy funksiyalarini (fikrni shakllantirish va kommunikativ) bajarishi mumkin. Lug'atlarning vazifasi bu o'zgarishlarni qayd etish, hozirgi davrga xos bo'lgan jonli til hodisalarini (raqamli texnologiyalar, virtual muloqot, til me'yorlarini demokratlashtirish, shuningdek, "zamonaviy ona tilida so'zlashuvchilarning faol so'z yaratish", til o'yinlaridan boshlab, fikrni ifodalashning ifodali vositalarini izlash, ayniqsa, yoshlar va ijodiy kasblari vakillari orasida mashhur faoliyatga aylandi) [6; 37] aks ettirishdan iborat [7; 26].

Yuqorida aytiganidek, til qatlamlari orasida leksika har qanday jarayonga reaksiya beradigan qatlam hisoblanadi. Shu sababdan, doimiy o'rganilishni talab qiladi. Til leksik qatlamini davriy guruhlaydigan bo'lsak, eski qatlam so'zlari, zamonaviy qatlam so'zlari va yangi qatlam so'zlariga ajratamiz. Eski qatlam so'zlari (vaqtida faol bo'lgan tarixiy so'zlar va arxaizmlar) bugungi kunda umumtilda kam qo'llanadi. Zamonaviy qatlam so'zlari doimiy kommunikatsiya jarayonida faol bo'ladi. Shu qatlamga oid so'zlar o'zbek tili leksikasining asosini tashkil qiladi. Yangi qatlam so'zlari yoki neologizmlar hali tilda ommalashib ulgurмаган, tor doiralarda qo'llana boshlagan. Ammo bunday so'zlar til leksikasi taraqqiyotiga eng faol ta'sir o'tkazuvchi omildir. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq jarayondir. Jamiyatadagi o'zgarishlar, rivojlanishlar (ilm-fan, texnika, aloqlar), turli ijtimoiy tizimlar natijasida tilda yangi va eski so'zlar paydo bo'ladi. Jumladan, yaqin o'n yillikda ijtimoiy tarmoqlarning faol rivojlanishi ularning turlari va nomlaridan tashqari ular bilan bog'liq bir qator tushunchalarni paydo qildi. Davr talabi va til ehtiyoji sabab neologizmlar safi kengaydi.

Ma'lumki, milliy tilning, milliy adabiy tilning taraqqiyoti lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida yuz beradi. Globallashuv davrida tillarning shu jumladan, o'zbek tilining ham leksikografiyası nolisoniy ya'ni, ijtimoiy tuzum shakllari, tarixiy jarayonlar, xalqalar va millatlar o'rtaSIDAGI iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy aloqlar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, shuningdek, tibbiyotdagi turli holatlar (ayniqsa, koronavirus pandemiyasi misolida yaqqol namoyon bo'ladi [9] kabi ekstraliningvistik omillar ta'sirida yuzaga kelgan neologizmlar hisobiga boyidi. Masalan, Oksford lug'ati 2020-yil bahorida pandemiya bilan bog'liq bir qancha yangi so'zlarni qayd etdi: coronavirus (koronavirus), COVID-19 (yangi koronavirus keltirib chiqargan kasallik), lockdown (COVID-19 tarqalishining oldini olish uchun hukumat tomonidan kiritilgan majburiy karantin choralar), social distancing (ijtimoiy masofa), reopening (qayta ochilish). Adabiy tilning taraqqiyoti, avvalo, ichki omillarga tayanadi ammo misollarga, yuqorida va quyida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tildagi jarayonlarda ham intralingvistik ham ekstraliningvistik omillar birga qatnashadi. Biri ikkinchisiga zamin yaratadi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur jarayonlari shuni taqozo qiladi [2; 7].

Yuqorida ijtimoiy boshqaruv tizimlarini, davlat boshqaruv siyosatidagi o'zgarishlarni ham leksik qatlam bilan bog'ladik. XX asrga e'tibor qaratsak, bu davrda sovet hukmonligida o'ziga xos atamalar mayjud edi. Masalan, qulqoq, qulqolashtirish, sovet, pioner, kommunistik g'oya, kommunizm, qayta qurish, kolxoz, sovxozi, aksilingilobchi, leninchi. Bunday so'zlarni hozirda olimlar sovetizmlar atamasi bilan yuritmoqdalar. Sovetizmlarga sovet sotsialistik hukumati va ishchilar sinfi diktaturasi zamonasini ifodalaydigan birliklar, shuningdek, sotsialistik tizimning barcha sohalariga xos hodisalar nomlarini kiritish mumkin [8; 39].

Mustaqillikdan keyin bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ham bir qator so'z va iboralar ommalashdi. O'zbek modeli, milliy valyuta, kichik biznes, o'rta biznes, xususiy tadbirkorlik, qimmatli qog'ozlar bozori, tadbirkorlar palatasi, konsalting, injiniring, lizing firma, biznes-inkubator, biznes-reja, diller, makler, demping, davlat boji. Bular, o'z navbatida yangi izohli lug'atda ham o'z aksini topdi [4].

Yangi O'zbekistonni barpo qilish jarayonida ham yangi tushuncha va atamalar keng muamolaga kiritilmoqda. Yangi O'zbekiston, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, elektron hukumat, temir daftar, yoshlar daftari, ayollar daftari, hokim yordamchilari, ochiq budjet yoki tashabbusli budjet, yoshlar ittifoqi.

Til leksik qatlqidagi so'zlar, ma'lumki, o'z qatlam va o'ala shgan qatlam so'zlaridan iborat. O'z qatlam so'zlari deya asl turkiy whole so'zlarni nazarda tutamiz. O'zlashgan qatlam so'zlari esa tilimizga turli tillardan kirgan leksikalardir.

Ma'lumki, tilimizda asosiy o'zlashgan qatlam so'zlarini arabcha va fors-tojikcha so'zlardir [5]. Bu so'zlarni biz qabul qilganmiz va nutqimizda hech qanday qiyinchiliklarsiz, muammolarsiz faol qo'llaymiz. Bugungi kunda bu til so'zlaridan yangi so'z yasashda foydalanmasakda, lug'atimizning asosiy qismini aynan shu til o'zlashmalari tashkil etadi: aloqa, asir, bahs, daftar, dars, dunyo(arabcha), bazm, bobo, bozor, darmon, darrov, dil (forscha) [1; 103].

XIX asrdan boshlab rus tilidan o'tgan so'zlar ommalasha boshladi. U so'zlar dastlab neologizmlar maqomida turgan bo'lsa, keyinchalik o'zlashma so'zlar sifatida lug'atlardan o'rinni egalladi. Bugungi kunda rus tili va bu til orqali boshqa tillardan olingan so'zlar ham aksariyatni tashkil etadi. Asfalt (yunoncha), budilnik, budka, karavot, qulupnay, samavor (ruscha).

Yuqorida qayd etilgan o'zlashgan so'zlarning asosiy sababi hukmronlik siyosati bilan bog'liq bo'lsa, bugungi kunda tilimizda va nutqimizda paydo bo'layotgan neologizmlar va asta-sekin til leksikasining olinma so'zlar qatlqidan joy olayotgan so'zlarning asosiy qismi fan-teknika, internet taraqqiyoti natijasida ingliz tilidan kirib kelmoqda. Ya'ni ingliz tili yaqin yillarda dunyoning ko'plab tillari uchun donor tilga aylandi: blog, bloger, sayt, bot, chat, link, GIF, akkaunt, spam, admin, kuryer, broker, spiker, IT.

Demak, til leksik qatlami taraqqiyotiga asosiy ta'sir qiluvchi jarayon jamiyatdagi o'zgarishlar, yangilanishlar, rivojlanishlar bilan bog'liq ekan. Bu holatlar esa avvalo neologizmlarga murojaat qilishga sabab va omil bo'ladi. Tilshunos olim, professor Y. Odilov ta'kidlaganlaridek: "...Albatta, yangi so'zni olish bilan tilning so'z zaxirasi kengayadi, ammo xorijiy so'zlarning ko'payib ketishi yaxshi holat emas" [3]. Leksik boyligimizni chet emas o'z so'zimiz bilan boyitish har bir o'zbek til egasi oldiga mas'uliyat qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent, 2019.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
3. Odilov Y. "Barber"dan tortib "shourum"gacha: chet so'zlar shovuri nega avj olmoqda? https://oz.sputniknews.uz/author_odilov_yorkinjon/ (Murojaat sanasi: 1.02.2024).
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022.
5. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
6. Иванова Н.К. Русская языковая личность: орфография молодого поколения // Записки горного института. Том. 193. 2011. – С. 37-40.
7. Избицкая М.В. Современные тенденции в неологии: типология образования неологизмов и лексикографическая практика (на материале новой английской лексики из сферы «Культура» в электронных волонтерских словарях). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Иваново, 2020.
8. Купина Н.А. Советизмы: к определению понятия // Политическая лингвистика. 2009. №28. – С. 35-40.
9. Неология. Неография. 2021: Сборник научных статей / Отв. ред. Н.В. Козловская / Институт лингвистических исследований РАН. – СПб.: ИЛИ РАН, 2022. – 154 с.

WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINOLOGIYASI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Bobur MAXAMMADOV,

*Navoiy davlat pedagogika instituti O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i o'rinnbosari, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Аннотация. В данной статье представлен небольшой анализ перевода и лексикографической интерпретации узбекских терминов, используемых в операционной системе Windows. Кроме того, в данной статье отдельно изучается употребление и обоснованность адаптированных и переведенных терминов, встречающихся в операционной системе Windows.

Ключевые слова: windows, операционная система, операционная система Linux, CMD, MS-DOS.

Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida windows operatsion tizimi dasturlari yaratilishi jadal sur'atlarda kechmoqda. Mazkur jarayon windows operatsion tizimi terminologiyasiga oid yangi tushunchalarning dunyo tillariga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat, o'z navbatida, tizimda ishlatilgan o'zbek, ingliz tilidagi terminlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish, ya'ni, semantik va strukturaviy jihatdan tahlil qilish hamda leksikografik xususiyatlarini aniqlash, tarjima uslublarini takomillashtirish, uch tilli lug'atlarni yaratish kabi muhim topshiriqlarni kun tartibiga qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab ko'plab rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatildi. Bugungi kunda ushbu aloqalarning rivojlanishi davom etayotgani asnosida ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi hamkorlik natijasida jamiyat hayotiga Windows operatsion tizimida yaratilgan dasturlar keng moslashtirib borilmoqda va shuning barobarida ayni sohaga taalluqli ko'plab yangi tushuncha hamda terminlar kirib keldi. So'nggi yillarda bunday ilovalarning ko'payib ketayotgani natijasida mazkur sohaning zamonaviy leksikasini tadqiq qilish va terminologik apparatini tartibga solishga yo'naltirilgan muayyan ilmiy izlanishlar amalga oshirilishiga, ayni soha terminlari va tushunchalarining standartlari ishlab chiqilishiga, izohli lug'atlar yaratilishiga ulgurilmay qolmoqda.

Jahon tilshunosligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminlarini tartibga olish ishlari bir til terminlari doirasida ham, bir necha til terminlari doirasida ham amalga oshirilgan, shu bilan bir qatorda, ayni soha terminlari muayyan darajada tartibga solinib, ko'proq shu sohaga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, lekin mobil ilovalarning terminologiyasiga qiziqish bildirilmagan. Bunga esa ingliz leksik-semantikasida terminlarning faqatgina ma'nosi o'zgarishi orqali ilovalarda qo'llanilgani sabab bo'lgan.

Milliy tilshunoslikda ham windows operatsion tizimi terminlarining lingvistik xususiyatlari (leksikografik, semantik va tarjimaviy) haligacha aniqlanmagan va soha terminlarini tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shunga ko'ra, windows operatsion tizimi terminlarining mavzuviy guruhlarini aniqlash, leksik-semantik xususiyatlarini asoslash, terminlarning strukturaviy modellarini yoritish, o'zlashma va baynalminal terminlarning milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tadqiq qilish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, terminlardagi sinonimik, antonimik va variantlilik holatlarini tartibga solish hamda maqbollarini qo'llash yuzasidan takliflar berish, leksikografik izohlarini ko'paytirish, tarjima lug'atlarini tuzish kabi masalalarning hal etilishi sifatli mobil ilovalar yaratilishi bilan birga, foydalanuvchilarga muayyan darajada yengillik yaratilishiga olib keladi.

Mazkur maqolada o'zbek tilshunos olimlari R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasi, B.Mengliyev tomonidan yozilgan "Hozirgi o'zbek tili" darslik va til korpuslarini yaratish bo'yicha maqolalari, M.Umarxo'jayevning "Umumiyl tilshunoslik" nomli o'quv qo'llanmalari va M.Umarxo'jayev tashabbusi bilan tashkil etilgan lug'atshunoslik va tarjimashunoslik markazi (ALTAIIM) jamoasi tomonidan maktab o'quvchilari uchun turli fanlardan yaratilgan ko'p tilli dasutr lug'atida foydalanilgan terminlar yordamida tahlil qilindi.

Xususan windows operatsion tizimida berilgan terminlar haqida to'xataladigan bo'lsak, "Google chrome" windows operatsion tizimi dasturidagi bir terminga e'tibor tortildi, "bukmarklar", ingliz tilida bu atama "bookmarks" tarzida, rus tilida esa "закладки" tarzida keltirilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, rus tilida bu so'zning muqobili topilgan, lekin o'zbek tilida ushbu so'zning muqobili topilmaganligi sababli to'g'ridan to'g'ri "bukmarklar" atamasi qo'llanilgan. Imloda shu holatda yozilishi mumkin, lekin "bookmarks" ingliz tilidagi talaffuzi butunlay boshqacha holatda beriladi. Shu sababli ham ushbu atamaning bu tarzda berilishi bir qancha chalkashliklarga olib keladi, na talaffuz va na imlo qoidalariga bo'yusunadi. Xuddi terminlarning nomlariga o'xshab ushbu atamaning imlodagi yozilishi ingliz tilida qanday bo'lsa, o'zbek tilida ham shu tarzda qoldirilishi maqsadga muvofiq, faqatgina talaffuzda biroz farq qilishi lozim. Bundan tashqari ushbu atama bo'yicha qidiruv berilganda "Google translate" tizimda "bookmark" so'zining tarjimasi "xatchoپ" tarzida qo'llanilgan. Bu esa ushbu terminning muqobili mavjudligidan dalolatdir [1].

"Google chrome" windows operatsion tizimi dasturidagi to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilgan atamalar ko'plab uchraydi. "Yangi inkognito varag'i" – uch komponentli birikmada etimologik jihatdan ikkita tildan kirib kelgan so'zlar mavjud, ulardan biri "inkognito" (ingliz tili) va "varaq" (arab tilidan). Ko'rinish turganidek, "inkognito" atamasining ham xuddi "bukmarks" atamasiga o'xshab muqobili berilmagan, lekin ingliz-o'zbekcha lug'atlarda ushbu atamaning tarjimasi "yashirin", "boshqa nom bilan" tarzida berilgan [2]. Demak, o'z-o'zidan bu atama aynan o'zlashgan atamalar qatoridan chiqib ketadi. "Varaq" xususida to'xtaladigan bo'lsak, "varag'i" – aslida "varaq" ko'rinishida etimologik lug'atlarda beriladi, {i} egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida {q} harfi {g} aylanadi hamda talaffuzda tovush o'zgarishi hodisasi ro'y beradi.

Keyingi termin haqida so'z borganda, people nearby" – "yaqin-atrofdagi odamlar" atamasi so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lib, "nearby" atamasi birikmali tarzda berilgan. Qo'llanilishi jihatdan yaqin-atrof birikmasi yasama so'zli juft so'z hisoblanib, "near-by" so'zining lug'atlardagi berilishi "yonma-yon" tarzida ham uchraydi[3]. Dasturdagи foydalanimish jarayonidan kelib chiqib ushbu atama so'zma-so'z tarjima qilingan. Bundan tashqari "atrof" so'ziga ham mos sinonimlar mavjud bo'lsada, masalan, "tevarak", "har taraf", "gird", "tegra", lekin bu holatda ular orasidagi dominant bo'lgan "atrof" so'zining qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Windows operatsion tizimida foydalanimish terminlar orasida to'rt komponentli atamalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, "saytni kezishda davom etish" tarzida berilgan birikma "Google chrome" mobil ilovasida keltirilgan. Ingliz tilida berilishi esa "continue browsing the site" va bu holatda o'zbek tilida berilgan "kezish" so'zi mobil ilova uchun mos emas, chunki aslida "continue browsing the site" birikmasida berilgan barcha so'zlarning o'zbekcha muqobili va shu muqobillarning o'zbek tilida sinonimlari ham mavjud, lug'atlarda "browse" atamasining "kezish" emas, balki "varaqlab chiqmoq", "ko'rib chiqmoq" ma'nolari berilgan. Bu holatda "kezish" atamasi aslida "ko'chalarni kezish", "atrofni kezish" ma'nosida qo'llanilishi lozim. Xuddi, shu ta'rif A.Hojiyev tomonidan ham berilgan izohda "kezmoq" so'zi – "tevarak-atrof", "yurib tomosha qilmoq", "aylanib ko'rmoq", "savr qilmod" ma'nolarida qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Windows operatsion tizimida qo'llanilgan inglizcha terminlarning o'zbek tiliga tarjimasi bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkinki, berilgan terminlarning barchasi ham operatsion tizimda to'g'ri tarjima qilinmagan va qo'llanilishi jihatdan so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan birikmalardan foydalanimilgan. O'zbek tilining adabiy tilga xos so'zlaridan foydalanimagan va shu sababli ham operatsion tizimda qo'llanilgan o'zbek tilidagi tushunarsiz terminlar foydalanuvchilar uchun eslab qolish qiyinligicha qolmoqda.

Foydalanimilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butayev Sh., Irisqulov M. Ingлизча-о'zbekcha, о'zbekcha-inglizcha lug'at. – Toshkent, 2008.
2. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S va b. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Berg T. The directionality of reduplicative plurativity // Word structure journal. – № 15 (1). – PP. 1-27.
4. Бурибаева М. А. Тюркизмы в русском языке: от вариантов к норме. – Москва: Флинта, 2015.
5. Baron N. Always on: Language in an online and mobile world. – Oxford University Press, 2008.
6. Divjak D., Gries, S. Th. Frequency effects in language learning and processing. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2012.
7. Ergasheva M. Olamning lisoniy manzarasi va semantik maydonlarga bo'linishi // Молодой учёный. – №3, 2016.

COMPARATIVE STUDY OF PHYSICAL TERMS IN MODERN LINGUISTICS

Ezoza KILICHOVA,
*Navoi Innovations University, Teacher of the
 Department of Philology and Language Teaching*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tillar terminologiyasida fizik terminlarni o'rgangan olimlarning ilmiy ishlari ko'rib chiqilib, ular orasidagi farq va o'xshashlik haqida so'z yuritiladi. Hozirgi davrda terminologik ilmiy asarlarning ahamiyati ta'kidlanganligini inobatga olib, fizik terminlarni o'rganishning ahamiyati va dolzarbli haqidagi olimlarning fikrlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: moslashuvchan mobil tuzilmalar, atamalarning assimetriysi, ixtisoslashgan terminologiya, pnevmatik tuzilmalar, fizik jarayon, o'lchov birliklari, fizik holat xususiyatlari, metaforizatsiya.

The comparative study of physical terms in modern linguistics delves into the fascinating intersection between language and the physical world. By examining how different languages express concepts related to the physical environment, researchers gain valuable insights into the ways in which human societies perceive and interact with their surroundings. This field of study sheds light on the diversity and universality of linguistic structures, offering a rich tapestry of cultural and cognitive nuances to explore. In this introduction, we will delve into the key themes and methodologies that underpin this intriguing area of research.

Some of Uzbek researchers are doing investigation on physics terms. Sh.M. Kamolkhujayev, Kh.A. Rizayev, R.B. Bekjonov created "Dictionary of Russian-Uzbek terms from physics" and translated about 20,000 words into a book. [1; 8]

In this, the amount of physical terms translated into Uzbek is covered to a certain extent. In this, the terms and phrases related to the physical process, units of measurement, and the physical state characteristics covering all departments of physical science have been selected. At the same time, physical laws, related to the fields of science and technology used in processes, terms related to mathematical concepts used in physical science, some common words for physics and other natural sciences, their importance and the breadth of the scope of application are included in the dictionary.

The authors tried to expand the physics science at the expense of new terms. The name of chemical elements is also listed in the dictionary. Because this list of elements and their atomic structure not only belongs to the science of chemistry but also has a deep physical meaning. Therefore, if the names of the elements in Mendeleev's table did not find their place in the dictionary, the dictionary would be much poorer in terms of content.

Man Yang , North Cooc, and Li Sheng published an article on the topic: An investigation of cross-linguistic transfer between Chinese and English: a meta-analysis. [2; 102]. The practice of language learners utilizing their first language's linguistic knowledge to benefit from learning a second language is known as cross-linguistic transfer. Scholars from various fields have examined the cross-linguistic transmission between Chinese and English. Nonetheless, there are differences and discrepancies between earlier research about the linguistic areas examined and the outcomes that were published. Their results demonstrate minor to moderate levels of transfer in the four areas mentioned above, based on 33 papers conducted in various countries. Furthermore, it was discovered that participant age and the study's location both influenced the results. Overall, the meta-analysis shows that there are linguistic similarities between Chinese and English that may facilitate language learning transfer.

